ISSN: 2181-3035

TALQIN VA TADQIQOTLAR

ILMIY-USLUBIY JURNALI

TALQIN VA TADQIQOTLAR
TALQIN VA TADQIQOTLAR
TALQIN VA TADQIQOTLAR
TALQIN VA TADQIQOTLAR

IMPACT FACTOR 8.2

Yuqori impact factor 8.2 ga ega bo'lgan Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnaliga qabul qilingan maqolalarga 3 ish kunida DOI raqam olinadi va Directory of Research Journals Indexing Zenodo, OpenAire, Cyberleninka, Google scholar (10 ish kuni) kabi xalqaro ilmiy bazalarda indekslanadi va jurnal belgilangan sanada to'liq shaklda www.talqinvatadqiqotlar.uz rasmiy saytiga joylanadi.

Jurnalga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha maqolalar qabul qiladi: Fizika-matematika fanlari, Kimyo fanlari, Texnika fanlari, Iqtisodiyot fanlari, Falsafa fanlari, Filologiya fanlari, Pedagogika fanlari, Psixologiya fanlari, Sotsiologiya fanlari, Geologiya va mineralogiya fanlari, Tarix fanlari, Geografiya fanlari, Yuridik fanlari, San'atshunoslik fanlari, Arxitektura fanlari, Biologiya fanlari, Qishloq xo'jaligi fanlari, Tibbiyot fanlari, Farmatsevtika fanlari, Veterinariya fanlari.

talqinvatadqiqotlar.uz
+99891-152-93-14
talqin@bk.ru

№26
25.06.2023

TALQIN VA TADQIQOTLAR

ILMIY - USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

UIF-2023: 8.2 | № 26

25.06.2023

talqinvatadqiqotlar.uz

Talqin va tadqiqotlar

ilmiy-uslubiy jurnal

scientific-methodical journal

научно-методический журнал

Bosh muharrir:
I.I.Abdumannonov

Mas'ul muharrir:
O.S.Isroilov

Jurnal bir oyda ikki marta chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2022- yil 12 - fevralda 1540 raqam bilan ro'yxatga olingan.

ISSN 2181 - 3035

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

Tel: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru
Сайт: talqinvatadqiqotlar.uz

Tahrir kengashi:

Muydinov Erkin Djamaldinovich
Toshkent Moliya Instituti Andijon fakulteti dekani
Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Mamatov Obidxon Vaqqosovich
Namangan davlat universiteti "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi

Masharipova Gularam Kamilovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich
Namangan davlat universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent

Zokirov Sanjar Ikromjon o'g'li
TATU Farg'ona filiali, Kompyuter tizimlari kafedrasi mudiri fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ibragimova Mavluda Ro'zmetovna
Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori
O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti katta ilmiy xodimi

Jo'rayeva Sobira Eshqurbonovna
O'zMU jurnalistika fakulteti, o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ubaydullayev Farxod Baxtiyarullayevich
Toshkent davlat agrar universiteti "O'rmonchilik va landshaft dizayn" kafedrasi dotsenti

Umarova Maxliyo Yunusovna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori

Jepbarova Sayat Qurbanmiratovna
Qoraqalpoq davlat universiteti Turkman tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich
Farg'ona davlat universiteti mevachilik va sabzavotchilik kafedrasi mudiri q.x.f.f.d (PhD)

Bazarov Otabek Odilovich
Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD

Azizov Olimjon Toxirovich
Toshkent kimyo texnologiya instituti GSKMT kafedrasi dotsenti

Rahimova Maftuna Odilovna
Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD

Mirzaahmedova Kamola Toxirovna
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti farmakologiya, fiziologiya kafedrasi dotsenti

Djumaniyozova Enajon Kutimovna
Toshkent arxitektura qurilish instituti xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi

Urazmetova Shoira Azatbayevna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Urganch filiali o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Jo'rayeva Dilnoza Shokirjonovna
Termiz davlat universiteti algebra va geometriya kafedrasi o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Maxkamova Dilafruz Yuldashevna
O`zbekiston Milliy universiteti Tuproqshunoslik kafedrasi dotsenti

OMU DARYONING IKKI QIRG‘OG‘IDA YASHAB EJOD ETGAN ERKİN VOHİDOV VA MATIN ANDXUIYNING O‘ZBEGIM VA QUVONCH AVJI QASIDALARIDAGI TARIXI SIMOLAR
HISTORICAL CHARACTERS IN UZBEGIM AND KUVONCH AVJI POEMS OF ERKIN VAHIDOV AND MATIN ANDXUIY WHICH WERE CREATED ON BOTH SIDE OF THE AMU RIVER

Abdul Khalil Ahmadoughli
Assisant Professor Balx Universiteti Til va Adabiyot Fakulteti,
O‘zbek Tili va Adabiyoti Kafedrasi, Mazor-i Sharif/AFG’ONİSTON
Assistant Professor of the Uzbek Language and Literature Department, Language and Literature Faculty of Balkh University, Mazar-e Sharif/ Afghanistan
Khalil.ahmadoughli1@gmail.com
ORCİD İD: 0000-0003-4835-7837

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Omu daryoning ikki qirg‘og‘ida ulg‘ayib o‘sgan ikki vatanparvar shoir Erkin Vohidov va Muhammad Amin Matin Andxuiyning O‘zbegim va Quvonch Avji nomidagi qasidalari har tamonlama tekshirilib, ushbu ikki qasidalarda tarixi asarlar va simolar tasbit etilib va har birining haqqida qisacha bilgi berilgan. Omu daryo**,** hozirgi Afg‘oniston va Tojikistonga tegishli bo‘lgan Pomir tog‘ining etaklaridan qaynoqlanib, Panj va Ko‘kcha daryosining birlashuvi bilan Omu daryo ismini olib, Afg‘oniston, O‘zbekiston va Turkmaniston hududlaridan o‘tib Orol dengiziga quyilgan va Jayhun nomi bilan mashhur bo‘lgan daryoning ismidir. Omu daryo, tili, tarixi, kimligi, borligi va boyligi bir bo‘lgan buyuk O‘zbek xalqini xuddiy bir tandagi ikki ruh kabi ikki qirg‘og‘ida ayirib qo‘ygan bo‘lsa ham, bu ikki ayri yurtga yashagan O‘zbek xalqi hichqachon o‘zligini va o‘tmishini unutmagan. Bu ikki barakatli tuproq, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom, Oybek, Erkin Vohidov, Zulfiya, Ergash Uchqun, Muhammad Amin Matin Andxuiy, Shafiqa Yorqin, Muhmmad Halim Yorqin, Toshqin Bahoiy, Muhammad Ashraf Sharifiy, Muhammad Kozim Amini, G‘ulomsaxi Vakilzoda, Aminulla Noil Xonkeldi kabi milli g‘oyaga ega bo‘lgan, o‘nlarcha shoir va yozuvchlarni o‘z bag‘rida yetishtirgan.

Kalit so‘zlar: Erkin Vohidov, O‘zbegim, Matin Andxuiy Quvonch Avji, Omu daryo.

Abstract: In this article, two patriotic poets, Erkin Vahidov and Muhammad Amin Matin Andkhui, who grew up on the two sides of the Omu river, odes named Uzbegim and Quvonch Avji are thoroughly examined, historical works and images are identified in these two odes, and brief information about each of them is given. The Omu river is the name of the river that rises from the foothills of the Pamir mountains,

which belong to present-day Afghanistan and Tajikistan, takes the name of the Omu river after the confluence of the Panj and Kokcha rivers, flows through the territories of Afghanistan, Uzbekistan and Turkmenistan into the Aral sea and is known as the Jayhun. Even though the Omu river separated the great Uzbek people, whose language, history, identity, existence and wealth are the same, on its two sides, like two souls in one body, the Uzbek people who lived in these two separate countries never forgot their identity and past. These are two blessed soils, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qadiri, Abdulhamid Cholpon, Gafur Ghulam, Oybek, Erkin Vahidov, Zulfia, Ergash Uchkun, Muhammad Amin Matin Andhuiy, Shafiqa Yorqin, Muhammad Halim Yorqin, Tashqin Bahai, Muhammad Ashraf Sharifi, Muhammad Kozim Amini, Ghulom Sakhi Vakilzada, who had a national idea like Aminulla Noil Khankeldi, raised dozens of poets and writers in his bosom**.**

Key words: Erkin Vahidov, Uzbegim, Matin Andkhuiy Kuvonch Avji, Omu Daryo.

Kirish: Ushbu maqolada, 20. yuzyilda Omu daryoning ikki yoqida oralarida to‘rt yil farqi bilan tug‘ilib 21. yuzyil 79 yoshlarida dunyodan ko‘z yumgan ikki O‘zbek shoiri Erkin Vohidov’nin O‘zbegim qasidasi va Muhammad Amin Matin Andxuiyning Quvonch Avji isimli qasidasi her tamonlama tekshirilgan.

Ushbu ikki shoirning hayotiga qaraganimizda, Erkin Vohidov 1938 yilida Omu daryoning uyoqida Farg‘onada tug‘ilgan. Kechik yoshlarida ota-onasi vafot etgan. Toshkent’da tog‘asining qo‘lini ostida tarbiyalana boshlagan. Toshkent Davlat Uninveristeti Filologiya bo‘limida tahsil qilgan. O‘qishini bitirgandan so‘ng ayrim jurnallar va nashriyotlarning tahririyotida ishlagan. She‘r va adabiyot bilan qiziqib o‘zidan o‘nlarcha nodir asar miros qoldirgan. ‘Umrining so‘ngi yillarida siyosatga dunyosiga o‘tib, bir qancha yil O‘zbekiston buyuk millat majlisida, majlis boshlig‘i sifatida ishlab 2016 yilida 79 yoshida Toshkent‘da vafot qilgan.

Andxuylik Muhmmad Amin Matin, Vohidovning tavalludidan to‘rt yil so‘ngra 1940 yilida hozirgi Afg‘oniston‘ning shimolidagi Foryob viloyati Andxuy tumanida tug‘ilgan. U, O‘rta maktab oltinchi sinifga qadar o‘qigan. Qolgan ta‘limotini ustod qurbat kabi olimlarning yonida tamomlagan. Keyinchalik She‘r va adabiyot bilan qiziqqan. Vohidov kabi ayrim jurnallar uchun yozi yozgan. Junallarda bosilib chiqqan she‘rlarni to‘plab, farqli majmu‘alar shaklida chop ettirgan. Fors va O‘zbek tillarida she‘rlar yozib o‘zidan baholi asarlar miros qo‘ygan. Nihoyatda Matin Andxuiy, Vohidovdan to‘rt yil keyin 2020 yilida va u bilan ayni yoshda (79 yoshida) dunyodan ko‘z yumgan.

Ushbu shoirlar ikki ayri bo‘lgada va ikki ayri tizimning ostida yashab ejod bo‘lsa ham, ikkisi ayni milli tushuncha bilan asar yaratgan. Erkin Vohidovning 1968 yilda qalamga olgan O‘zbegim qasidasida, O‘zbek xalqining o‘tmishi, yashagan yurtlari,

bilimdonları va Turkiy xalqlarning ayrim tarixi simolari haqqida so‘z yuritgan. Vohidovning ushbu qasidasini har tamonlama tekshirganimizda, uni O‘zbek milliyatchisi deyishimiz noto‘g‘ri bo‘lmas.

Matin Andxuiy esa, Quvonch Avji isimli qasidasini, Vohidov’ning O‘zbegim qasidasidan 22 yil so‘ngra yozgan. Ushbu qasidada, farqli vazin va qofiya bilan yozilgan bo‘lsa ham, Vohidov’nin O‘zbegim qasidasidan ilhomlanib bu qasidani yozgan. Ushbu qasidani tekshirganimizda Matin Andxuiy’ni Turk milliyatchisi deyishimiz xato bo‘lmaydi. Chunki, ushbu qasidada, yolg‘iz O‘zbek shoir va yozuvchilari emas Turk, Turkman va Ozar Xalqiga tegishli bo‘lgan yirik shoir va yozuvchilar haqqida ham so‘z yuritilgan.

Ushbu maqolada, birinchidan Erkin Vohidov va Matin Andxuiyning hayoti va ejodiyoti haqqida qisqa bilgi berilib, keyinchalik esa, ayrim qaynoqlardan foydalanib yuqorida aytilib o‘tgan ikki qasidada yer olgan tarixi yerlar, asarlar va shaxlar haqqida ayri boshliqlar ostida qisqa bilgi berilgan. Bunu ham eslatishim kerak ki, Ustod Matin Andxuiy’ning h.1395 yilida chop bo‘lgan Quvonch Avji qasidasining so‘ngi qismida qasidadagi tarixi asarlar va simolar haqqida bilgi berilgan ammo qaynoq ko‘rsatilmagan. Bu maqolada, ushbu tarixi asarlar va shaxlar haqqidagi bilgilarga ayri ayri qaynoq ko‘rsatilgan.

ERKIN VOHIDOVNING HAYOTI VA EJODIYOTI

Milli mafkura egasi, O‘zbekiston Respubilkasining atoqli xalq shoiri va yozuvchisi va O‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri bo‘lgan Erkin Vohidov, 1936 yilida hozirgi O‘zbekistonning Farg‘ona viloyati va Oltiariq tumanida tug‘ilgan. Onasi Roziyaxon va otasi Cho‘yanboy Vahidov qishloq o‘qituvchilari va fa‘ollaridan bo‘lishgan. Ularninig umri qisqa ekan juda erkan ‘olamdan o‘tishkan. Shuning uchun Erkin Vohidov’ga nisbatan ikki qisqa umrning yolg‘iz yodigori ishlatiladi.

Ona-ota vafotidan keyin Toshkengga tog‘asinikiga ketadi. Tog‘asinig qo‘lida tarbiyalana boshlaydi. U, Toshkent Univesiteti Filologiya bo‘limida tahsil qiladi. Vohidovning she‘riyat dunyosi bilan aloqa topishini katta sababi Mirtemir bosh bo‘lgan ejodiy seminarga qatanashmasidir. Ushbu seminar ta’siri bilan she‘r dunyosiga kiradi va she‘r yozaboshlaydi. Erkin Vohidovdan İshq Savdosi, She‘r Dunyosi va Umrim Daryosi isimli uch she‘r to‘plami, Nido, Orzu Chashmasi, Palatkada yozilgan doston, buyuk hayot tongi, Charog‘bon, Toshkent Savdosi, Quyash Maskani, Ko‘hi nur, Ruhlar İsyoni, İstanbul Fojiasi kabi o‘nlarcha doston O‘zbek adabiyoti shohasida miros qolgan (Karimov, 2016b.131)

O‘ZBEGIM QASIDASI VA USHBU QASIDADA YER OLGAN TARIXI ASARLAR VA SIMOLAR

O‘zbegim

Tarixingdir ming asrlar İchra pinhon O‘zbegim,

Senga tengdosh Pomiru Oqsoch Tiyonshon, O‘zbegim.
So‘ylasin Afrosiyobu So‘ylasin O‘rxun xati,
Ko‘hna tarix shodasida Bitta marjon, O‘zbegim.
Al-Beuniy, Al-Xorazmiy, Al-Forob avlodidan,
Asli nasli balki O‘zluq, Balki Tarxon O‘zbegim.
O‘tdilar sho‘rlik boshingdan O‘ynatib shamshirlarin,
Necha qoon, necha sulton, Nech ming xon, O‘zbegim.
Tog‘laring tegrangda ko‘yo Bo‘g‘ma ajdar bo‘ldi-yu,
İkki daryo-ikki chashming, Chashmi giryon, O‘zbegim.
Qaysari Rum nayzasidan Bag‘rida dog‘ uzra dog‘,
Chingizu Botu tig‘iga, Ko‘ksi qalqon O‘zbegim.
Yog‘di to‘rt yondan asrlar Boshinga tiyri kamon,
Umri qurbon, mülki toroj, Yurti vayron, O‘zbegim.
Davr zulmiga va lekin Bir umr bosh egmading,
Sen-Muqanna, serbador-sen, Erksevar qon, O‘zbegim.
Sen na Zardusht, sen na buddiy, Senga na otash, sanam,
Odamilik dini birla, Toza imon, O‘zbegim.
Ma‘rifatning shu‘lasiga Tolpinib zulmat aro,
Ko‘zlaringdan oqdi tunlar, Kavkabiston, O‘zbegim.
Tuzdiyu Mirzo Ulug‘bek Ko‘ragoniy jadvalin,
Sirli osmon toqiga İlk qo‘ydi narvon O‘zbegim.
Mir Alisher na‘rasiga Aks-sado berdi jahon,
She‘riyat mulkida bo‘ldi Shohu sulton, O‘zbegim.
İlmu she‘rda shohu sulton, Lek taqdiriga qul,
O‘z elida chekdi g‘urbat, Zor u nolon, O‘zbegim.
Mirzo Bobur-sen, fig‘oning Soldi olam uzra o‘t,
Shoh Mashrab qoni senda Urdi tug‘yon O‘zbegim.
She‘riyatning gulshanida So‘ldi mahzun Nodira,
Siym tanni yuvdi ko‘z yosh, Ko‘mdi armon, O‘zbegim.
Yig‘ladi Furqatda Furqat Ham muqimlikda Muqim,
Nolishingdan Hindu Afg‘on, Qildi Afg‘on, O‘zbegim.
Tarixing bitmakka, xalqim, Mingta Firdavsiy kerak,
Chunki bir bor chekkan ohing, Mingta doston, O‘zbegim.
Ortda qoldi ko‘hna tarix Ortda qoldi dard, sitam,
Ketdi vahming, bitdi zaxming Topdi darmon, O‘zbegim.
Bo‘ldi osmoning charog‘on Tole xurshidi bilan,
Bo‘ldi asriy tiyra shoming, Shu‘la afshon, O‘zbegim.
Men vatanni bog‘ deb aytsam, Sensan unda bitta gul,
Men vatanni ko‘z deb aytsam, Bitta mujgon, O‘zbegim.

Faxr etarman, ona xalqim, Ko‘kragimni tog‘ qilib,
Ko‘kragida tog‘ ko‘targan, Tanti dehqon, O‘zbegim.
O‘zbegim deb keng jahonda Ne uchun madh etmayin!
O‘zligim bilmoqqa davrim Berdi imkom, O‘zbegim.
Men buyuk yurt o‘g‘lidurman, Men bashar farzandiman,
Lekin avval senga bo‘lsam, Sodiq o‘g‘lon, O‘zbegim.
Menga Pushkin bir jahonu Menga Bayron bir jahon,
Lek Navoiydek bobom bor, Ko‘ksim osmon O‘zbegim
Qayga bormay, boshda do‘ppim,G‘oz yurarman gerdayib,
Olam uzra nomi ketgan O‘zbekiston, O‘zbegim.
Bu qasidam, senga xalqim, Oq sutu tuz hurmati,
Erkin o‘g‘lingman, qabul et, O‘zbegim, jon O‘zbegim.

Ushbu qasida, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov tamonidan 1968-yilida qalamga olingan va 52 baytdan iboratdir. Qasidada, buyuk O‘zbek xalqining o‘mishi, kimligi, borligi va boyligi yaqqol shakilda ochiqlangan. O‘zbegim qasidasida, Pomir, Tiyonshon va O‘zbekiston kabi yerlar, O‘rxun Xati kabi nodir yodigorliklar, Qaysar-i Rum, Zardusht, Afrosiyob, Al-Beruniy, Al-Xorazmiy, Al-Forobiy, Tarxon, O‘zluq, Chingiz, Botu, Mirzo Ulug‘bek, Mir Alisher Navoiy, Zahiruddin Muhammad Bobur Shoh, Bobo Rahim Mashrab, Nodira Begum, Furqat, Muqimiy, Firdavsiy, Pushkin, Bayron, Erkin kabi tarixi simolar haqqida so‘z yuritilgan.

Pomir: Hozirgi Afg‘onistonning shimolidagi Badaxshon viloyatiga tegishli yuksak bir tog‘ning ismi.

Tiyonshon: Erkin Vohidovning O‘zbegim qasidasi va Matin Andxuiyning Quvonch Avji qasidasida zikr etilgan O‘rta Osyodagi yuksak bir tog‘.

Qaysar-i Rum: Rum podishosiga atalgan isim.

Zardusht: O‘rta Osyoda Zardusht dinini rivojlantirgan va xudolik da‘vo qilgan kishining isimidir.

O‘rxun Xati: 19. yuzyilning boshlarida O‘rxun Yenisey (Onasoy), daryosi bo‘yi, Tilas, Mo‘g‘uliston va Qirg‘iziston hududlarida topilan tosh bitiklardir. Ushbu bitiklar yozuvi Arab yozuviga o‘xshab o‘ngdan chapga tamon yozilgan va 38 harfdan ‘iboratdir. (İshonch, h. 1392, b. 32)

Afrosiyaob: Afrosiyob yo Olp Er Tunga, Turk xalqining tarixi va afsonaviy qahramonlaridan birining ismidir. Oti, Eski Forscha (Avesto Tili) matinlarida *Frangrasyan*, O‘rta Forscha (Pahlaviy Tili) matinlarida *Frasiyok*, *Frangrasyok*, Arabcha qaynoqlarda Tebri‘da *Frosiyob*, *Frosiyot*, Masudiy va Beruniy‘da *Farosiyob*, İron milli dostoni Firdavsi Shahnomasi‘da *Afrosiyob o‘laroq o‘tmoqtadir.* (Ögek, 2008, b. 509)

Al-Beruniy: Abu Rayhon Al-Beruniy, milodiy 973. yilda Xorazm‘ning Fir isimli shahrida dunyoga kelgan. U, tarix, falakiyot, riyoziyot, falsafa, tibbiyot, jeografiya va

fizika bilimlari bilan shug‘ullangan. U, ‘Arabcha, Forscha, sonskrit va Yunon tillarini yaxshi bilgan. Arabcha bilan sherlar yozgan. Al-Beruniy, qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar, Kalid-i Nujum, Muxtorul ash‘or kabi qimatli asarlar yaratgan. (Mallayev, h. 1395, b.91)

Al-Xorazmiy: Muhammad bin-i Musa Al-Xorazmiy milodiy sekkizinchi yuzyilning o‘rtalarida Xorazmda dunyoga kelgan. U, astronom, matematik geograf bilimlarini bilimdoni bo‘lgan. Al Xorazmiydan Zij, Arifmetika, Aljabr val muqobala, Suratul-Arz, Kitobi Amal bilasturlobot kabi asarlar miros qolgan. (Mallayev, h. 1395, b.85)

Al-Forobiy: Abu Nasr Muhammad bin-i Tarxon bin-i O‘zluq, milodiy to‘qqizinchi yuzyilning yetmishinchi yillarida Sirdaryo‘ning Forob mahallasida tug‘ilgan. U, falsafa, mantiq, astronom, matematik, tib va musiqa bilimlari bilan shug‘ullangan. Al- Forobiy, o‘z davrida Sharqning Arastusi va ikkinchi o‘qituvchisi sifatida shuhrat topgan. Donishmandlik gemmalari, Himmatli shahar aholisining nuqtai nazari haqqida risola, İlimlar tasnifi risolasi, va Katta Musiqa Kitobı isimli nodir asarlar undan miros qolgan. (Mallayev, h. 1395, b.85)

Tarxon: Abu Nasr Forobiyning bo‘basi.

O‘zluq: Tarxon‘ning otasi va Abu Nasr Forobiy‘ning dadasi.

Chingiz: Asıl ismi Temuchin bo‘lgan Chingiz Xon Yasugoy Bahodir‘ning o‘g‘lidir. U, otasining o‘limidan bir qancha vaqt so‘ngra ayrim bo‘lgalarda yashagan mo‘g‘ul kabilalarini birlashtirib, xonlik unvonini olib, Mo‘g‘ullar davlatini asosini qo‘ygan birinchi Mo‘g‘ul podishohsidir. (Arslan, 2015, b.1012)

Botu: Bou Xon, Chigiz Xonning nabirasi va Jujining o‘g‘ullaridan biridir. U, boy va eng kuchli shahzodalardan biridir. (Derpini, 2000, b.67)

Mirzo Ulug‘bek: Buyuk yulduzshunos Mirzo Ulug‘bek, Amir Temur‘ning nabirasi va Shohrux Mirzo‘ning o‘g‘lidir. (Mallayev, h. 1395, b.227)

Amir Alisher Navoiy: Chig‘toy adabiyotining eng buyuk shoir va yozuvchilaridan biridir. U, milodiy 1441. yilda Hirotda tug‘ilgan va milodiy 1501. yilda ushbu shahrda vafot qilgan. Adabiyotimiz sohasida qirqqa yaqin manzum va mansur asar miros qo‘ygan. (Maqolalar to‘plami, h. 1400, b. 162)

Zahiruddin Muhammad Bobur Shoh: Bobur imperiyasining quruvchisi, Zahiruddin Muhammad Bobur Shoh, milodiy 1483 yilida hozirgi O‘zbekistonning Farg‘ona shahrida tug‘ilgan. Otasi Amir Temurning o‘g‘li Umar Shayx Mirzo va onasi Qutlug‘ Nigor Xonimdir. U, Movarovun-nahr, Kobul va Hindistonda hukumat qilgan. Adabiyotimiz sohasida, undan Bobur Devoni, Boburnoma, Risolaiy Aruziy, Risolaiy Mubayyin, Risolaiy Validiyya isimli to‘rtta asar miros qolgan. (İbrohim, h. 1396, b.48)

Bobo Rahim Mashrab: Mashrab, 17. yuzyilning oxiri va 18. yuzyilning boshlarida yashab ejod etgan O‘zbek mutasavvuf shoirlaridan biridir. Undan, Mashrab Devoni isimli bitta manzum asar miros qolgan. (Abdullayev, h. 1392, b.70)

Mohlaroyim Nodira Begum: Nodira Begum, O‘zbek adabiyotining 19. yuzyilning eng muhim shoirlaridan biridir. U, 1791-1792 yillari orasida Andijonda tug‘ilgan. Qo‘qan adabiy muhitida yetishgan. Turkcha va Forscha bilan shirlar yozgan. Adabiyotımız sohasida undan Nodira Devoni isimli bir nodir asar miros qolgan. (Ahmadoughli, 2023, b.189)

Furqat: Mullo Xol Muhmmad o‘g‘li Zokirjon Furqat, milli madaniyatimiz tarixidagi yorqin simolardan biri, ulkan ejodkor va qomusli ‘olimdir. Uning dil o‘rtar lirik she‘rlari, ajoyib nasri, publitsictikasi O‘zbek adabiyoti xazinasini boyitgan bo‘lsa, adabiyotshunos va tarixchi, etnograf (elshunos) na tarjimon, jurnalist va xattot, geograf va hakim sifatidagi serqirra fa‘oliyati ham tahsinga sazovor. U, adabiyotimizga ulkan hissa qo‘shgan muhim shoirlardan biridir. (Tojiboyev, 2010, b.1)

Muqimiy: Muhammad Amin Xo‘ja Muqimiy, O‘zbek adabiyoti tarixida o‘namli o‘ringa ega bo‘lgan shoirlardan biridir. U, 1850-yilida Qo‘qan shahrida tug‘ilgan. Qo‘qan va Buxoro madrasalarida tehsil qilib, Muqimiy taxallusi bilan ejodiyotga boshlagan. (Kamolo‘g‘li, 2021, b.202)

Firdavsiy: Shohnoma yozuvchisi Abulqosim Firdavsiy Tusiy, Fors adabiyotining buyuk shoir va yozuvchilaridan biridir.

Pushkin: Aleksandr Sergeyevich Pushkin, yangi rus adabiyotining asoschisidir.

Bayron: İngiliz adabiyotning o‘namli shoir va yozuvchilaridan biridir.

MUHAMMAD AMIN MATIN ANDXUIYNING HAYOTI VA EJODIYOTI

Afg‘oniston O‘zbek chog‘dosh adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Muhammad Amin Matin Andxuiy, h.1319 va milodiy 1940. yilda Afg‘onistonning shimolidagi Foryob viloyatining Andxuy tumanida tug‘ilgan. U, dastlabki ta‘limotini Andxuyda bitirgan. Qolgan ta‘limotini xususiy shakilda o‘rganib, Ustod Qurbat kabi bilimdonlarning yonida ta‘lim ko‘rgan.

U, tezlikda madrasaning qil u qollaridan o‘zini bo‘shatib, horimasdan til, farhang, tarix, hunar va adabiyot to‘g‘risida qidirish, o‘qish va yozishga boshlagan. U, zullisonayn shoir bo‘lib, Fors va O‘zbek tillarida nodir asarlar yaratgan.

Ulka Matbuotida Bosilib Chiqqan Nashriyalardan To‘plab Chop Qilgan Asarlari:

1.Guzidaiy Ash‘or-i Ustod Xalilulloh Xaliliy.
2.Guzidaiy Ash‘or-i Abdulhodiy Doviy.
3.Guzidaiy Ash‘or-i Muhammad Karim Nazihiy Jilva.
4.Guzidaiy Ash‘or-i G‘ulom Ahmad Navid.
5.Guzidaiy Ash‘or-i Muhammad İbrohim Safo.
6.Guzidaiy Ash‘or-i Muhammad Anvar Bismil.
7.Guzidaiy Ash‘or-i Abdurrahmon Pajvok.
8. Ozodiy-Majmu‘aiy az surudahoiy shu‘aro dar boraiy istiqlol.
9. Gulbong-i Subh- Majmu‘aiy az shu‘aroiy ma‘osir.

10. Darxt-i Dustiy-Majmuʻaiy az ashʻor dar bora-yi sulh.

11. Tong Yeli-Majmuʻaiy yak mushoira-yi shuʻaroiy Oʻzbek zabon.

12. Kulliyot-i Devon-i Mavlono Qurbat.

Uning Bosimdan Chiqqan Tahqiqiy va Taxliqiy Asarlari:

1.Koʻngil Soʻzi- Oʻzbek tilidagi sheʻrlar toʻplami, Kobul, h.1365.

2. Marz-i Xurshid- Fors Tilidagi sheʻrlar toʻplami, Afgʻoniston yozuvchilar anjumanining nashriyoti, Kobul, h.1367.

3. Bogʻ-i Lolapush- Oʻzbekcha va Forscha sheʻrlar toʻplami, Pishovur/Pokiston, h.1379.

4. Kosaiy Chubin-Andxuylik Bobo Vali'ga mashhur boʻlgan Bobo Sangu'ning hayoti, manzum va mansur asarlari, Pishovur/Pokiston, h.1380.

5. Andxuy dar guzargohiy tarix.

6. Shajara Nomaiy Sodot Mir Sayyid Baraka. (Aminiy, h.1385, b.181)

QUVONCH AVJI QASIDASI VA USHBU QASIDADA YER OLGAN TARIXI ASARLAR VA SIMOLAR QUVONCH AVJI

Xaqaro faxr etgali shavkat bilan shon bizda bor
Hur yashab davron surilgan koʻshku qurgʻon bizda bor.
Oʻldugʻum kunlar qamishtirgan butun dunyo koʻzin,
Bu salobat mahdi boʻlgan marz-i Turon bizda bor.
Oq shochining tor toridan tomar inju suyiy,
Koʻk sori qomat chekib turgan tiyonshon bizda bor.
Tuprogʻimiz vasfidan ziybo buyalgan safhalar,
Soʻz uzukiga nigin laʻl-i Badaxshon bizda bor.
Rashki jannat koʻylasam arzir Samarqand oʻvvasin,
Chashmasi toshqin, suyi shirin, zarafshon bizda bor.
Barcha tarixi binolar tojidur Tojm Mahal,
Osmon koʻzgusin oʻpgan qasru iyvon bizda bor.
İrk miʻroji uza chekti alam Afrosiyob,
Boʻyla botur qahramonlardan hazoron bizda bor.
Xasmga ne hadd ki boqsa biz tamonga oʻqtalib,
Chopqin ot, oʻtkir qilich ham mardi maydon bizda bor.
Xalqimiz qilgan savosh ichra Sikandarni zabun,
Har urugʻdan yovga qarshi koʻksi qalqon bizda bor.
Dahr anosi tugʻmagan Olp Arslon'dek qahramon,
Oz qushun birla ugush lashkarni yengon bizda bor.
Razm maydonida Temur olida tiz choʻkti yov,
Oʻzligin isbot etgan ancha sulton bizda bor.
Koʻylagaymiz birlik ovozini turmush bogʻida,
Bir ogʻizdan yangragan oʻnlarcha ilhon bizda bor.

Barcha Turkiy xalq ulug‘in bir imchakni emib,
Bir ano avlodi O‘zbek u Turkmon bizda bor.
Gavdalangandir jahon tarixida ajlolimiz,
Kuchli olam, so‘zli shoir, shonli xoqom bizda bor.
Madrasa birla kutubxona tuzib o‘z davrida,
İlmu fan shaydosi bo‘lgan xonu xoqon bizda bor.
O‘tmishimdan so‘ylarim O‘rxun xatiga til cho‘zib,
Bu bitik tosh Bilka Qoon’dan numoyon bizda bor.
Sharqni hikmat charog‘idan yorutganmiz aniq,
Chunki Forobiy kabi tengsiz bilimdon bizda bor.
Ayladi til boyligin Mahmud ‘olamga ‘ayon,
Har so‘zi inju Lug‘otit-Turk devon bizda bor,
Xos Hojib yo‘lladi ilni sa‘odat soriga,
Xalq baxtin istagan donoiy davron bizda bor.
Ahmadi Yugnakiy otiga qilurmiz iftixor,
Kim haqoyiq hadyasidan qalb-i shodon bizda bor.
Mavj urar Ahmad Yasaviy hikmatidan ma‘rifat,
Ko‘ngli haq nuriga cho‘mgan ahli ‘irfon bizda bor.
Fayz sochgay hashrga tegru Yanobiul-‘Ulum,
Luluiydan bu ulug‘ tafsiri Furqon bizda bor.
Bu jahon tarixini yorutdi Minhojus-Siroj,
Voyaga yetkuzgan oni Javzijonon bizda bor.
İlmu hikmat sadrida joy olgan erdi ul Zahir,
Ko‘ngil injusi chizilgan undan arqon bizda bor.
Xamsa ganjining Nizomiy’dur birinchi xozani
Ganja’dan chiqqan bu besh ganji duraxshon bizda bor.
Anbiyo ahvolin etdi elga Rabg‘uziy bayon,
Haq hikoyotini yozgan, fikri tobon bizda bor.
Chin ko‘ngildan cho‘q sevib ona tilin Haydar kabi,
Maxzanul-Asrornı Turkiyda yozgon bizda bor.
Ko‘yladi sevgini Xorazmiy Muhabbatnoma’da,
Hofizi Xorazmiy yanglig‘ ham xush ilhon bizda bor.
Qutb etdi Xusravu Shirin’ni erkin tarjima,
Sayf yashnatgan dag‘i Turkiy Guliston bizda bor.
Tinglagil bulbul navosini Gulu Navruz’dan
Sevgi bog‘ida bu yanglig‘ ancha daston bizda bor.
Etdi ko‘k rozin Ulug‘bek Xon birinchi qatla kashf,
Bosh ko‘tarmoqqa quvonch avjiga imkon bizda bor.
Xubrular husni Boysung‘ur xatiga qizg‘anur,

Xamasidan yashnagan yoqutu rayhon bizda bor.
Marhabo zavqiga kim qurgan Nigoristonidan,
Gullab o‘sgan nozanin san‘at firovon bizda bor.
Boyquro davrida farhang ahli i‘zozin ko‘rib,
İlmu she‘r asnofi ichra shonli ‘unvon bizda bor.
Aylgan tasxiyr so‘z iqlimini chekmay chirik,
Mir Alisher Navoiydek suxandon bizda bor.
Xamsasin har satridan ko‘rkam ma‘oniy sochilur,
Besh bahori ma‘rifat undan shugufon bizda bor.
Hayratul-Abror elni haq yo‘liga boshqarur,
Layliu Majnuindan ham ‘ishqi suzon bizda bor.
Adl avsofin Sadd-i İskandarida ko‘ylagan,
Doyim el baxti uchun bu qutli ormon bizda bor.
So‘zimiz Farhodu Shirin qissasidandur suchuk,
Saba‘iy Sayyorasidan kavkabiston bizda bor.
Barcha dillar ichra Mahbubul-Qulubi ochdi yo‘l,
Bu asar birlan ulashgan rishtaiy jon bizda bor.
Sayratib ko‘ngil qushin Haq rozin etdi oshkor,
Ul Lisonut-Tayr yanglig‘ ganj-i ‘irfon bizda bor.
Dilrubolar qoshidan mavzun irur abyotimiz,
She‘r fanni bobida Mizonul-Avzon bizda bor.
Forsiga Turkicha ortiqliginn qildi sübut,
Ushbu barhaqq idda‘oga katta burhon bizda bor.
Parvarish topgan Dari she‘rida ezgu g‘oyalar,
Ya‘niy ushbu Tilda ham tab-i duraxshon bizda bor.
Yozdilar oltin suyiyla she‘rlar majmu‘asin,
Qo‘llari mohir guzal qo‘lyozma yozgon bizda bor.
Ne chiroylidur sahofat birla koshiy san‘ati
O‘ymakorlik fannidan ham faxr-i davron bizda bor.
Ul Qivomuddin edi mi‘morlikda binazir,
Vah ne toli‘dur ki bo‘yla ahli ‘irfon bizda bor.
Shonli gunbaz qurdi Gavharshod Begum qabrida,
Dong chiqargan bo‘yla san‘atkor inson bizda bor.
Talpinur ko‘ngil, tarannum aylasam Bobur so‘zin,
Kim uning so‘z pardasiyla bog‘liq afg‘on bizda bor.
Tuzdi Boburnomasin ‘olamnumo oyinadek,
Har so‘zidan bir jahon ma‘niy numoyon bizda bor.
Qildilar dunyo bo‘yicha oni tab‘u tarjima,
Etiboriy nusxalardan chop-i qozon bizda bor.

İlm-i tib bobida ham tebratdi o‘tkur xomasin,
Ne mubayyin nuktalar undan firovon bizda bor.
İbtikoriy ishlaridan Boburiy xatdur biri,
Kim yozilgan ushbu rasmul-xatda Quron bizda bor.
Ne sa‘odatdur ki orom oldi Kobul qo‘ynida,
Jism aro yug‘rilgan oning mihriyla qon bizda bor.
Davr surdi ‘adl mizonin Jaloluddin qurib,
Oning Akbarnomasidan bu ulug‘ shon bizda bor.
Dil Fuzuliy so‘zli ovozin eshitgach mast olur,
Boda birla Bangidan kayfi xumiston bizda bor.
Sharq ulusi faxr etar Bul-Ma‘oniy nomiga,
Bu ulug‘ gavharni yashnatgan dabiston bizda bor.
Forsiy tildadur i‘jozi jahonda oshkor,
Hamda Turkiy she‘ridan bir shoda marjon bizda bor.
Yashnadi farhangimiz Shayboniylar davrida ham,
Bu adab bog‘ın sug‘organ ob-i hayvon bizda bor.
İlm dengizida Mahmud ayladi g‘avvoslik,
Bahrul-Asroridan oning durr-i g‘alton bizda bor.
Tuzdi Yusuf Erkin Hashtarxoniyon tarixini,
Ul zamon bazmin yorutgan sham‘i furuzon bizda bor.
Chizdi Kosoniy Navoiy xamsasiga naqshlar,
Ushbu fanda tug‘ma isti‘dod chandon bizda bor.
Turkmonu Turk haqqida nasabnoma yozib,
Ul, Abul-G‘oziy kabi shuhrat qozongon bizda bor.
Yozdi Barxurdor ne Ra‘nou Ziybo doston,
Ham Nafas Botur so‘zidan ‘anbariston bizda bor.
Yangragay Maxdum Quli ash‘oridan dil nag‘masi,
Ma‘rifat ko‘ychisi Bayram Xon-i Xonon bizda bor.
Tinchlik istab Zaliliy el uchun yundi qalam,
O‘zgada bo‘lmaz degan she‘riga iz‘on bizda bor.
El ulus erkinligin qo‘ldab asar yozdi Bilol,
Xomasidan Nozugum haqqida daston bizda bor.
She‘ru hikmat Nozimu Fikrat’dan o‘lgan serfiroz,
Ham Nasin’dek tanz bobida bilimdon bizda bor.
Nodira gul bargi uzra yozdi ziybo nuktalar,
Zulfiya’dan ham suxan bobida rayhon bizda bor.
Oybek ruhini oydin istagaymiz Tarngridan,
Chunki Qutlug‘ Qon’idan ruxsor uza qon bizda bor.
Xalqaro o‘g‘li hayotin qildi ibdo‘iy zamon,

Kilkidan tomgan Navoiy nomli romon bizda bor.
O‘zbegim o‘zligin elga qaytaboshdan bildirib,
Tuz haqqin qilgan ado Erkin suxandon bizda bor.
O‘rgilay ko‘iy gulistoninga sayroq bulbuli,
Mullo To‘ychi sebgari mohir navoxon bizda bor.
Ne uchun ustod Mu’nis nomiga faxr etmayin,
Shash maqom ohangin avjiga yetkurgon bizda bor.
Bog‘ladi naqsh o‘tmishim tasviri dil ko‘gusida,
Eski tarixiga ko‘ngil qo‘ygan o‘g‘lon bizda bor.
Bir necha so‘zni kuchum yetmishcha suzdim rishtaga,
Yo‘qsa bu durdonalardan ma‘danu kon bizda bor.
O‘tmishingdan so‘zladim, xalqim yena kelgusida,
Bundan ortiq shavkatu shoningga imon bizda bor.
Qofiya gar shoyagon tushsa meni ayb etmangiz,
Bu aniq so‘z kim adab fannida nuqson bizda bor.
Qil tarannum o‘zliging vasfin Matin to‘lqunlanib,
Yaprog‘i shavkat nishon yashnoq guliston bizda bor.
Garchi tarixi qasidamning irur g‘oyat so‘zi,
Lek g‘oyatsiz quvonchu shavkatu shon bizda bor.

Quvonch Avji isimli 80 baytli ushbu qasida, Afg‘onistonlik O‘zbek shoir Muhmad Amin Matin Andxuiy tamonidan qalamga olingan va adabiyotimizda o‘namli o‘rinni egalagan. Asar, tarixi davrlar, tarixi yodgorliklar, adabiyot va san‘at egalari haqqida so‘z yuritmoqtadir. Quvonch Avji, ilk bor hijri 1379. Yilda Pokiston‘ning Pishovur shahrida, shoirning Bog‘-i Lolapush isimli asarida 500 son bosilib chiqqan. İkkinchi bor esa, hijri 1395. yilda alohida shakilda 1000 son bosilib chiqqan. Qasidada, Tiyonshon, Zarafshon va Tojmahal kabi uch tarixi yer, O‘rxun Xati, Yanobi‘ul-‘Ulum, Xamsa, Gul va Navruz, Minhojul-Siroj besh nodir asar, Afrosiyob, İskandar, Olp Arslon, Amir Temur, Bilga Xoqon, Al-Forobiy, Koshg‘arli Mahmud, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnaki, Xo‘ja Ahmad Yasaviy, Zahir Foryobiy, Nosiruddin Rabg‘uziy, Xorazmiy, Haydar Xorazmiy, Hofiz Xorazmiy, Qutb-i Xorazmiy, Sayf Saroyiy, Mirzo Ulug‘bek, Boysung‘ur Mirzo, Sulton Husain Mirzo Boyquro, Mir Alisher Navoiy, Qivomuddin, Zahiruddin Mirzo Bobur, Jaloluddin Muhammad Akbar, Muhammad Fuzuliy, Mirzo Abdulqodir Bidil, Mahmud, Shibirg‘onlik Yusuf Munshiy, Kosoniy, Abulg‘oziy Bahodir Xon, Barxurdor, Nafas Botur, Maxdum Quli Farog‘iy, Muhammad Bayram Xon, Zaliliy, Bilol Nozim, Nozim Hikmat, Fikrat, Aziz Nasin, Nodira Begum, Zulfiya, Oybek, Erkin Vohidov, Mullo To‘ychi Hofiz, Yunus Rajabiy kabi mashhur tarixi simolar haqqida so‘z yuritgan. Quyida esa, ayri boshliqlar ostida har biri haqqida bilgi berilgan.

Tiyonshon: Erkin Vohidovning O‘zbegim qasidasi va Matin Andxuiyning Quvonch Avji qasidasida zikr etilgan O‘ra Osyo‘dagi yuksak tog‘larning isimidir.

Zarafshon: Zarafshon daryosi, Omu daryo va sir daryo o‘rtasida joylashgan va Samarqand Vodisiga to‘g‘ri oqqan daryoning isidir.

Toj Mahal: Hind Podishosi Shoh Jahonning turmush o‘rtog‘i Mumtoz Mahal milodiy 1632. yilda vafot qiladi. Shoh Jahon, ‘Umr yo‘ldoshining xotirasini mangu qolishi uchun Toj Mahal isimli ushbu tarixi yerni bino qiladi. (Macun, 1990, b. 358)

O‘rxun Xati: 19. yuzyilning boshlarida O‘rxun Yenisey (Onasoy), daryosi bo‘yi, Tilas, Mo‘g‘uliston va Qirg‘iziston hududlarida topilan tosh bitiklardir. Ushbu bitiklar yozuvi Arab yozuviga o‘xshab o‘ngdan chapga tamon yozilgan va 38 harfdan iboratdir. (İshonch, h. 1392, b. 32)

Yanobi‘ul-Ulum: Hijri oltinchi asrda İmom Yusuf bin-i Ubaydulloh bin-i Abi Ya‘qub Yusuf bin-i Ahmad bin-i Ali bin-i Ahmad Andxudiy Luluyiy tamonidan qalmga olingan Quron-i Karim tafsiridir. (Andxuiy, h. 1395, b.25)

Xamsa: Andxuiy, ushbu qasidasida, Ozarboyjonlı Shoir Nizom-i Ganjavi tamonidan yaratilgan xamsa va Alisher Navoiyning xamsasi haqqida so‘z yuritgan. (Mallayev, h.1395, b. 577)

Gul va Navruz: Gul va Navruz dostoni, O‘zbek adabiyotining atoqli shoirlaridan biri bo‘lgan Mavlono Lutfi‘ning qalamiga mansubdir. Asar, masnavi jonari bilan yozilgan va 2400’ga yaqin baytdan iboratdir. Gul va Navruz, Jaloluddin Tabib isimli bir shoir tamonidan hijri 1333. yilda qalamga olingan Forscha hikoyasining O‘zbecha tarijimasidir. (Argunşah, 2017, b.45)

Minhojul-Siroj: Xuroson ‘olimlaridan Abu ‘Umar Minhojuddin Usmon bin-i Muhammad Sirojuddin Javzjoniy tamonidan qalamga olingan tarixi asardir. (Andxuiy, h.1395, b.25).

Afrosiyaob: Afrosiyob yo Olp Er Tunga, Turk xalqining tarixi va afsonaviy qahramonlaridan birining ismidir. Oti, Eski Forscha (Avesto Tili) matinlarida *Frangrasyan*, O‘rta Forscha (Pahlaviy Tili) matinlarida *Frasiyok*, *Frangrasyok*, Arabcha qaynoqlarda Tebrida *Frosiyob*, *Frosiyot*, Masudiy va Beruniyda *Farosiyob*, İron milli dostoni Firdavsi Shahnomasida *Afrosiyob o‘laroq o‘tmoqtadir.* (Ögek, 2008, b. 509)

İskandar: Yunon Padishosi Maqdunyalik İskandar.

Olp Arslon: Malozgirt Zafarining qahramoni buyuk Saljuqli sultonı Sulton Olp Arslon. (Kesik, 2014, b.44)

Amir Temur: Temur imperiyasining quruvchisi Amir Temur Ko‘ragoniy.

Bilga Xoqon: Qapog‘onning o‘limidan so‘ngra Ko‘kturklar xonligining xoni sifatida taxtga o‘ltirgan xoqon. (Ercilasun, 2016, b. 105)

Al-Forobiy: Abu Nasr Muhammad bin-i Tarxon bin-i O‘zluq, milodiy to‘qqizinchi yuzyilning yetmishinchi yillarida Sirdaryo‘ning Forob mahallasida

tug‘ilgan. U, falsafa, mantiq, astronom, matematik, tib va musiqa bilimlari bilan shug‘ullangan. Al- Forobiy, o‘z davrida Sharqning Arastusi va ikkinchi o‘qituvchisi sifatida shuhrat topgan. Donishmandlik gemmalari, Himmatli shahar aholisining nuqtai nazari haqqida risola, İlimlar tasnifi risolasi, va Katta Musiqa Kitobı isimli nodir asarlar undan miros qolgan. (Mallayev, h. 1395, b.85)

Koshg‘arli Mahmud: Turk adabiyotining o‘namli asarlaridan bir bo‘olgan Devon-i Lug‘atit-Turk‘ning yozuvchisi, Koshg‘arli Muhmud bin-i Husain bin-i Muhammad. (Argunşah, 2017, b.314)

Yusuf Xos Hojib: Milodiy 11. yuzyilda Qaraxonlilar saroyining xos hojibi tamonidan qalamga olingan Qutadg‘ubilik isimli nodir asarning yozuvchisi. (Ercilasun, 2016, b. 293)

Ahmad Yugnakiy: Milodiy 12. yuzyilda qalamga olingan ‘Atabatul-Haqoyiq isimli manzum asarning yozuvchisining ismi. (Ercilasun, 2016, b. 326)

Xo‘ja Ahmad Yasaviy: Yasaviya tariqatining quruvchisi, Turk Dunyosining buyuk mutasavvuf Shoir va yozuvchisi Turkiston piri Qul Xo‘ja Ahmad Yasaviy. (Ahmadoughli, 2023, b.244)

Zahir Foryobiy: Zahiruddin Abul-Fazl bin-i Tohir bin-i Muhammad Foryobiy, hijri oltinchi asrda hozirgi Afgoniston‘ning Foryob viloyatida yashab ejod etgan shoirlardan biridir. Devoni Zahir Foryobiy isimli bir asar undan miros qolgan. (Baxradi, 1400, b.12)

Nosiruddin Rabg‘uziy: 13. yuzyilning son‘ngi yillari va 14. yuzyilning boshlarida yashab ejod etgan Chig‘toy shoirlaridan biridir. U, Xorazmning Rabot O‘g‘uz mahallasida tug‘ilgan. Qisas-i Rabg‘uziy isimli bir asar undan miros qolgan.(Mallayev, h.1395, b.203)

Xorazmiy: Milodiy 14. yuzyilda yashab ejod etgan Chig‘toy adabiyotining shoirlaridan biridir. Qaynoqlarda, Xorazmiy‘ning kimliği haqqida to‘liq bilgi berilmagan. Xorazmiy taxallusizga ko‘ra, Xorazmlik ekanligi aytiladi. Undan Muhabbatnoma isimli bir asar miros qolgan. (Mallayev, h.1395, b.1024)

Haydar Xorazmiy: 14. yuzyilning ikkinchi yarimi va 15. yuzyilning boshlarida Xorazmda yashab ejod etgan atoqli shoirlardan biridir. U, Gulshan-i asror isimli asaridagi ishqiy g‘azallari bilan buyuk shuhrat qozongan. Qaynoqlarda hayoti va ejodiyoti haqqida to‘liq bilgi berilmagan. (Mallayev, h.1395, b.1038)

Qutb-i Xorazmiy: Milodiy 14. yuzyilda Xorazmda yashab ejod etgan shoirlardan biridir. Hayoti va ejodiyoti haqqida to‘liq bilgiga ega emasmiz. Undan Xusrav Shirin isimli bitta masnavi miros qolgan. Ushbu asar, Ganjalik Nizomiyning Xusrav va Shirin masnavisining Chig‘toycha tarjimasidir.(Mallayev, h.1395, b.331)

Hofiz Xorazmiy: Hofiz Xorazmiy, 14. yuzyilda yashab ejod etgan shoirlardan biridir. Qaynoqlarda uning hayoti va ejodiyoti haqqida to‘liq bilgi berilmagan. Xorazm taxallusini qo‘llangi uchun Xorazmlik deb aytishimiz mumkin. Hindistonning

Haydarobod shahridagi Salarjang kutubxonasida saqlangan qo‘lyozmaga ko‘ra u, zullisonayan shoir bo‘lib, ikki Tilda she‘rlar yozgan. (https://davron.uz)

Sayf-i Saroyiy: 14. yuzyilda yashab ejod etgan mohir shoir va tarjumonlardan biridir. Qaynoqlarda hayoti bilan tegishli to‘liq bilgi berilmagan. Uning quyidagi baytiga ko‘ra, U, Xorazmlik bo‘lgan va hozirgi xorazmning qamishli qishlog‘ida tug‘ilgan.

Qamishli yurt menim tug‘on elimdi
Bilig g‘urbatga kelturg‘an bilimdi
Kelib o‘ldim saroyda she‘r fedoyiy
Saroyning shoiriy elning gadoyiy

Sayf-i Saroyiy’dan Guliston-i Bit-Turkiy va Suhayl va Guldursun isimli ikki nodir asar miros qolgan.(Mallayev, h.1395, b.332)

Mirzo Ulug‘bek: Buyuk yulduzshunos Mirzo Ulug‘bek, Amir Temurning nabirasi va Shohrux Mirzoning o‘g‘lidir. (Mallayev, h. 1395, b.227)

Boysung‘ur Mirzo: Boysung‘ur Mirzo, Shohrux Mirzo bilan Gavharshod Begumning o‘g‘lidir. U, hunar parvar podishoh, mohir shoir, xattot, naqqosh va sozanda edi. Hich bir podishoh munga teng kelmas. (Navoiy, h.1387, b. 215)

Sulton Husain Mirzo Boyquro: Temurilar sulolasining buyuk podishohsi Sulton Husain Mirzo Boyquro 1438. yilda Hirot shahrida dunyoga kelgan. U, Alisher Navoiy bilan sabaqdosh bo‘lgan. 1469. yilda Hirot shahrini egalab taxtga o‘ltirgan. Boyquro, Forscha va Eski O‘zbekcha bilan she‘rlar yozgan. Undan Devon-i Husainiy isimli birta devon miros qolgan. (Argunşah, 2017, b.46)

Amir Alisher Navoiy: Chig‘toy adabiyotining eng buyuk shoir va yozuvchilaridan biridir. U, milodiy 1441. yilda Hirot‘da tug‘ilgan va milodiy 1501. yilda ushbu shahrda vafot qilgan. Adabiyotimiz sohasida qirqqa yaqin manzum va mansur asar miros qo‘ygan. (Maqolalar to‘plami, h. 1400, b. 162)

Qivomuddin: Hijri sekkizinchi yuzyilning oxiri va to‘qqizinchi yuzyilning birinchi yarimida Hirot shahrida yashagan buyuk mi‘morlardan biridir. Hirot shahridagi Gavharshod Begum Madrasasi uning shahkorlaridan biridir. (Andxuiyy, h.1395, b.30)

Zahiruddin Muhammad Bobur Shoh: Bobur imperiyasining quruvchisi, Zahiruddin Muhammad Bobur Shoh, milodiy 1483 yilida hozirgi O‘zbekiston‘ning Farg‘ona shahrida tug‘ilgan. Otasi Amir Temurning o‘g‘li Umar Shayx Mirzo va onasi Qutlug‘ Nigor Xonimdir. U, Movarovun-nahr, Kobul va Hindistonda hukumat qilgan. Adabiyotimiz sohasida, undan Bobur Devoni, Boburnoma, Risolaiy Aruziy, Risolaiy Mubayyin, Risolaiy Validiyya isimli to‘rtta asar miros qolgan. (İbrohim, h. 1396, b.48)

Jaloluddin Muhammad Akbar: Jaloluddin Muhammad Akbar Shoh, Boburilar İmperiyasining uchinchi Podishohsi, Zahiruddin Muhammad Bobur Shohning nabirasi va Humoyun Mirzoning o‘g‘lidir. (Baybal, 2015, b.52)

Muhammad Fuzuliy: 16. Yuzyil Ozar Adabiyotining buyuk shoir va yozuvchisidir. U, Turkcha, Forscha va Arabcha bilan she‘rlar yozgan. Fuzuliydan 13 manzum va mansur asar miros qolgan va ba‘zilari shulardan iboratdir: Turkcha devoni, Forscha devoni, Arabcha devoni, Layli va Majnun Masnavisi, Bang va Boda masnavisi, Soqiy-noma masnavisi, Hadis-i Erba‘, Hadiqatus-Suado va Turkcha maktublari. (Mengi, 2016, b. 153)

Mirzo Abdulqodir Bidil: Mirzo Abdulqodir (1644-1720) boburilar davrida yetishkan o‘namli shoirlardan biridir. U, o‘z davrining rasmiy tili bo‘lgan Forshcha bilan asar yaratgan. Otalari Barlos bo‘yiga mansubdir va Turkiston’dan Hindistonning Azimobod shahriga kelb yerlashib u yerda yashab ejod etgan. Bidil’dan devon-i Mirzo Abdulqodir Bidil isimli bir devon adabiyot sohasida miros qolgan. Uning, Chig‘toy tili bilan ham qalamga olgan 67 baytlik birta qasidasi mavjud. (Korkmaz, 2014, b. 346)

Mahmud: Mir holat-i balxiy nomi bilan mashhur bo‘lgan Mahmud bin-i Mir Vali bin-i Sayyid Jalol, Balx va Buxorada hukm surgan Hashtarxonilar xoni Nur Muhammad Xonning kitobdorini ismidir. U, Bahrul-Asror isimli asarning yozuvchisidir. Mahmud, ushbu asarni Nur Muhammad Xonga bag‘shilab yozgan. (Andxuiyy, h.1395, b.31)

Shibirg‘onlik Muhammad Yusuf Munshiy: Hashtarxonilar davrida qalamga olingan Tarix-i Muqimxoniy yo Tazkiraiy Muqimxoniy isimli asarning yozuvchisidir. (Andxuiyy, h.1395, b.32)

Kosoniy: 13. yuzyilda Qo‘qanda yashab san‘at bilan shug‘ullangan mohir minoturist va naqqoshdir. U, klassik adabiyot asarlari qo‘lyozmalarida ham minoturiy rasimlar chizgan. (Andxuiyy, h.1395, b.32)

Abul-G‘oziy Bahodır Xon: Chig‘toy adabiyotining so‘ngi davriga tegishli bo‘lgan o‘namli yozuvchilardan biridir. U, milodiy 1603. yilda Xiva xoni Arab Muhammad Xonning oilasida tug‘ilgan. U, toj va taxt uchun bo‘lgan urushlar tufayli Xivadan boshini olib chiqib, Turkiston, Samarqand, Buxoro va İsfahonda hayot kechirgan. U, milodiy 1645 yilida Xiva taxtini ko‘lga keltirib milodiy 1663. yilga qadar xonlik qilgan. Bahodir Xon, Turkcha, Arabcha, Forscha va Mo‘g‘ul tillarini yaxshi bilgan va she‘rni tunshungan mohir bir tarixchi bo‘lgan. Undan, Shajaraiy Tarokima, Shajaraiy Turk va Manofi‘ul-İnson isimli uchta asar miros qolgan. (Abdullohyev, h.1325, b.10)

Barxurdor: Barxurdor bin-i Muhammad Turkmon Farohiy, Sulton Husain Mirzo Boyquroning mashhur munshilaridan biridir. (Andxuiyy, h.1395, b.32)

Nafas Botur: Nafas Botur laqabi mashhur mullo nafas (M. 1810-1862) yillari orasida yashab ejod etgan Turkman xalqining shoirlaridan biridir. (Andxuiy, h.1395, b.32)

Maxdum Quli Farog‘iy: Maxdum Quli, Turkman adabiyotining 18. asr buyuk mutasavvuf shoir va yozuvchilaridan biridir. U, milodiy 1733. yilda hozirgi İron

cegarasida Gunbad-i Kovuus nomidagi shahrning Qovshon qasabasidan tug‘ilgan. İdris Bobo, Go‘ktosh, va She‘rg‘oziy madrasalaridan tahsil qilgan. Buxoro va Afg‘onistondagi ayrim madrasalarda ham o‘qigan. Undan Devon-i Maxdum Quli Farog‘iy isimli bir asar miros qolgan. (Maghaminiya, 2013, b. 70)

Muhammad Bayram Xon: Bayram Xon, Qara Qo‘yunlu Turkmanlarining Bahorli qabilasining mashhur xoni bo‘lgan Ali Shukurbekning nabirasi va Sayf Alibekning og‘lidir. Sayf Alibek Badaxshom hokimi ta‘yin bo‘lgan va Bayram Xon esa, Badaxshonda tug‘ilgan. Bir qancha paytdan so‘ngra otasi G‘azna hokimi sifatida ta‘yin bo‘lib, G‘aznaga toshinganlar. Bir qancha paytan keyin otasi Sayf Alibek dunyodan ko‘z yumgan. Otasining o‘limidan so‘ngra Humoyun Mirzoning saroyiga borgan. Bobur Shoh’ning vafotidan keyin Humoyun Mirzo bilan birlikda Hindistonga yetib borgan. Jaloluddin Muhammad Akbarning davrida mamlakatning siyosiy ishlari unga topshirilgan. Nihoyat haj safari jaryonida Muborakshoh isimli kishi tamonidan shahid etilgan. Bayram Xon, siyosiy fa‘oliyatlarining yonida mohir bir shoir bo‘lgan. U, Turkiy va Forsiy tillari bilan she‘rlar yozgan. Undan, Devon-i Bayram Xon isimli bir asar miros qolgan. (Mallayev, 1395, b.1013).

Zaliliy: Qurbon Turdiy Zaliliy, milodiy (1785-1790) yillari orasida dunyoga kelib, 19. yuzyilning o‘rtalarida vafot etgan Turkman xalqining mashhur shoirlaridan biridir. (Andxuiyy, h.1395, b.33)

Bilol Nozim: Bilol Nozim, Uyg‘ur xalqining atoqli shoirlaridan biridir. U, Uyg‘ur xalqining qaharamon qizi Nozugum haqqidagi manzum va mansur dostonning yozuvchisidir. (İnoyat, 1992, b.112)

Nozim Hikmat: Nozim Hikmat, Turk adabiyotining chog‘dosh shoirlaridan biridir. U, Turk adabiyoti sohasida o‘nlarcha manzum va mansur asar o‘zidan miros qo‘ygan. (Leontiç, 2012, b. 263)

Fikrat: Oti Muhammad Tavfiq bo‘lgan Fikrat, 1867 yilida İstonbul’da dunyoga kelgan. Fikrat, 1880-1890 orasida Lisa davrida adabiyot bilan shug‘ullanmoqqa boshlagan. U, 1915 yilida shakar kasalligi bo‘is dunyodan ko‘z yumgan.Turk adabiyot sohasida undan Rubobi Shikasta, Halukning Daftari va Sharmin İsimli uchta asar miros qolgan. (Funda Gür, 2015, b.5)

‘Aziz Nasin: Turk adabiyotining o‘namli shoir va yozuvchilaridan birdir. Asıl otı Muhammad Nusratdır va Aziz Nasin, unining toqma otidir. U, bu ismimni birinchi bor 1944. yilda qo‘llangan. Aziz Nasindan 7 she‘r kitobi, 49 hikoya, 11 romon, 4 masol, 28 o‘yun, 4 o‘zyasham hikoyalari, 9 xotira kitobi, 2 toshlamalar, 1 monolog, 3 mizoh hikoyalar kitobi, 7 gusha yozuvlari, 5 so‘ylayish, 1 Gulut, 1 Go‘ncha isimli asar, 7 maktub, 2 tanlangan asar, 5 romon Turk adabiyoti sohasida miros qolgam. (İspir, 2006, b.8)

Nodira Begum: Mohlaroyim Nodira Begum: Nodira Begum, O‘zbek adabiyotining 19. yuzyil eng muhim shoirlaridan biridir. U, 1791-1792 yillari orasida

Andijonda tug‘ilgan. Qo‘qan adabiy muhitida yetishgan. Turkcha va Forscha bilan she‘rlar yozgan. Adabiyotımız sohasida undan Nodira Devoni isimli bir nodir asar miros qolgan. (Ahmadoughli, 2023, b.189)

Zulfiya: Zulfiya, 20. yuzyil O‘zbek she‘riyatining yirik vakillaridan biridir. U, O‘zining teran falsafiy, hassos, fajivaiy va hayot baxsh realistik ejodi bilan hozirgi zamon O‘zbek she‘riyatida yangi sahifa ochgan mohir shoiralardan biridir. (Norqo‘ziyeva, 2018, b.10)

Oybek: Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek, O‘zbek adabiyotining 20. yuzyil mohir shoir va yozuvchilaridan biridir. U, 1905. yilda Toshkentda tug‘ilgan va 1968. yilda u yerda dunyodan ko‘z yumgan. Oybekdan, Tuyg‘ular isimli she‘r to‘plami, Dilbar-davr qizi, O‘ch, Baxtigul va Sog‘indiq, Temirchi Jo‘ra kabi dostonlari, Qutlug‘ Qon, Navoiy, Ulug‘ Yo‘l, Oltin Vodiydan Shabadalar, Quyosh qoraymas kabi romonlar miros qolgan. (https://tafakkur.net)

Erki Vohidov: O‘zbekiston xalq shoiri va O‘zbegim qasidasining yozuvchisi bo‘lgan xuddi Erkin Vohidov[1].

Mullo To‘ychi Hofiz: Toshmuhammedov To‘ychi Hofiz (1868-1943), mashhur O‘zbek qo‘shiqchisi, hofiz, xalq musiqasi va maqom bilimdoni, Farg‘ona va Toshkent ijro san‘ati namoyandasidir. U, 1968 yilida Toshkent’da kosib-to‘quvchi oilasida tug‘ilgan. Otasiga yordamchi bol‘lgan. Otasining o‘limidan keyin ham ishchi sifatida ishlagan va hamda o‘rta maktabni o‘qib bitirgan. Keyinchalik musiqaga yuz keltirgan. Tez orada Mullo To‘ychi O‘zbekistonning sevimli xonandalaridan biriga aylanib, xalqaro To‘ychi Hofiz nomi bilan mashhur bo‘ladi. Undan o‘nlarcha xalq musiqasi ijrosi miros qolgan.(https://arboblar.uz)

Yunus Rajabiy: Yunus Rajabiy (1897-1976), XX asr chog‘dosh O‘zbek musiqasining yirik namoyandalaridan biridir. U, 1897 yilida Toshkentda tug‘ilgan. U, ilk qadamlarida dutor va nay cholg‘ularini chola boshlaydi va keyinchalik esa, buyuk san‘atkorga aylanib qoladi. U, o‘zidan Ajam, Eshvoy va Kurd kabi o‘nlarcha ijro undan miros qoldirib 1976. yilda vafot etgan. (Begmatov, 2017, b.50)

XULOSA

Ushbu maqolada, birinchidan O‘zbek Xalqining ikki vatanparvar shoiri O‘zbekiston Xalq shoiri Erkin Vohidov va Afg‘onistonlik O‘zbek shoir Muhammad Amin Matin Andxuiyning hayoti va ejodiyoti haqqidan qisqa bilgi berilgan. Keyinchalik, ushbu ikki shoir va yozuvchining O‘zbegim va Quvonch Avji qasidasi har tamonlama tekshirilib, bu ikki tarixi qasidadagi tarixi asarlar va simolar haqqida bilgi berilgan. Her biri tarixi asar va shax uchun foydalangan bilgilar uchun ayri ayri qaynoq ko‘rsatilgan.

Darhaqiqat, **OMU DARYO’NING IKKI QİRG‘OG‘İDA MILLI TUSHUNCHA BİLAN QALAMGA OLINGAN O‘ZBEGIM VA QUVANCH**

[1] Yuqorida to‘liq bilgi berilgan.

AVJI QASIDADAGİ TARİXİ ASARLAR VA SİMOLAR nomlangan ushbu maqola dastlabki tadqiqotlardan biri bo‘lib, O‘zbek adabiyoti sohalariga hissa qo‘shish omoji bilan yozilmoqdadir.

FOYDALANGAN ADABİYOTLAR:

1. Abdullayev, Vohid, (h.1392), “Tarix-i adabiyot-i Turkiy O‘zbekiy, Az sadda-yi hafda ton ima-yi sadda-yi nuzda”, Burhonuddin Nomiq ihtimomi bilan, İntishorot-i Ta‘limi nashriyoti, Kobul/Afg‘oniston.
2. Ahmadoughli, Abdul Khalil, (2023), “Nodira Begum Devonida Sevgili”, Talqin va Tadqiqotlar Xalq aro Journali, Soni 9, b. 187-200, O‘zbekiston.
3. Ahmadoughli, Abdul Khalil, (2023), “Xo‘ja Ahmad Yasavi va Uning Afg‘oniston Shimolidagi Qo‘lyozma Nusxasi”, Talqin va Tadqiqotlar Xalq aro Journali, Soni 4, b. 243-249, O‘zbekiston.
4. Aminiy, Muhammad Kozim, (h.1385), “Afg‘oniston’dagi O‘zbek Shoirlari”, Mayvand Nashriyoti, Kobul/Afg‘oniston.
5. Andxuiy, Muhammad Amin Matin, (h.1395), **“**Quvonch Avji” Mazor-i Sharif/Afg‘oniston.
6. Argunşah, Mustafa, (2017), “Çağatay Türkçesi” 4. Bosqi, Kesit Yoyinlari, İstonbul/Turkiya.
7. Arslan, İhsan, (2015), “Büyük Moğol İmparatoru Cengiz Han‘ın Din Algısı”, Uluslararası Sosyal Araştırmalar Dergisi, C.8, Say. 38, s. 1011-1027, Turkiya.
8. Baxradi, Parvin va b. (h.1400), “Sabkshunosiy Qasoyid-i Zahir-i Foryobiy”, Pajuhishho-yi Naqd-i Adabiy va Sabkshunosiy, soni 3, İron.
9. Baybal, Sami, (2015), “Babürlü Hükümdarı Ekber Şah’ın Dini Senkretizmi Üzerine”, Türk-İslam Medeniyeti Akademik Araştırmaları Dergisi, s. 51-63, Turkiya.
10. Begmatov, Soibjon, (2017), “Bastakorlar İjodi”, O‘zbekiston Respublikasi, Oliy va O‘rta Ta‘lim Vazirligi, O‘rta Maxsus, Kasb-Hunar Ta‘limi Markazi, Toshkent/O‘zbekiston.
11. Darpini, Johann de Plano, (2000), “Moğol Tarihi ve Seyahatname”, çev, Ergin Ayhan, Derya Kitapları, Trabzon, Turkiya.
12. Ercilasun, Ahmet Bican, (2017), “Türk Dili Tarihi”, 17. bosqi, Oqchog‘ yoyinlari, Anqara/Turkiya.
13. Funda Gür, Bensu, (2015), “Tevfik Fikret, Hayatı, Sanatı, Eserleri”, b.1-25, Hojat Tepa Universiteti, Anqara/Turkiya.
14. İbrohim, Rahim, (h.1996), “Bobur Haqqida”, İntishorot-i Ta‘limiy Muassisasi, Kobul/ Afg‘oniston.
15. İnayat, Alimcan, (1992), “Nazugum Kıssası”, Milli Folklor, b.112-116, Turkiya.

16. İshonch, Zikrulloh, (h.1392), “Hozirgi O‘zbek Tili”, İntishorot-i Ta‘limi nashriyoti, Kobul, Afg‘oniston.

communication situation, and cultural context of the original text. The semantics of the source and destination texts must be same. Language, at the very least, is engaged in meaning equivalence. The set of rules in one language, which differs from another, will influence the translator's judgment during the translation process. There are two sorts of meaning: referential meaning and connotative meaning (Nida & Taber, 1982). A translator must be completely aware of which implication the researcher may have intended. Furthermore, the components incorporated in a given unit of meaning should be taken into account. By comprehending the meaning components of the source language expressions, an interpreter may make the optimal judgment about the components. The purpose of translation is to locate a text related meaning in a second language by grasping the pieces that make the meaning. Because meaning is the item to be replicated from the source language text into the target language text, we prioritize meaning comparability. The translator is dealing with a text that is separated into meaning units, which in this case are words or phrases. Muchtar and Waty Kembaren (2018) define translation as "literature formed out of another writing in another language that has similar features to the original source." The source text is mirrored in the translation but not copied. In order to translate successfully, a translator must try their utmost to discover a suitable manner of expression. A translation must bear in mind that the receptor has a different cultural background than the original text receptor; as a result, translators must be extremely creative in producing the same impression on the receptor as the source text. Special obstacles arise when translating dialects, foreign speech, poetry, and other kinds of expression. A translator is likely to be on the lookout for new technology to help in translation. Some strategies are intended to help translators. When analyzing the overall translation procedures, three strategies that tend to the source text are literal, borrowing, and calque. The remaining techniques are obviously aimed towards text, including as addition, deletion, transposition, modulation, equivalence, and adaptation. According to (Newmark, 2014), the first technique category concentrated on the source language, while the second method category focused on the target language.

Many of the difficulties that interpreters experience, for example, the primary issue is that an interpreter usually does not grasp the aim of the interpretation, despite the fact that the purpose of interpretation is to comprehend a text. Furthermore, even little mistranslations might be fatal. The following difficulty is neglecting the social affectability of language while translating, despite the fact that language is tied to culture. The interpretation process is particularly concerned with this, especially when understanding textual conventions, cultural acts, or comedy. The third issue is one of uncertainty (Mulyanah, 2020). This problem can arise in explicit jargon and language building to the point that interpreters have difficulty defining it. Interpreters interact directly with users. An interpreter can participate in meetings or conferences in person,

over the phone, or by video. Conferences, in which a team of interpreters works from an interpreter booth to provide interpretation directly to the participants' wireless headsets, doctor's visits in which the doctor and the patient do not speak the same language, and study visits in which an interpreter uses uttered interpreting to express what is being said to one or more people are examples of common interpreting situations (Mulyanah, 2020). As a result, interpreters in both areas must be capable of interpreting in both directions. They consult dictionaries or other subject-specific reference materials, as well as a computer as needed. The most important thing for an interpreter to do is to plan ahead of time by looking through all relevant papers. After all, the crucial interpretation process occurs in real time, with only a few opportunities to double-check.

Conclusion

Translation is the process of transmitting a message or meaning from one language to another. When it comes to interpretation, there are several additional definitions to select from. According to some academics, interpretation is a dialect procedure: the process of replacing a text in one language with a text in another. The courses used to investigate interpretation allow us to focus on how interpretation works. Text, context, and interaction are used to identify these groupings. Literary categories represent cognition, attachment, and topical movement as instruments. Relevant classifications present all of the extra-literary components associated with source text context and interpretation construction. Interpretation techniques are needed to show the actual progress made by interpreters in each literary miniature unit and to provide clear information about the overall systemic decision made. Culture is a distinct layer that encompasses text. However, it is more accurate to argue that texting and talking are social items and cycles. The manner of life, jumbled in writing and speaking rather than standing, is displayed at various stages of decision making in their parade growth or age. The interpreter must, in a sense, open up this different textualization of the SL into its various layers and levels; textualization of the text as a result implies different change into the social item that it has become, the talk, which requires understanding, appraisal, and assessment by the approaching interpreter.

References:

1. Bell, R. T. (1991). Translation and Translating : Theory and Practice. Longman Inc New York. Dang, X. T. (2014). Interpreting and translation coursebook. https://www.researchgate.net/publication/230583366

2. Guo, H. (2012). A brief analysis of culture and translation. Theory and Practice in Language Studies, 2(2), 343–347. https://doi.org/10.4304/tpls.2.2.343-347

3. Hendrawati, A., & Budiarta, I. W. (2017). The Translation of Idiomatic Expression in Bloodline Into “Garis Darah.” Retorika: Jurnal Ilmu Bahasa, 3(2), 228–238. https://doi.org/10.22225/jr.3.2.295.228-238

4. Heydon, G., & Kianbakht, S. (2020). Applying Cultural Linguistics to Translation Studies: A New Model for Humour Translation. International Journal of Comparative Literature and Translation Studies, 8(3), 1. https://doi.org/10.7575/aiac.ijclts.v.8n.3p.1

5. Katan, D. (2018). Cultural Approaches to Translation. Research Gate, November 2012. https://doi.org/10.1002/9781405198431.wbeal0293

6. Muchtar Farida Repelita Waty Kembaren, M. M. (2016). Basic Theory of Translation.

7. Muchtar, M., & Waty Kembaren, F. R. (2018). Translation Techniques and Quality in the English Version of Nganting Manuk Text. International Journal on Language, Research and Education Studies, 2(2), 195–207. https://doi.org/10.30575/2017/ijlres-2018050804

8. Mulyanah, A. (2020). Problems in Interpreting. Unika Atma Jaya, 16(September), 10–16. https://kolita.digitalnative.id/assets/uploads/K18/10-16 Ade

9. Mulyanah.pdf Newmark, P. (2014). Introduction to translations. In Journal of the American Psychoanalytic Association (Vol. 62, Issue 1). Shanghai Foreign Language Education Press. https://doi.org/10.1177/0003065114525045

10. https://www.researchgate.net/publication/362831961_Cultural_in_Translation_and_Interpreting

THE ROLE AND ROLE OF FREE ECONOMIC ZONES IN INCREASING INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF JIZZAX

Nabihojayeva is the daughter of Dilafroz Sabir
Jizzakh "Sambhram" University
Master of MBA

Abstract: The decree of President Shavkat Mirziyoyev dated October 26, 2016 "On additional measures to activate and expand the activities of free economic zones" is an important program for creating a more favorable investment environment in our country, expanding the scope of opportunities and privileges. in the

On the basis of this document, free economic zones in our country are managed under a single name, uniformity in terms of opportunities and benefits is of great importance in attracting foreign and local investors and increasing the efficiency of industrial development.

Key words and phrases: Free economic zone, raw materials, components, customs duties, engineering infrastructure facilities, territory borders, foreign entrepreneurs.

In accordance with the decree, tax and customs tax exemptions, as well as the exemption of raw materials and components from customs duties, are an important factor in the further development of industrial production in the Jizzakh free economic zone.

19 modern enterprises were put into operation in the special area established on the basis of the decree of the First President of March 18, 2013 "On the establishment of the Jizzakh special industrial zone". Investments in the amount of 91.3 million dollars were spent on the implementation of 14 projects on 363.7 hectares of the economic zone in Jizzakh, and 5 projects on 150 hectares of the branch in Syrdarya region. More than a thousand new jobs were created in the enterprises established on the basis of modern technology. 60% of those who have a permanent job are young professionals who graduated from vocational colleges

Last year, the volume of production in the free economic zone was 255.2 billion soums, and the volume of exports was 11.9 million dollars.

Currently, the area produces various industrial products such as brake pads for cars and trucks, televisions, air conditioners, refrigerators, washing machines, microwave ovens, LED lamps, polypropylene filaments, video and IP phones, telecommunications equipment, components for increasing the speed of the Internet. is being released. Most of these products are new not only for Jizzakh and Syrdarya regions, but also for other markets in our country.

In addition to tax, customs and other benefits established in the free economic zone, the construction of engineering infrastructure necessary for production also attracts investors. In accordance with the special program adopted by the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan on July 1, 2013, 12 kilometers of highway leading to the Jizzakh free economic zone, 5.7 kilometers of water network, 8 kilometers of gas pipeline was laid. In 2016, 7 kilometers of internal highway, 4.6 kilometers of electricity network were built and repaired.

Timely allocation of plots of land for the construction of enterprises by the hokims of Jizzakh and Syrdarya regions, as well as the issuance of all necessary permits for connecting to engineering and communication infrastructure networks on the basis of the "one-stop shop" principle, brings great convenience to entrepreneurs.

- The above-mentioned decree of President Shavkat Mirziyoyev has further strengthened the confidence of foreign and local entrepreneurs working in the region and intending to work in the prospects of their activities, - said the head of the secretariat of industrial development, capital construction, communications, communal-economic issues of Jizzakh regional government. Sh. Jorayev. - Based on the decree, the tax and customs benefits in the free economic zone have been further expanded, the conditions of engineering and communication, road transport, social infrastructure created here, and the rapid development of services to entrepreneurs attract more and more investors. is doing.

Such facilities and opportunities created for the free economic zone are attracting great interest, especially from Chinese investors. During the business forum held in December 2016, Chinese and Kazakh businessmen reached mutual agreements and signed memorandums on 10 projects.

At the moment, the administrative council of the free economic zone is working with foreign and local investors on the implementation of 25 projects with an initial cost of 213.3 million dollars. In particular, in the second quarter of this year, it is planned to launch the first phase of the foreign enterprise "Mingyuan Si Lu Industry" with a production capacity of 24 million square meters per year. 391 new jobs will be created with the full operation of this new enterprise, which is being built at the expense of the investment of 109.7 million dollars of Chinese investors.

Today, while the time is progressing, countries are doing various things thinking about tomorrow's future and today. This is the reason for the development of countries, attracting local and foreign investors in order to provide them with jobs for the future of the young generation. zi, being the chief reformer, tries to carry out activities adapted to different fields. An example of these are free economic zones.

A free economic zone is a place where, in accordance with interstate agreements or special laws, preferential tax, financial, customs and free currency conversion, legal conditions are introduced for economic and foreign economic activities.

It will be organized for the purpose of attracting foreign and local entrepreneurs, and the necessary production and business infrastructure will be established in them.

In most cases, free economic zones are located in interstate areas (areas where the borders of several countries meet), international airports, port cities (for example, Malaysia or South Korea) or areas where transport routes are connected countries along the Great Silk Road or areas of the European Union A special international legal status is introduced in free economic zones. But regardless of where it is located, it is considered an integral part of this country, all operations (allocation of land, establishment of firms and companies, import and export of goods and goods from the border). It will be organized for the purpose of attracting foreign and local entrepreneurs, and the necessary production and business infrastructure will be established in them. The purpose of establishing free economic zones is to create a developed economic space by attracting a lot of new technologies and investments, and in this way to rapidly develop the country's economy.

There are different types of free economic zones: free warehouses, free customs zones, science and technology zones. For example, they are called technoparks in the US and technopolises in Japan. There are also free economic zones (mainly specialized in exports). One of the first free economic zones was established in Ireland at Shannon Airport (1959). Later, such a zone appeared at the airport "DogIsland" in England. Some free economic zones are established in large areas. For example, Manaus in Brazil, special economic zone "Shenzhen" in China and others are such zones.

In world practice, Free Economic Zones were established in developed (Great Britain, Germany, Netherlands, USA, etc.) and developing (Brazil, Republic of Korea, Malaysia, etc.) countries. Attracting foreign capital to free economic zones has been widely used in Chinese policy.

At the end of the 21st century, Free Economic Zones were established in the United Arab Emirates, Russia and Poland. Blyagovanichensk-Heikhe, Black Sea Coast, Kaliningrad Region Free Economic Zones established in cooperation between Russia and China are also such places. In Uzbekistan, the idea of Free Economic Zones was positively evaluated for the development of the national economy. Therefore, on April 25, 1996, the country's parliament adopted the law of the Republic of Uzbekistan "On Free Economic Zones".

This law created a legal basis for creating favorable conditions for foreign investment, the development of trade and industry, and improving the employment of the population. Two conceptual approaches are used in the organization of free economic zones: territorial and functional (point). In the first case, all resident enterprises in the region enjoy benefits in economic activity.

Each region, countries at each level of development have their own characteristics in terms of free economic zones. For example, the characteristic features of free economic zones in developing countries are as follows:

- borders of the territory have a tendency to expand, and trade and production activities have a tendency to grow;

- special management procedure for foreign entrepreneurs in free economic zones, continuous liberalization of the economy;

- the activity of free economic zones is characterized by a large amount of industrial and trade diversification, a trend of complex development;

- the presence of special attention to the development of science-intensive production related to the development of new and high technologies.

- various economic benefits are provided for economic entities established in free economic zones, for example:

- fiscal benefits.

This is mainly a form of exemption from taxes, reduction of the taxation base, reduction of the individual tax rate, exemption from separately collected taxes; - financial benefits. These are mainly various subsidies, lowering the definition (price) of communal services or not paying them at all, reducing interest on the use of state loans;

- administrative signatures. These benefits include the use of a simplified form of state registration of economic entities, simplification of the regime of entry and exit of foreign citizens to our country, and assistance in providing them with various services.

Ensuring economic growth by attracting foreign investments to the national economy and deeper integration into the world economic system is one of the important tasks for the countries of the transition economy. It is important to create free economic zones and further develop their activities in order to attract foreign investments to the national economy of such countries.

The establishment of Angren Free Economic Zone, Navoiy Free Economic Zone, and Jizzakh Free Economic Zone, which provide investors with extensive tax benefits and preferences, is aimed at the development of enterprises based on high technologies, production and service of high-quality and competitive products that meet global requirements., creates an opportunity to create new jobs and, ultimately, to improve the living conditions of the population. The economic, social, scientific-technical and other goals of the organization of EIH can be achieved by creating a number of favorable conditions for foreign investors in the economy.

The conditions necessary for the operation of the EIH8 are the main factors of the development of the EIH, which is the system of benefits created for investors. Each country or territory in it determines a set of preferences for the establishment of the EIH.

World practice shows that the set of benefits in each EEC is unique, and their content depends on the investment programs and projects intended to be implemented in this country. At the same time, in the economic literature, the benefits specified in the EIH are combined into four groups. World experience shows that all the above-mentioned benefits can be found in various combinations, but it should be noted that the benefits cannot always be the main decisive incentive for attracting foreign capital.

It should be emphasized that the following results can be achieved through the establishment of EIHs: modernization and diversification of the economy, integration of the national economy into the world economy, liberalization of the economy, attraction of foreign and domestic capital, production of competitive products for the world market, export of raw materials. export of finished products, ensuring the inflow of foreign exchange earnings to the country, development of the financial sector, increasing investments in human potential, comprehensive development of the country's regions, creating additional jobs, improving the standard of living and well-being of the population, etc.

In conclusion, it can be said that EIHs were noted as one of the most prominent institutional innovations in the economy in the second half of the 20th century. Examining and studying the experience of organizing these regions, which are distinguished by their attractiveness, on the example of the countries of the world, is useful for the economic reforms carried out in our independent republic.

References:

1. Malikov T.S. Finance: Study guide / Ministry of Higher and Secondary Special Education of the Republic of Uzbekistan.-T.: "Iqtisod-moliya", publishing house, 2018. - 268b

2. Malikov T.S., Jalilov Sh.Q. Financial system: Modern interpretation: educational methodical guide. - T.: "ECONOMY-FINANCE", 2016, - 116 p.

3. Malikov T.S., Jalilov P.T., Budget and tax policy: monograph, Ministry of Higher and Secondary Special Education of the Republic of Uzbekistan, Tashkent Financial Institute.-T.Akademnashr, 2011. - 472 p.

ILK TARJIMALARNING YUZAGA KELISHI HAQIDA
THE SOURCES OF FIRST TRANSLATIONS

Nilufar Bafoyeva Salim qizi
Navoiy shahar, 17- maktab o‘qituvchisi
Navoiy pedagogika instituti, 1- kurs doktaranti

“Boshqa xalqlar hayotidan voqif bo‘lmaslik g‘ofillik va
milliy mahdudlikka olib keladi.”
G‘aybulla Salomov

Annotatsiya: Ushbu maqola tarjimaning qanday qilib dunyoga kelganligi, ilk tajima manbalari va tarjimonlarga bag‘ishlanadi. Maqolada antik davr olimlarining tarjima ishlari, qaysi tilda va davrda yozib qoldirilganligi berib o‘tilgan. Qolaversa, milodiy davrda g‘arb tarjima dunyosidagi o‘z davrining muhim maktablari, atoqli tarjimonlarning asarlar va shu o‘rinda sharq ilmi va ziyo olamining zabardast, ilk tarjimonlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Abstract: This article is dedicated to how translation came into the world, the first sources and translators. The article describes the translation works of ancient scientists, in which language and period they were written. In addition, important schools of their time in the Western world of translation, works of famous translators, and the first translators of Eastern science and intellectual world are presented here.

Kalit so‘zlar: antik davr, Alfrik, Boetsiy, Bibliya, Toledo, Afina akademiyasi, Bayt-ul-Hikma, Al- Beruniy, Al- Farobiy, Alisher Navoiy, Qaffol Shoshiy, Sobit Ibn Qurra.

Key words: antiquity, Alfric, Boethius, Bible, Toledo, Academy of Athens, Bayt-ul-Hikma, Al-Beruni, Al-Farabi, Alisher Navai, Qaffol Shoshi, Sabit Ibn Qurra.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoda har bir millat o‘zining beqiyos tarixi va ko‘hna olami, xalqlar e’tiqodi va ma’naviyati hamda hayot tarzini o‘zida mujassam etadigan adabiyotiga egadir. Zero, aynan adabiyot va tarjima bir millat ikkinchisiga o‘zining bejirim, takrorlanmas madaniy unsurlari va albatta keskin qarashlari bilan tanita oladigan oyna vazifasini o‘taydi. Shu o‘rinda tabiiy savol tug‘uladi. Insonsoniyat qachondan boshlab tarjimaning ahamiyati anglay boshladi, va ilk tarjimalar nechanchi ming yilliklarda paydo bo‘ldi?

Ilk tarjimalar insoniyatning bir-biriga tomon ochgan karvon yo‘llarida tug‘ilgan. Xalqlarning turli o‘yinlari bilan tanishish va tomoshalarda tillardan-tillarga tarjimalar ishtiyoqi va ehtiyoji tug‘ilgan. Tarjima tarixi turli xalqlar adabiyotlarining bir-biridan ajralib, cheklanib qolganini emas, aksincha, juda qadim zamonlardan tortib hozirgi

kungacha, bir-biriga intilib, yaqinlashib borgani, bir-biridan ta’sirlanib taraqqiy etganligini isbotlamoqda.

Tabiiyki, miloddan avvalgi davrlarda fan nuqtai nazaridan yuzaga kelgan tarix, falsafa, kashfiyot, yangilik kabi terminlarning dunyo yuzini ko‘rishi bilan tarjimaning ko‘zga ko‘rinmas unsurlari paydo bo‘lgan. Biroq haqiqiy tarjima va asl, ilk tarjimon eramizning I asrida, qadimgi Rimda Boetsiyning falsafiy asarlar tarjimalari timsolida vujudga kelib, antik davr havosidan nafas olgan edi. U grek tilidan ko‘pgina asarlarni o‘z davri olimlariga va xalqiga qolaversa, kelajak avlodga manba sifatida yetkazib bergan.

Qadimgi tarjimaning keyingi bosqichi esa Bibliyaning mahalliy aholi tillariga tarjima qilinishi va butun Yevropa millatlari o‘rtasida keng ommalashishi bo‘ldi. Uning e’tiborga molik tomoni tarjima qilinayotgan diniy kitobning parchalari so‘zma - so‘z tarjima asosida bo‘lgan. Usgbu uslub o‘z navbatida taqvodorlar orasida xudoning kalomi bo‘lgani uchun juda hurmat qilinardi. Zotan tanganing ikkinchi pallasi – so‘zma so‘z tarjimaning ma’noviy buzulishiga sabab bo‘lishi edi.

Yuqoridagi ma’lumotni davomi o‘laroq, diniy matnlarga bo‘lgan munosabat uzoq vaqt saqlanib qolgan. X-asrda yashagan olim Alfrik butun umrini din yo‘liga bag‘ishlagan insonlardan biri edi. Lotin tilini juda puxta o‘rgangan Alfrik ”Eski Ahd” (Old Testament) dan “Genezis”(Genesis) ni inglizchaga tarjima qilgan. Uning yangiligi qayta hikoya qilish yo‘lini tanlaganligi bo‘ldi. [I.G‘ofurov, O. Mo‘minov, N.Qambarov, 2012: 37].

Ikkinchi olamshumul voqea Toledo tarjima maktabini dunyo yuzini ko‘rishi bo‘ldi. Ushbu beqiyos maktabning mashhur arboblari Raymondlar (Toledo va Chestli) bo‘lib, bu o‘ziga xos buyuk ilm markazi edi. G‘.Salomov O‘rta Osiyo tarjima tarixi haqida yozganidek, Yaqin va O‘rta Sharq, O‘rta Osiyoda arab tilida ijod qilgan mutafakkirlarning ham alla qancha noyob ishlari Toledo maktabi tarjimonlarining xizmati tufayli lotin va yunon hamda keyingi davrlarda boshqa G‘arbiy Yevropa xalqlari tillariga qilingan tarjimalarda bizning davrimizgacha yetib kelgan. [G‘aybulla Salomov, Najmiddin Komilov, 2010: 35].

Antik davr ta’siri XIV asrda yashab ijod etgan J.Choser, Bakacho, Elizabetta Nasau, Elyanor Austrian kabi buyuk tarjimonlarni chetlab o‘tmaydi. J.Choser Borjiy asarlarni tarjima qilarkan, ko‘proq qayta hikoya qilish yo‘lini tanlaydi. Elizabetta Nassau, Elyanor Austrian ayol bo‘lishlariga qaramay tarjima bilan shug‘ullangan. Ular tarjimada erkin tarjima usulini tanlagan.

Qadimgi madaniy meros Misr, Suriya, Kichik Osioyoda xiyla sof holda saqlangan. 529 - yilda yopilgan Afina Akademiyasining quvg‘inga uchragan olimlari Eronning Jundishshopur shahrida boshqa bir yirik ilmiy maktabga asos solganlar. Yunon tilida bitilgan kitoblarning fors va suriya tillariga ko‘plab tarjima qilinishi xuddi shu davrga to‘g‘ri keladi. [To‘laganov Muhammadjon, 2021: 30]

Sharq tarjima tarixida Bag‘dod tarjima maktabining badiiy tarjima usullari haqidagi fikrlari IX-X asrlarda yuzaga kelgan. Xalifa Al- Ma’munning homiyligi ostida Bag‘doddagi barcha olimlarni birlashgan (813-833) ”Bayt ul hikma” (Dorul hikmat) atalmish o‘ziga xos akademiya qaror topadi. ”Bayt ul hikma” qoshida rasadxona bo‘lib uning xodimlari astronomiyaga doir kuzatishlar olib borishar, ilmiy natijalarni sarhisob qilishardi. Hindlarning astranomiyaga doir yaratgan asarlari bilan tanishish ilmi nujum sohasidagi tatqiqotlarning yanada jonlanishiga sabab bo‘lsa, Eron va O‘rta Osiyo ilmiy adabiyotining natijalarini o‘zlashtirish ham katta ahamiyat kasb etdi. [Gulnoza Sayidaliyeva, 2016:23]

Bag‘doddan tashqari O‘rta asr Sharqida turli davrlarda Qohira, Damashq, Rey, Gurganch (Urganch), Buxoro, G‘azna, Samarqand, Isfaxon shaharlari ham ilmiy markaz bo‘lib xizmat qildi. Yunon va suriya tillaridan arabchaga o‘girilgan kitoblar orqali islom mamlakatlari olimlariga antik davr ilmiy adabiyotining boy asarlari yetib bordi. Keyinchalik bu tarjimalar ko‘p hollarda G‘arbiy Yevropaning antik davr ilmiy va madaniyati asarlari bilan tanishishning yagona manbasiga aylanib qoldi.

Sharqning duyoga mashhur alloma mutafakkirlari Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Koshg‘ariy, Al-Xorazmiy va boshqalar xorijiy tillarini mukammal bilganliklari tufayli tarjima bilan ham shug‘ullanganlar. Afsuski, ularning bu boradagi faoliyatlari, tarjimonlik uslublari chuqur o‘rganilmagan chunki ularning ko‘plab tarjimalari, g‘arb davlatlariga olib ketilgan va zamon zayli bilan ko‘p qismi yo‘qolib ketgan. Eng qadimiy asarlardan biri ”Tarixi Tabara” bo‘lib, muallifi Abu Ja’far Muhammad ibn Sharif Tabari edi.

Asar bir necha jilddan iborat bo‘lgan va tojik tiliga qisqartirib tarjima qilingan. O‘zbek tilining qoshg‘ariy dialektiga XVIII- asrda tarjima qilingan. Bu asar Somoniylar davri tarixiga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘sha davr tarixini bugungi kun yoshlariga yetkazib berishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, hind olimi Varaha Bihiriy asarlarini o‘z davrining buyuk olimi, va tarjimoni bo‘lgan Abu Rayhon Beruniy tomonidan arabtiliga tarjima qilgan. Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy arab, fors, so’g’diy, xorazmiy, suryoniy, yahudiy, hind va yunon tillarini bilgan, tarjima bilan ham muntazam shug’ullangan. U Ma’mun akademiyasida amalga oshirilgan tarjimalardan foydalanish bilan birga, “o’zi asl nusxadan tarjima qilar, shubhali, ishonchsiz tarjimalarni rad qilar, bevosita aslidan foydalanar yoki o’zi tarjima qilardi”.[Ochilov.E, 2012: 12]

Tarixdan ma’lumki, mashhur faylasuf Abu Nasr Farobiy bir necha tillarni mukammal egallagan. U Aristotelninig “Metafizika”, “Fizika”, “Logik” singari asarlarini sharhlab tarjima qiladi. Uning bu sharhlari arab dunyosida shuhrat qozondi. Ibn Sino Aristotel va yunon falsafasini Farobiynnig arabcha sharh-tarjimalari orqali o‘qib o‘rganganligini yozib qoldirgan. [I.G ‘ofurov, O. Mo‘minov, N.Qambarov, 2012: 57].

O‘z davrining zabardast tarjimoni Sobit Ibn Qurra Arximed, Evklid, Galen asarlarini o‘girdi, ilmiy atamalami yaratishda muttasil ishladi. Mahmud Muso Xorazmiy o‘sha paytda Bag‘dodda “Baytul hikma”da ilmiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanarkan, xalifaning buyrug‘iga binoan buyuk hind munajjimlik kitobi Sidxantani tabdil yo‘li bilan ixchamlashtirib qayta yaratdi. Unga o‘z kuzatishlari va fikrlami qo‘shib, “Ziji Xorazmiy” deb mashhur bo‘lgan asarni yozdi. “Ziji Xorazmiy” Yevropa va dunyo tarixiga juda kuchli ta’sir ko'rsatadi. [I.G ‘ofurov, O. Mo‘minov, N.Qambarov, 2012: 58].

Qadimgi Shoshning yirik ulamosi Qaffol Shoshiyning Tavrotni arab tiliga tarjima qilishi (904-976), “Bahs odobi”, “Husni Jadal”, “Dialektika go‘zalligi” asarlari Sharqda mashhur. U imom Surajiyning shogirdi, ulug‘ imom degan unvonga sazovor bo‘lgan. Toshkentdagi Xasti Imom ansambli uning nomi bilan atalgan. Xalifaning Vizantiyaga yurishida qatnashgan. Xalifalikning turli yirik lavozimlarida vazifadorlik qilgan. Abdulloh ibn al-Muqaffo (724—759) “Panchatantra” ni arab tiliga o‘girdi. U Eronda tug‘ilib, zardusht diniga e’tiqod qilgan. 35 yoshida zindiqlikda ayblanib xalifa Al- Mansur amriga ko‘ra o‘ldirilgan. [I.G ‘ofurov, O. Mo‘minov, N.Qambarov, 2012: 58]

Xalqaro Firdavsiy mukofotining laureati, adabiyotshunos olim, tarjimon Shoislom Shomuhammedov Alisher Navoiyning ”Devoni Foniy” majmuasi asosida yozgan ”Gumanizm adabiylik olovi” nomli maqolasida G‘arbda ilmu fanning insonga nisbatan gumanistik g‘oyalarning, o‘rta asr turg‘unligidan so‘ng, Uyg‘onish va undan keyingi davr taraqqiyotiga Sharq madaniyatining yutuqlari asos bo‘ldi, degan fikrni tasdiqlovchi bir qancha dalillar G‘arb olimlarining o‘z asarlaridan olinganligini ilgari surilgan tizimning haqiqiyligiga shubha qoldirmaydi.

Darhaqiqat, tarjima Sharq bilan G‘arb madaniyatini bog‘lagan, payvandlagan, boyitgan, mislsiz oltin ko‘prik vazifasini bajargani yuqorida keltirilgan ma’lumotlarda o‘z tasdig‘ini topadi. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish lozimki, qadimgi tarix ma’lumotlari, o‘tmishning yutuq va kamchiliklari, o‘z davrining durdona asrlari aynan Sharq va G‘arbning atoqli va mehnatsevar olim –trajimonlari sababli butun dunyoga tarqaldi.

Zero bir madaniyatni anglash, o‘z navbatida qabul qilish, uning bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lini o‘rganish, boringki, bugungi hayot tarzi bilan tanishish va hatto o‘z jamiyatiga tatbiq etish ham aynan tarjima va tarjimonning mehnati samarasidir. Tarixdan ma’lumki, G‘arbdagi nomi o‘chmas tarjimonlar qatorida, Sharqdagi ushbu yo‘nalishga ulkan hissa qo‘shib, ijod qilgan buyuk olimlar ham salmoqli o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.G‘ofurov, O. Mo‘minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi.- Toshkent, 2012. 58- bet.

2. Gulnoza Sayidaliyeva. O‘zbekistondagi ilk tarjima namoyondalari. Translation Forum, 2016. 2-bet.

3. To‘laganov Muhammadjon. Ilk tarjima-ilk tajriba. –Zangiota, 2021. 30-bet.

4. G‘aybulla Salomov, Najmiddin Komilov. Tarjima ko‘priklari.-Toshkent, 2010. 35-bet.

5. Ergash Ochilov. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. O’quv qo’llanma. – Toshkent, 2012. 12-bet.

6. https://qomus.info/oz/encyclopedia/i/ilmi-nujum/

7. https://en.wikipedia.org/wiki/Eleanor_of_Austria

KONSTITUTSIYA-ISHONCHLI QALQON

Rustamova Gulchehra Komiljonovna
Namangan viloyati yuridik texnikumi
“Ommaviy-huquqiy fanlar kafedrasi” o‘qituvchisi

“Bosh maqsadimiz-har bir yurtdoshimiz ushbu hujjatni mening Konstitutsiyam deb faxrlanadigan mukammal darajaga olib chiqishdir”

Sh.Mirziyoyev

Annotatsiya: ushbu maqolada Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning yaratilishi bilan bog‘liq vaziyatlar, unda bayon etilgan o‘zgarishlar, ularning mazmun mohiyati haqida fikr yiritiladi.

Kalit so‘zlar: yangi tahrir,konstitutsiyaviy islohotlar, jamoatchilik muhokamasi, inson hayoti, shani, qadr-qimmati, huquq va majburiyatlari.

Bizga ma‘lumki,yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasida bugungi globallashuv jarayonida yurtdoshlarimiz va mamlakatimiz manfaatlarini to‘laqonli himoya qilgan holda mamlakat taraqqiyotini ta‘minlashga qaratilgan alohida ikki yo‘nalish va uning doirasida amalga oshirishga qaratilgan maqsad va vazifalar belgilandi.Jumladan,Harakatlar strategiyasidan farqli ravishda beshinchi-Ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish hamda oltinchi-Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish kabi yo‘nalishlar belgilandi.

Galdagi vazifa ushbu yo‘nalish va unda belgilangan maqsadlar bugungi zamonga mos holatda bajarilishiga xizmat qiluvchi qonun va qarorlarning hayotiyligini ta‘minlashdir. Bu esa,o‘z navbatida,qabul qilinadigan huquqiy hujjatlarimiz uchun bosh go‘ya bo‘lib xizmat qiluvchi Konstitutsiyamizni yangilab,fuqarolarimizning xohish-irodasiga moslashtirishni talab etadi.

Konstitutsiya har bir davlat taraqqiyotining poydevori bo‘lgan huquqiy,siyosiy va mafkuraviy hujjat-mamlakatning Asosiy qonuni hisoblanadi.1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari,mustaqil demokratik davlatimiz,erkin jamiyatimizning mustahkam huquqiy asosi bo‘lib xizmat qildi.

Fuqarolarning eng muhim orzu-intilishlari va maqsadlari Asosiy qonun-Konstitutsiyada to‘liq ifoda etiladi.Mustaqillik yillarida Konstitutsiya asosida inson Qadri ulug‘lanadigan demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurish maqsadida keng qamrovli yangilanishlar va islohaotar amalga oshirildi,bu borada boy tajriba to‘plandi.

O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda.Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan adolatli va xalqparvar davlat barpo etish yo‘lida dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalarni to‘laqonli amalga oshirish uning maqsadi,ko‘lamiga monand va munosib bo‘lgan yangi mustahkam konstitutsiyaviy makonni shakllantirishni taqazo etadi.

Shu nuqtayi nazardan,konstitutsiyaviy islohotlar tabiiy rivojlanish natijasi bo‘lib,millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun o‘ta ahamiyatli,adolatli jamiyat qurish yo‘lida ulkan qadamdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar insonning sha‘ni,qadr-qimmati,huquq va erkinliklarini barcha sohalarda ustuvor ahamiyat kasb etishini qat‘iy qoidaga aylantirish,“Inson Qadri uchun” g‘oyasini hamda bugungi islohotlarimizning bosh tamoyili bo‘lgan “Inson-jamiyat-davlat” degan yondashuvni yangi tahrirdagi Konstitutsiya mazmun -mohiyatiga chuqur singdirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyaviy komissiya a‘zolari bilan bo‘lgan uchrashuvda “Bosh maqsadimiz-har bir yurtdoshimiz ushbu hujjatni mening Konstitutsiyam deb faxrlanadigan mukammal darajaga olib chiqishdir”,deb ta‘kidlagan edi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasi referendumga chiqarilishidan oldin misli ko‘rilmagan hajmda jamoatchilikning keng muhokamasidan o‘tkazilganligi,buning natijasida 220 mingdan ortiq takliflar kelib tushganligi va Konstitutsiyaviy qonun loyihasi ushbu takliflar asosida shakllanganligi tom ma‘noda uning xalq Konstitutsiyasi ekanligidan dalolat beradi.

Konstitutsiya loyihasini muhokama qilish jarayonida fuqaro qaysi kasbda,qanday lavozimda ekanligidan qat‘iy nazar,har bir insonning tanlovi va fikri ahamiyatli va hal qiluvchi bo‘ldi.

Darhaqiqat,Yangi O‘zbekiston sharoitida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning eng muhim jihatlari inson,uning hayoti,erkinligi,qadr-qimmati,daxlsiz huquqlari va manfaatlarini ta‘minlash,erkin va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda demokratik huquqiy davlat qurish bilan bog‘liq o‘zgarishlar bilan muhim ahamiyatga ega.

Konstitutsiya loyihasi bevosita xalq tomonidan qabul qilinganligi tariximizda to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga kiritilgan birinchi hujjat bo‘ldi.Buning eng ahamiyatli tomoni shunda bo‘ldiki,yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga munosabat bildirilgan barchaning ovozi bir hil maqomga va kuchga ega ekanligidir..

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023-yil 1-maydan e‘tiboran kuchga kirdi. Bunga 30-aprel kuni bo‘lib o‘tgan referendum natijasiga ko‘ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo‘ldi.

Bunga qadar 1992-yildan buyon konstititutsiyaga jami 15-marta o‘zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o‘zgarishlar ko‘lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri

qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiylarga koʻra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan.

Konstitutsiyaga juda koʻplab normalar qoʻshilgan, jumladan:

- Oʻzbekistonda oʻlim jazosi taqiqlanadi.
- Agar shaxsning oʻz aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil boʻlsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas.
- Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chogʻida foydalanishga yoʻl qoʻyilmaydi.
- Har kim oʻz shaxsiga doir notoʻgʻri maʻlumotlarning tuzatilishini, oʻzi toʻgʻrisida qonunga xilof yoʻl bilan toʻplangan yoki huquqiy asoslarga ega boʻlmay qolgan maʻlumotlarning yoʻq qilinishini talab qilish huquqiga ega.
- Davlat internet jahon axborot tarmogʻidan foydalanishni taʻminlash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada huquqiy davlat prinsipini roʻyobga chiqarishga qaratilgan konstitutsiyaviy kafolatlar belgilandi.Shu bilan bir qatorda ijtimoiy davlat prinsiplariga oid normalarning yanada mustahkamlanganligi,xususan,sifatli taʻlim va tibbiy xizmat koʻrsatish,ijtimoiy ehtiyojmand qatlamni qoʻllab -quvvatlash,munosib nehnat sharoiti va adolatli ish haqi tizimini yaratish,ishsizlikni himoyalash,uy-joyga ega boʻlishga qaratilgan qoidalar bilan takomillashtirildi.

Inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilanishi,erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish,sogʻlom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini taʻminlash,tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash bilan bogʻliq qoidalarning belgilanganligi Oʻzbekistonning yanada barqaror boʻlishiga olib keladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki,Yangi tahrirdagi Konstitutsiya barchaning-bir tomondan inson,davlat va uning organlari tizimi,ikkinchi tomondan inson,fuqaro va jamiyatning huquq va majburiyatlarini aniq bayon etilganligi uning har qanday tahdidlarga qarshi ishonchli qalqon boʻla olish qobiliyatini mustahkamlashga asos boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni
2. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2013.
3. Yangilanayotgan Konstitutsiya 100 savolga 100 javob. Toshkent: Adolat, 2023

BOLALARDA KREATIV YONDASHUV ASOSIDA INNOVATSION FIKRLASH KO`NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Kadirova Dildora Nadjatbekovna
Qo`qon davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada мaktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi shaxsiga qo'yiladigan talablar, tarbiyachi va pedagoglarning jamiyatda tutgan o'rni, maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish ijtimoiy-muammo sifatida hamda мaktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik va pedagogik xususiyatlari to`g`risida fikr yurutilgan.

Tayanch iboralar: tarbiya, tarbiyachi shaxsi, kasbiy sifatlar, kreativlik, kasbiy faoliyat, kreativ qobiliyatlar, talablar.

ФОРМИРОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ НАВЫКОВ МЫШЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА

Кадирова Дилдора Наджатбековна-
Преподаватель Коканского государственного педагогического института

Аннотация: В статье обсуждаются требования к воспитателю организации дошкольного образования, роль воспитателей и педагогов в жизни общества, формирование навыков инновационного мышления у дошкольников на основе творческого подхода как социальной проблемы, формирование инновационного мышления.

Ключевые слова: воспитание, личность воспитателя, профессиональные качества, творчество, профессиональная деятельность, творческие способности, требования.

FORMING INNOVATIVE THINKING SKILLS IN CHILDREN ON THE BASIS OF A CREATIVE APPROACH

Kadirova Dildora Nadzhatbekovna-
Lecturer at the Kokan State Pedagogical Institute

Abstract: The article discusses the requirements for the educator of the organization of preschool education, the role of educators and teachers in the life of

society, the formation of innovative thinking skills among preschoolers based on a creative approach as a social problem, the formation of innovative thinking.

Key words: upbringing, teacher's personality, professional qualities, creativity, professional activity, creative abilities, requirements.

Tarbiya – tarbiyachi hamda tarbiyalanuvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo‘lib, tarbiyalanuvchini ma’lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta’sir etish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondoshib shaxsni har tomonlama shakllantirish, uning xulq atvori va dunyo qarashini, ijtimoiy ongini tarkib topditishda xalqning boy mafkuralariga yo‘naltirilgan qizg‘in faoliyat jarayonidir.

Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, kattalarning mehnati haqida boshlang‘ich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy axloq, o‘z tengdoshlari hamda kattalar bilan madaniyatli munosabatda bo‘lish odatlarini singdiradi, yaxshilik, haqiqatgo‘ylik, adolat, jasurlik, kamtarlik kattalarga hurmat bilan qarash, tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, o‘simlik va hayvonlarga g‘amxo‘rlik bilan qarash, mehnatga ishtiyoq, kattalarni mehnat natijalarini asrab-avaylash kabi axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi.

Eng muhimi-tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to‘g‘ri taqdirlash va mustaqil faoliyat qilishlar uchun imkoniyat yaratishi kerak. Buni bolalar yuqori baholaydilar.

Pedagog yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma’lumotli, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg‘or tajribali pedagoglarning tajribasini o‘rganib, o‘z ishiga tadbiq eta oladigan bo‘lishi;

- Pedagog bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, xatti-harakati sabablarini to‘g‘ri tahlil qilib, unga ijobiy ta’sir etuvchi vositalarni topa olishi;

- Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko‘nikmalardan xabardor qilish uchun pedagogning nutqi ravon, sodda, aniq, mantiqiy, ixcham bo‘lishi lozim. Ta’lim berishda texnikaviy vositalardan samarali foydalana olishi kerak. Bolalar bilim, malaka, ko‘nikmalarni yaxshi o‘zlashtirib olishlari uchun ularni faollashtirib savollardan foydalanishi;

- Tarbiyachi o‘ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o‘sha faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg‘ota olish, ularning diqqatini jalb qilib, faolligini o‘stirish, bolalarning xulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi;

- Har bir faoliyat uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo‘yishi;

- Kun tartibini to‘g‘ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a’zoni e’tiborga olgan holda rahbarlik qila bilish;

- Bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiyaviy ishlarida e’tiborga olishi;

- Tarbiyachi ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar, uchrashuvlar o‘tkazib, axborot almashtirib turishi;

- Pedagog bolalarga nisbatan hayrihoxlik munosabatda bo‘lishi, har bir bola uchun qulay sharoit yaratishi, hafa bo‘lsa ovuntara olishi;

- Kun tartibida olib borgan ta’lim-tarbiya ishini tahlil qila bilishi va uni yanada yaxshilash yo‘llarini topa olishi kerak.

Bolalarni sevish – pedagogning murakkab mehnatini jozibali va yengil qiladi. Tarbiyachining bolalarga munosabati pedagogikada tarbiyalanuvchi shaxsga hurmat, unga talabchanlik bilan bir qatorda turadi. Bu munosabat bolada pedagogga nisbatan ishonchni uyg‘otadi, tarbiyachiga bolalarni chinakam ma’naviy murabbiysi bo‘lishga imkon beradi.

Nutq madaniyati ─ ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyati madaniyatini aks ettiruvchi bir ko‘zgudir. Nutq madaniyati adabiy tilning har ikki shakli ─ yozma hamda og‘zaki shakli uchun zarurdir. Nutq madaniyatiga e’tibor yolg‘iz tarbiyachilardan emas, balki har bir fuqarodan ongli ravishda o‘zlashtirish talab qilinadigan insoniy fazilatlardan biridir. Uni egallash har bir tarbiyachining va shaxsning madaniy saviyasi va bilimiga bog‘liq. Tarbiyachi pedagogik mahoratida nutq madaniyati, uning nafaqat ma’naviy va axloqiy jihatdan boyligini, balki bilimini, tafakkurini, ilmiy dunyoqarashini, fikr va mushohada yuritishini belgilovchi me’yordir. Tarbiyachining nutq madaniyati birdaniga shakllanib maromiga yetadigan jarayon emas, u pedagogik mahorat bilan, kasb faoliyati davomida, tajribali ustozlar o‘giti natijasida yillar davomida takomillashib, sayqallanib boraveradi.

Pedagogik-tarbiyachining nutq madaniyatiga xos bo‘lgan vositalar

Nutq madaniyati tarbiyachining ma’naviy axloqiy kamoloti tarikibiy qismidir. Nutq madaniyatini egallashning yana bir ko‘rinishi nutq taqlididir.

Nutq madaniyati tarbiyachilarning madaniy va ma’naviy saviyasi bilan, hamda adabiy tilni mukammal bilishi bilan boshqa kasb egalaridan ma’lum ma’noda ajratib turadi.

Nutq madaniyatining pirovard maqsadi erkin fikr egasi bo‘lgan barkamol avlodni qanday kasb egasi bo‘lib yetishishidan qat’iy nazar ma’naviy jihatdan tarbiyalash.

Nutq madaniyati-bu avvalo tarbiyachilarda mutqiy ko‘nikma va nutqiy malakalarni hosil qiladi va nutq madaniyatiga o‘zbek adabiy tilini mukammal egallash asosida erishiladi.

Pedagogning maktabgacha ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini belgilashda 3ta sohani inobatga olish lozim: shaxs, faoliyat bo‘yicha hamda refleksiv.

Shaxs sifatida tayyorgarlik – bu pedagogik tafakkur (gnostik, ya’ni aqliy qobiliyatlar - ilmiy ma’lumotlarni farqlash malakalari, amaliy faoliyatda ilmiy bilimlarni to‘g‘ri qo‘llash, pedagogik vazifalarni malakali xal etish); pedagogik maqsadni belgilash (tashkilotchilik qobiliyatlari - o‘qitish va takrorlash uchun optimal sharoit yaratish malakalari, mashg‘ulotning kerakli shakllarini tanlash, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, o‘quv jarayonini kerakli inventar jihozlari bilan ta’minlash; o‘z mehnatini tashkil etish, har qanday tadbirlarni rejalashtirish va o‘tkazish (ertaliklar, adabiy kechalar va boshqalar); pedagogik yo‘naltirilganlik (kommunikativ qobiliyatlar: ma’lum bir ta’lim olayotganlar kategoriyasi uchun hammabop shaklda ma’lumotni taqdim etish qobiliyati, vaziyatga qarab ma’lumotni berish usul va uslublarini to‘g‘rilash, birovni ishontira olish qobiliyati, “pedagog-pedagog”, “pedagog-ota-ona”, “pedagog-menedjer”, “pedagog-bola” darajalarida kasbiy muloqotni savodli tuzish; bolalar jamoasida ijobiy psixologik mikroiqlimni yaratish va boshqalar).

Kasbiy tayyorgarlik: pedagogik takt (intellektual mehnat bo‘yicha loyihaviy qobiliyatlar: oddiy standartlar va qaror uslublarini olib tashlab, yangi, ajoyiblarini izlash; ushbu va o‘z o‘zidan ma’lum narsadan yuqorilarini ko‘ra bilish; odatdagi muammolarni asosiy bog‘liqliklarini qamrab olish; qaror qabul qilishning bir nechta turli yo‘llarini aniq ko‘ra bilish hamda hayolan eng samaraligini tanlash; barcha masalalar xal etilib bo‘lingan joyda muammoni sezish va mavjudligi; g‘oyaviy hosildorlik; bolaning individual rivojlanish o‘quv jarayonini, innovatsion o‘quv rejasini, dasturni, o‘z faoliyatini loyihalashtirish va boshqalar).

Refleksiv tayyorgarlik: pedagogik refleksiya (refleksiv qobiliyatlar sezgirlikning 3 turini o‘z ichiga oladi: obyektni his etish: real haqiqat bolalarda qanday aks-sado berayotganiga, bunda qay darajada bolalarning qiziqish va ehtiyojlari namoyon bo‘lishiga, “ularni pedagogik tizimning talablariga mos kelishiga” pedagogning alohida sezgirligi; me’yorni his etish va takt turli pedagogik ta’sir ko‘rsatish vositalari ta’sirida bola shaxsida va faoliyatida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar o‘lchoviga alohida sezgirlikda namoyon bo‘ladi, umuman qanday o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, ular ijobiymi yoki salbiymi, qaysi belgilarga ko‘ra ular haqida so‘zlash mumkin; dahldorlik hissi pedagogning shaxsiy faoliyati kamchiliklariga, tanqidiyligi va o‘quv jarayoniga javobgarlik sezgirligi bilan ta’riflanadi).

Xulosa o`rnida aytish mumkin-ki, yuqoridagilar shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni tadbiq etishda bola va pedagog shaxsining alohida rivojlanishi emas, balki ta’lim jarayoni yaxlit subyektining rivojlanishi amalga oshirilishi lozimligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, har qanday hayotiy yoki badiiy hodisa yuzasidan o‘z fikri, qarashlariga ega bo‘lgan, o‘z xulosalarini chiqarib, ularni asoslay bilgan tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni har tomonlama innovatsion fikrlashga va kreativ yondashishga to‘g‘ri yo‘naltira oladi. Turli muammolar va ularni

Ma’lumki, ta’lim jamiyat rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Qanday sohada bo‘lmasin, yuqori bilimga ega mutaxassislar ilmiy-tadqiqot ishlanmalari bilan shug‘ullanish, yangi mahsulot turlarini yaratish va texnologiyalarni rivojlantirish

imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Jahondagi globallashuv jarayonlari va kompaniyalar o‘rtasidagi mavjud chuqur raqobat muhiti mutaxassislarni ham favqulodda shunga tayyor bo‘lishlarini talab etadi. Ular nafaqat o‘z g‘oyalarini rivojlantirish va yaratilgan nazariy modellarini amalda joriy etish uchun qulay sharoitlarni ta’minlaydilar, shu bilan birga, ta’limning innovatsion rivojlanishi uchun ham muhim intellektual omil hisoblanadilar.

1989-yil 21-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinishi va uning birinchi moddasidayoq “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir” deb rasmiy e’lon qilinishi nafaqat mamlakatimizda, butunjahon hamjamiyatida tilimizga bo‘lgan avvalgi qarashlarni tubdan o‘zgartirib yubordi. O‘rta umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda oliy ta’lim muassasalarida ona tilining, boshqa tillarda ta’lim beriladigan maktab va sinflarda esa o‘zbek tilining o‘qitilishiga e’tiborni yanada kuchaytirdi. Mamlakatimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bugungi kunda katta samaralar berayotganligini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Bu islohotlar, avvalo, millatning g‘ururi, uning iftixori bo‘lgan ona tiliga bo‘lgan e’tibori, munosabatning o‘zgarganligidan boshlandi.

Ona tilini o‘qitish metodikasi fani ta’lim bosqichlarida olib boriladigan dars turlari, ona tilini o'qitishning turli zamonaviy metod va usullaridan foydalanish jarayoni, o‘quvchilarga ona tilidan bilim va malaka berish yo'llari, ona tili ta’limining asosiy vazifasi bo‘lgan o'quvchilaming fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o'stirish, o'zini, o‘zgalami va borliqni til vositasida anglashni hamda fikr va his-tuyg'ularini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olishga o‘rgatish jarayonlarining mohiyatini tushunishda talabalami zarur bo‘lgan bilimlar bilan qurollantiradi. Mazkur fan pedagogikaning xususiy didaktik siklidagi fanlardan biri bo'lib, tilshunoslik fanlari hamda ona tili ta’limi jarayonlari bilan bog‘liqdir va “Nima o‘qitiladi?”, “Qanday o'qitiladi?”, “Qanday tashkiliy shakllar vositasida o‘qitiladi?” degan savollarga javob izlaydi. “Ona tilini o‘qitish metodikasi” fani 0‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi bo‘yicha yetuk kadrlar tayyorlash, ta’lim tizimida ona tilini o‘qitishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ona tilini o’qitishda, u haqida o’quvchilarga tushuncha berishda ona tili fani o’qituvchilarining xizmatlari benihoya kattadir. Bugun ta’lim sohamizda ona tili fanini o’qitishda ba’zi bir muammolar ham mavjudki, bular tilimizning sofligiga, milliyligiga, boyligiga putur yetkazayotgan holatlarni yuzaga keltirib chiqarmoqda. Natijada ushbu fanni o’qitishda, o’quvchilarga tushunarli qilib yetkazib berishda ba’zi bir qiyinchiliklar ko’zga tashlanmoqda. Bu holatlar esa, albatta, ta’lim sifatiga ham salbiy ta’sir ko’rsatmoqda.

Pedagog avvalombor, u qaysi fan bo’lishidan qat’iy nazar fanning tub mohiyatini anglab olgan bo’lishi lozim. Jumladan, uning maqsadi, vazifalari, tarkibi va tamoyillarini bilmasdan turib, auditoriyada talabalar diqqatini jamlay olmaydi.

Ona tili o’qitishning ham quyidagi bir necha tamoyillari mavjudki, ularni birma-bir ko’rib chiqishni lozim deb topdik:

1. Til materiyasiga, nutq organlarining o’sishiga, nutq malakalarinikg to’g’ri rivojlanishiga e'tibor berish tamoyili. Nutq, til qonuniyatlariga, oz bo’lsa-da, e'tibor

bermaslik amaliy nutq faoliyatini egallashga salbiy ta'sir ko’rsatadi. Masalan, fonetik ko’nikmalarga yetarli e'tibor berilmasa imloviy savodxonlikka putur yetadi. Bu ta'lim tamoyili tildan olib boriladigan mashg’ulotlarda eshtuv va ko’ruv kursatmaliligini ta'minlashni va nutq organlarini mashqlantirishni (gapirib berish,

ifodali o’qishni ichida, gapirishni) talab etadi.

2. Til ma'nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma'nolarini) tushunish printsipi. So’zni, morfemani, so’z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma'lum voqea-xodisalar o’rtasilagi bog’lanishni aniqlash demakdir. Til ma'nolarini tushunish tamoyiliga amal qilishning sharti tilning xamma tomonlarini, tilga oid barcha fanlar (grammatika, leksika, fonetika, orfografiya, stilistika)ni o’zaro bog’langan xolda o‘rganish xisoblanadi. Masalan, morfologiyani sintaksisga tayangan xoldagina o’rganish, o’zlashtirish mumkin. Sintaksisni o’rganishda esa morfologiyaga suyaniladi, orfografiya fonetika, grammatika, so’z yasalishiga suyanadi va x.q. So’zni morfemik tomondan taxlil qilish uning ma'nosini tushunishga yordam beradi. Tilning xamma tomonlari bir-biri bilan o’zaro bog’langan bo’lib, o’qitishda buni albatta xisobga olish kerak.

3. Tilga sezgirlikni o’stirish prinsipi. Til - juda murakkab xodisa, uning tuzilishini, sistemasini faxmlab olmay turib, sal bo’lsa-da, uning qonuniyatlarini, o’xshashliklarini o’zlashtirmay turib uni yo'dda saqlab bilmaydi. Bola gaplashish, o’qish, eshitish bilan til materiallarini yig’adi, uning qonunlarini o’zlashtiradi. Natijada kishida tilga sezgirlik (til xodisalarini tushunish) xususiyati shakllanadi: tilni egallash mumkin emas.

4. Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili. Bu tamoyil til hodisalarini tushunmay turib savodli yozish, nutq madannyati vositalarining xabar berish funksiyasini tushunish bilan bir qatorda, uning ifodalilik (uslubga oid) funksiyasini tushunishni, mazmuninigina emas, balki so’z va nutq oborotlarining, tilning boshqa badiiy-tasviriy vositalarining hissiy ottenkalarini ham tushunishni kuzda tutadi. Bu tamoyilga amal kilish uchun, birinchn navbatda, badiiy adabietlardan, shuningdek, tilning funktsional-stilistik xususiyatlari anik ifodalangan boshka matnlardan foydalanish talab etiladi.

5. Og’zaki nutkni yoema nutkdan oldin o’zlashtirish tamoyili. Bu tamoyil xam kishi nutqining rivojlanishiga ta'sir etadi va til o’qitish metodikasini tuzishda xizmat

qiladi. Metodika tamoyillari, didaktika tamoyillari kabi o’qituvchi bilan o’quvchining maqsadga muvofik; faoliyatini belgilashga, ularning birgalikdagi ishlarida qulay yo’nalishini tanlashga yordam beradi, metodikaning fan sifatida nazariy asoslash elementlaridan biri bo’lib xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasalarida ona tili darslarini loyihalash jarayonida talabalarni faollashtirish texnologiyasi asosida ularning obektiv faoliyatini amalga oshirish quyidagilar orqali belgilanishi maqsadga muvofiq:

- o‘zlashtirilgan bilimlarni umumlashtirish asosida xulosalar chiqarishi;
- tafakkurni rivojlantirishga mo‘ljallangan topshiriqlardan o‘quv faoliyatida foydalana olishi;
- nazariy bilimlarini turli vaziyatlar (matn ichidan talab qilingan so‘z yoki so‘z birikmasini topish, matnda berilgan so‘zlarni ma’nodoshlari bilan almashtirish va so‘zlarni talab qilingan guruhlarga ajratib yozish)ga tatbiq eta bilishi;
- egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda qo‘llay olishi.

Talabalarni ta’lim jarayoni sub’ekti sifatida ishtirok etishi orqali ona tili ta’limining amaliy yo‘nalishini kuchaytirish, ta’lim jarayoniga interfaol usullarni qo‘llash, o‘quv topshiriqlarini nostandart test shakliga keltirish, o‘zlashtiriladigan ob’ektlarni nutq tovushi, so‘z va so‘z turkumlari, turli sintaktik qurilmalarni ijodiy fikrlash vositasiga aylantirish orqali talabalarning interfaolligi rivojlantiriladi.

Oliy ta’limda ona tili darslarining samaradorligi o‘qituvchining o‘qitish metodlarini mukammal bilishi, metodni to‘g‘ri tanlay olishi va ularning har birini o‘z o‘rnida qo‘llay olishiga bog‘liq. «Ona tili» fanini o‘qitishning samaradorligi juda ko‘p omillar bilan chambarchas bog‘langan. Shubhasiz, o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari va o‘quv imkoniyatlarini hisobga olish, ona tili ta’limining mazmuni va maqsadiga muvofiq keladigan topshiriqlar tizimi hamda metodlarini to‘g‘ri belgilash, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida pedagogik hamkorlikning o‘rnatilishi, darsda ishga solinadigan vositalarning maqsadga muvofiq tanlanishi singarilarning barchasi samaradorlikni ta’minlash bilan aloqadordir.

Ma’lumki, dars ikki yoqlama jarayon bo‘lib, unda o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham faol ishtirok etadi. Shuning uchun o‘qitish metodlarini tasnif qilishda nafaqat o‘qituvchi faoliyati, balki o‘quvchi faoliyati ham asos bo‘lib xizmat qilmog‘i lozim. Ona tili dasrlarida qo‘llaniladigan o‘qitish metodlari nafaqat bilimlarni bayon qilish yoki uni mustahkamlashga xizmat qilishi, balki o‘quvchilarning mustaqil bilim olishini ham hisobga olishi, ta’lim jarayoniga izlanuvchanlik va tadqiqotchilik unsurlarini qo‘shish orqali ularni ijodiy faoliyatga tayyorlashi lozim.

Bundan tashqari oliy ta’lim muassasalarida ona tili ta’limini nutqdan tilga qarab borish yo‘li bilan tashkil etish o‘quv-tarbiya muhitida talabalar ongliligi, mustaqilligi va faolligini ta’minlaydi. Nutqdan tilga qarab borish texnologiyasi pedagogik jarayonda kreativ kompetentligi rivojlangan talabalar faoliyatida uchraydi. Bunday

oedagoglar oldin o‘rganilgan mavzuga oid dalillar ustida talabalar faoliyatini uyushtiradi. Kuzatilgan va tahlil qilingan dalillardan dastlabki xulosalar chiqariladi. Bu, o‘z navbatida, talabalar ijodkorligini ta’minlaydi. Nutqdan tilga qarab borish metodikasi, talabalarning kreativ kompetensiyalari(matnlardan o‘rganilayotgan til hodisasiga oid dalillarni izlab topish, ularga sharhlar tayyorlash, xulosalar chiqarish; berilgan dalillar asosida matn tayyorlash, tayyorlangan matnni o‘rganilayotgan til hodisasi jihatidan tahlil qilish, mustaqil chiqarilgan xulosalarni darslikdagi berilgan ta’rif va qoidalar bilan taqqoslash; bir-biridan ajratilgan hajmi kichik matnlarni mazmuni bo‘yicha birlashtirib, nisbatan yirikroq, yaxlit matn holatiga keltirish)ni shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 26 noyabrdagi PQ–3296–sonli «Zamonaviy maktablarni tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” gi Qarori.

2. Z.Yusubova. Ona tili o’qitish metodikasining ilmiy asoslari va tamoyillari. “Science and Education” Scientific journal. October 2020. Volume 1 Issue 7.

3. A.G‘ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: «Fan va texnologiya», 2012, 380 бет.

TIL TA`LIMIDA IMLOVIY VA GRAMMATIK KO‘NIKMALARNI TAKOMILLASHTIRISH

Shaxlo Karimova
Oriental universiteti “Boshlang`ich ta`lim” kafedrasi dotsenti, PhD.

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang`ich sinflarda ona tilini o‘qitishda imloviy va grammatik ko‘nikmalarni takomillashtirish va uning ilmiy-nazariy asoslari haqida mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar: til ta`limi, imlo, grammatika, maktab, lingvistika, ta’limda ijodkorlik, pedagogik texnologiya

Абстрактный. В данной статье представлены комментарии по совершенствованию орфографических и грамматических навыков при обучении родному языку в начальных классах и его научно-теоретические основы.

Ключевые слова: языковое образование, орфография, грамматика, школа, языкознание, творчество в обучении, педагогическая технология.

Abstract. This article presents comments on improving spelling and grammatical skills in teaching the native language in primary school and its scientific and theoretical foundations.

Key words: language education, spelling, grammar, school, linguistics, creativity in teaching, pedagogical technology.

Kirish

O‘quvchilarda aqliy qobiliyat bilan birga ijodkorlikni, mustaqil fikrlashni tarbiyalash, o‘z shaxsiy fikrini nutq sharoitiga mos holatda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalashga o‘rgatish, bu boradagi ko`nikmlaarni shakllantirish uchun ona tili ta’limining mazmunini yanada mustahkamlash talab qilinadi. O‘quvchilarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, ko‘pgina imkoniyatlardan eng qulayini tanlay olish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an’analarimiz ruhida tarbiyalashda ona til fanining tutgan o‘rni va imkoniyatlari yetarlidir. Ayniqsa, ertangi rivojlanishimiz uchun tadbirkor va ijodkor insonni tayyorlash masalasi ko‘ndalang bo‘lib turgan bir sharoitda bu fanning o‘qitilishi yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi.

O‘rta umumta’lim maktablarida ona tilining o‘qitilishining talab darajasida emasligining bosh sabablaridan biri shundaki, ta`limda har ikki shakl – og`zaki va yozma uslubni teng rivojlantirmaganimizda deb baholash mumkin. Deyik, lug`at ustida ishlandimi, o`zlashtirilgan so`zlar vositasida muloqot jarayoni tashkil etilishi yoki ijodiy matn tayyorlatish zarur. Ongni, tafakkurni shakllantirish ijtimoiy fanlarning vazifasi deb bilib, maktabda ona tilidan ta’lim mazmunini ona tili qurilishining ilmiy

talqini, grammatikani o‘rganishdan iborat deb bildik. Natijada o‘quvchi grammatik tushuncha va ta’riflarga duch kelib, turli hajm va murakkablikdagi ko‘plab topshiriqlarni bajarsa-da, og‘zaki va yozma savodxonligi sezilarli o‘zgarmayapti. Aksar o`quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki, yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalari hamon past saviyada qolib kelmoqda. Bu holning asosiy sabablarini faqat o‘qituvchidan ko`rish yoki maktablarning moddiy-texnikaviy qashshoqligidan ko`ra darsliklarni metodik jihatdan saviyaga to`la javob bera olmasligini ham ko`rib chiqish adolatdan bo`lardi.

Yuzalangan holat ko‘p jihatdan ona tili ta’limining maqsadi mazmuni va usuliga ham tegishli, uni yangilash hayotiy zaruriyatga aylanib qoldi. Maktablarda ona tili o‘rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo‘ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar ko‘p qirrali bo‘lib, ularni bajarish o‘quvchilar ongini o‘stirishga, ularga g‘oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo‘naltirilgan.

Ona tili yuzasidan egallangan bilim, malaka, ko`nikmalarni o‘zlashtrish natijasida o‘quvchilarda o‘z fikrini grammatik to‘g‘ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to‘g‘ri yoza olish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o‘quv predmeti sifatida o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, o‘quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yo‘naltirilgan umumta’lim vazifalari bilan bog’liq holda amalga oshiriladi. Tilni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda boshqa ko‘pgina o‘quv predmetlari uchun umumiy bo‘lgan ko‘nikmalar (predmetlararo ko‘nikmalar) ni hosil qilish ustida ham ish olib boriladi. Pedagogikada bunday predmetlararo ko‘nikmalarga analiz, sintez, abstraktlashtirish (til hodisalarini fikran tasavvur etish), umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash kabilar kiradi. Ushbu ko‘nikmalarni o‘quvchida shakllantirishustida maqsadga muvofiq ishlash ularning o‘quv faoliyatini faollashtirishga, bilimlarini muvaffaqiyatli egallashlariga imkoniyat yaratadi. Ona tili kursidan hosil qilingan maxsus ko‘nikmalar bilan predmetlararo ko‘nikmalar, bir-biridan ajratilmagan holda o‘quv-tarbiyaviy jarayonda shakllantiriladi. Darsda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etishga, foydalaniladigan til materialining g‘oyaviy-siyosiy, estetik va badiiy qimmatli bo‘lishiga, tilni o‘rganish jarayonida bolalarda dunyoqarash elementlarini shakllantirishga alohida ahamiyat berish zarur. Ijodiy izlanish muhiti yaratilgan darslardagina zarur axloqiy sifatlar tarbiyalanadi. Ona tili darslarida o‘zbek tiliga muhabbat, ma`naviy mulkka nisbatan ehtirom, va so‘zga ehtiyotlik bilan munosabatni tarbiyalashga alohida e’tibor beriladi. Buning uchun matn puxta tanlanadi. Matnlarning audio shaklidan ham foydalanish, ya`ni texnologik vositalardan ham ta`lim samaradorligiga ijobiy ta`sir omillaridan biridir.

Tilni o‘rganish jarayonida leksik-uslubiy topshiriqlarga katta o‘rin beriladi. Darsda she’r, soddalashtirilgan matnlar bilan birga, katta badiiy matnlardan ham

foydalaniladi. Matnlarni o`zlashtirish jarayonida imloviy, grammatik jihatdan mustahkamlashga qaratilgan didaktik topshiriqlar bajartirish maqsadga muvofiq. Masalan, bilimlarni mustahkamlashga “So`zdan so`z” o`yini, “Tengimni top”, “O`rnim qayerda?”, “Tushib qolgan harfman” kabi didaktik o`yinlarni qo`llash maqsadga muvofiqdir.

Deylik, tushirib qoldirilgan harflar paronimlarga aloqador bo`lib, x va h, i va u, a va o harflari biri ikkkinchisi o`rnida ishlatilganda ma`no o`zgarishi yuz beradi. Shu bois imloviy jihatdan tro`g`ri yondashish asosiy maqsaddir.

Boshlang`ich sinf kesimida rang-tasvirlardan foydalangan holda slayd ko`rinishida foydalansa, yanada esda qolishi kuchli bo`ladi. Masalan,

Sho…  Sho… 

Ona tili darslari har bir o`quvchi uchun milliy, madaniy xususiyatlarni, tarbiyaviy sifatlarini ham shakllantiradi, rivojlantiradi. Agar dars grammatik bilimlarni mustahkamlash, orfografik ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadini o‘z oldiga qo‘ysa, darsning mantiqiy shartlari soddadan to murakkablashtirib borilgan mashqlar tizimidan foydalanish mumkin. O`quvchilar biror imlo qoidasini yaxshilab bilib, o‘rganib olishlari uchun bir-ikki mashq namunasi avval o`qituvchi tomonidan, so`ngra jamoaviy ravishda bajariladi. O‘quvchilar malaka hosil qilgach, mashqni mustaqil ishlaydilar.

Imloviy va grammatik bilimlarning mustahkamlanishida darsda bajarilgan mashqlar o‘rtasidagi bog‘lanishni shakllantiradigan ko‘nikmaning xususiyati ham sabab bo‘ladi. O‘quv materialining mavzuga darsning maqsadiga mos bo‘lishi uning maqsadga yo‘naltirilishini ta’minlaydi. Darsda foydalaniladigan barcha o‘quv materiallari (shu jumladan, til dalillarini kuzatish, imlo va nutqqa oid mashqlarni bajarish uchun tanlanadigan materiallar ham) darsdan ko`zlangan maqsadga juda mos bo‘lishi zarur. Ona tili darslari ijtimoiy-foydali bo‘lishi uchun o‘quvchilarda o‘z fikrini grammatik to‘g‘ri, uslubiy aniq, izchil ifodalash va boshqalar fikrini bera olish ko’nikmasini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Ona tili darslarida nutq o‘stirish ko‘nikmasi grammatik materialni o‘rgatishda o‘quvchilarning tilimizdagi har bir so‘z turkumi yoki so‘z qismining rolini bilib olishlariga erishtiradigan metodik usullarni qo’llashni talab etadi, ya’ni grammatik nazariya grammatik to‘g‘ri va aniq nutq malakalarini shaklantirishga, anglab, tushunib yozish malakalarini o‘stirishga amalda tatbiq etish uchun o‘rgatiladi. Amaliy mashg`ulotlarda o`quvchilar nutqini o‘stirish darsning mazmunida va qo‘llaniladigan vazifalar turlarida, ayniqsa, og`zaki nutqqa daxldor topshiriqlarda o‘z aksini topadi.

Grammatik, so‘z yasalishiga oid, imloviy materiallarni o‘rgatishni nutq o‘stirish bilan bog‘lash o‘quvchilar aqliy faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Bolalar nutqini o’stirish jarayoni ularning tafakkurini o‘stirish bilan bog‘liq. Ona tili darsi o‘quvchilar taffakuri o‘stirish ustida ishlash maqsadiga yo‘naltirilganligiga qarab baholanadi. Bunda muayyan grammatik va imloviy materialni o‘rganish jarayonida shu materialni yaxshiroq o‘zlashtirishni taminlaydigan, aqliy faoliyatni talab qiladigan mashqlarni o‘tkazish tushuniladi. Ona tili darslarining foydali bo‘lishiga darsda og‘zaki va yozma ishlarni maqsadga muvofiq o‘tkazish, o‘quvchilarning o‘quv ishlarini tekshirib, nazorat qilib borish, o‘z vaqtida xatolarning oldini olish va to‘g‘rilash, texnika vositalaridan foydalanish kabi omillar katta ta’sir ko‘rsatadi. Dars jarayonida qat’iy andaza bo‘lishi mumkin emas. Biroq darsda uy vazifasini tekshirish, takrorlash, yangi materialni tushuntirish, mustahkamlash, uyga vazifa berish bosqichlariga rioya qilish tajribada o‘zini oqlayapti. Shunga qaramay, bularga ijobiy yondashish, darsning maqsadi va foydalaniladigan metodik usullariga asoslangan holda, darsni qaysi bosqich (yangi materialni tushuntirish, mustaqil ishni bajartirish yoki uy vazifasini tekshirish) dan boshlashni o‘qituvchining o‘zi hal qilib, bosqichlar orasidagi ichki bog‘lanish, har bir bosqichidagi ishlarning mazmunini aniq belgilab olish katta ahamiyatga ega ekanini unutmasligi kerak. Darsning barcha bosqichilarini bir jarayonga birlashtirish o‘qituvchidan yuksak mahorat talab etadi. O‘quvchilarda ijodkorlikni, mustaqil fikrlashni tarbiyalash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalashga o‘rganish uchun ona tili ta’limining mazmunini tubdan yangilash talab qilinadi. Yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, ko‘pgina imkoniyatlardan eng maqbulini tanlay olish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an’analarimiz ruhida tarbiyalashda ona til fanining tutgan o‘rni va imkoniyatlari benihoya kattadir. Ayniqsa, mustaqil respublikamiz uchun kreativ fikrlaydigan va ijodkor insonni tayyorlash masalasi ko‘ndalang bo‘lib turgan bir sharoitda bu fanning o‘qitilishi yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligi oshirish yo‘llari. _ T.: Nizomiy nomidagi TDPU,2009.
2. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish sharoitida innovatsiyalar Special Issue | 2022
3. . U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.: O‘zbekiston, 1992. 4
4. Kozimova N. Ona tili o`qitish metodikasi. Toshkent, 2009. –B.213.

KUKUNSIMON SELLULOZANING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI VA ULARDAN FOYDALANISH

Qo‘chqarova Durdona Ilhomjon qizi
Namangan muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti
Soliyev Maxammadjon Ismatullayevich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti Kimyo kafedrasi mudiri

Annotatsiya. Ushbu maqolada kukunsimon sellulozaning muhim fizik-kimyoviy xossalari va qo‘llanish sohalariga doir ma’lumotlar keltirilgan hamda tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kukunsimon selluloza, mikrokristallik selluloza, tolalari selluloza, gidrogel, adsorbent.

Mikrokristalik selluloza va kukunsimon sellulozalarning fizik-kimyoviy xossalarini o'rganishga katta e'tibor qaratilgan, chunki ularning o'ziga xos morfologiyasi tolali sellulozalardan foydalanish mumkin bo'lmagan joylarda qo'llash imkoniyatlarini ochadi [1].

Ta'kidlanganidek, kukunsimon sellulozaning xarakterli xususiyatlari kukun morfologiyasi va past molekular massasidir. Ular kukunsimon sellulozaning fizik-kimyoviy xususiyatlarini va kimyoviy jarayonlardagi ishtirokini belgilaydi. Kukunsimon sellulozaning o'ziga xos xususiyati va shu bilan birga mikrokristalik sellulozadan farqi shundaki, ishlab chiqarish jarayonida selluloza zanjirlarining buzilishi (mexanik va/yoki gidrolitik parchalanish) xaotik tarzda sodir bo'lib, keng o`lchov diapazonidagi zarrachalarning hosil bo`lishiga olib keladi. Shuning uchun aniq molekular massasi bo'yicha yoki cheklangan polimerlanish darajasidagi namunalarni olish imkonsiz. Bundan tashqari, usullarning xilma-xilligi, shuningdek, ushbu sellulozalarni olish uchun ishlatiladigan o'simlik manbalarining ko'pligi kukunsimon selluloza fizik-kimyoviy xususiyatlarining umumiy holda ifodalashga imkon bermaydi.

Ma'lumki, mikrokristalik selluloza kuchli siljituvchi kuchlanishlar (mexanik yoki ultratovush ta'siri ostida) suvda va bir qator organik erituvchilarda gelga o'xshash dispersiyalar hosil qilishi bilan ajralib turadi. Bu xossasi esa yangi nano- va kompozit materiallarni yaratish uchun asos bo`ladi. Mikrokristalli sellulozaning suvni ushlab turish qobiliyati juda yuqori (320 g. % gacha). Kukunsimon sellulozalar molekulyar massasining har xilligi va zarrachalarining polidispersligi tufayli bunday xossasi juda kuchsiz, shuning uchun ularning suvni ushlab turish qobiliyati 3-4 baravar past [2].

Kukunsimon sellulozaning supramolekulyar tuzilishi ham mikrokristalik sellulozanikidan farq qiladi. Mikrokristalli selluloza yuqori kristalli namunadir, ammo

u kimyoviy reaksiyalarda faol sirtni rivojlantirish qobiliyatiga ega. Shuningdek, kukunsimon sellulozalar oddiy sellulozaga qaraganda yuqori reaksion faollik bilan tavsiflanadi.

Kukunsimon sellulozani olish va o'rganishdan maqsad an'anaviy tolali sellulozani qo`llab bo`lmaydigan hollarda kukunsimon va mikrokristalik sellulozadan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash bilan bog'liq. Kukun morfologiyasi tufayli bu sellulozalar kimyoviy jarayonlarda oson qayta ishlanadi, chunki suspenziya usulini qo'llash, reagentlar va reaksiyaga kirishuvchi erituvchilar sarfini kamaytirish mumkin va hokazo.

Selluloza xossalarining kengligi tufayli ulardan foydalanish sohalari juda xilma-xil bo'lib, hozirgi vaqtda ilmiy-texnikaviy imkoniyatlarning rivojlanishi tufayli yangi foydalanish sohalari ham paydo bo'lmoqda.

Mikrokristalli selluloza hozirgi vaqtda sanoat mahsuloti bo'lib, yuqori sorbsion xossalari tufayli ko'plab dori vositalarini ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi, shuningdek, oziq-ovqat qo'shimchasi va ayrim oshqozon-ichak kasalliklarini davolashda ishlatiladi [3, 4, 5]. Bundan tashqari, u oziq-ovqat va kosmetika sanoatida va texnologiyaning turli sohalarida qo'llaniladi [6]. So'nggi yillarda mikrokristalik sellulozaning bir turi bo'lgan nanofibrillyar yoki nanoselluloza [7] ishlab chiqarish bilan bog'liq holda kukunsimon sellulozaning turli shakllarini o'rganishga qiziqish ortdi. Ushbu sellulozaning zarralari mikro- va nanozarrachalarni hosil qilish uchun turli yo'llar bilan disperslanadi, bu ularning yuqori sorbsion va reaksion xossalarini belgilaydi [8].

Bugungi kunda kukunsimon sellulozani qo'llashning eng istiqbolli sohasi oziq-ovqat sanoati hisoblanadi. Kukunsimon sellulozalar oziq-ovqatning kaloriya miqdorini kamaytiradigan oziq-ovqat qo`shimchasi sifatida ishlatiladi [8]. Sellyuloza inson uchun zararsiz bo`lib, organizmdan toksinlarni olib chiqishda ishtirok etadi, turli oziq-ovqatlar, bo'yoqlar, kimyoviy va xushbo'y qo'shimchalar bilan yaxshi mos keladi, tanadan yaxshi chiqariladi, amalda so'rilmaydi. Kukunsimon selluloza asosidagi preparatlar detoksifikatsiya terapiyasida qo'llaniladi - ular organizmdan toksik birikmalarni, patogen mikroflorani, radionuklidlarni va og'ir metallarning tuzlarini olib ketadi [9].

Farmatsevtikada kukunsimon sellulozalar dori vositalari uchun to`ldiruvchi moddalar sifatida qo'llanilib, ularning uzoq muddatli va yumshatuvchi ta'sirini ta'minlaydi [10], shuningdek, terining yorilishiga olib kelmaydigan qurituvchi vositadir.

Kukunsimon sellulozalar fan va texnologiyaning turli sohalarida qo'llaniladi, ular ishqoriy va kislotali muhitlar uchun yaxshi filtr materialidir. Ular sorbentlar, kolonkali va yupqa qatlamli xromatografiya uchun materiallar, filtrlash materiallari, shuningdek polimer plyonkali to`ldiruvchi moddalar sifatida ham qo'llaniladi.

Qishloq xo'jaligida kukunli selluloza o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalarining tashuvchisi sifatida ishlatiladi, ular insektitsidlar va gerbitsidlarning ta'sirini uzaytiradi, ularni tuproqda saqlaydi, pestitsidlar iste'molini kamaytirishga yordam beradi va ulardan foydalanish ekologik zararlarni kamaytiradi [11, 12].

Kompozit materiallar olishda biologik parchalanadigan qo'shimchalardan foydalanish yo'nalishi faol rivojlanmoqda. Kukunsimon sellulozalar polimer kompozitsiyalari uchun mustahkamlovchi komponent sifatida ishlatiladi. Nano o'lchamdagi selluloza zarralari bilan mustahkamlangan kompozitlarning mustahkamlik xususiyatlari an'anaviy to`ldiruvchi moddalar yordamida erishilgan darajadan oshib ketishi mumkin. Polimer kompozit materiallarni mustahkamlash uchun har xil turdagi sellulozali nanostrukturaviy elementlar - mikrokristalik selluloza, bakterial selluloza, nanokristalli sellulozalar qo'llaniladi.

Selluloza va qog'oz sanoatida mikrokristalik selluloza tolali materiallarning fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilash uchun ishlatiladi. Qog'oz massasiga 5% mikrokristalik selluloza kiritilishi tolali qatlamni mikrokristalik selluloza geli bilan ishlov berish orqali keyingi presslash va quritish orqali qo'shimcha vodorod bog'larini hosil qilishga qodir OH-guruhlarning miqdorini oshiradi. Bu, o'z navbatida, tolali qatlamning mustahkamligini oshiradi. Tayyor mahsulotning yirtilishga chidamliligi, zarbga chidamliligi va uzilish uzunligi kabi fizik-mexanik xususiyatlari sezilarli darajada oshadi.

Yuqorida keltirilganlardan xulosa qilish mumkinki, kukunsimon selluloza kimyo sanoatining ko`plab sohalarida keng qo`llaniladi. Selluloza – tabiiy biopolimer bo`lgani sababli organism uchun ham zararsiz hisoblanib, undan oziq-ovqat sanoatida ham foydalaniladi [13, 14]. Bundan tashqari, kukunli selluloza asosida mezo- va mikrog`ovakli adsorbentlar, ion almashinuvchi materiallar sintez qilinishi ham istiqbolli yo`nalishlarda sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kotelnikova, N.E. Effect of thermal and mechanochemical degradation on the structure and morphology of cellulose / N.E. Kotelnikova // Struktur u. Reaktivitat der Cellulose: Thes. VII Internat. Arbeitseminar. – Reinhardsbrunn. – 1988. – P. 91–110.

2. Рыженков, В.Е. Влияние микрокристаллической целлюлозы на выраженность гиперлипидемии в эксперименте / В.Е. Рыженков, И.В. Окуневич, Г.А. Петропавловский, Н.Е. Котельникова // Пат. физиол. и экспер. терапия. – 1986. – № 5. – С. 6–7.

3. Вайнштейн, С.Г. Защитные свойства микрокристаллической целлюлозы при экспериментальном сахарном диабете у крыс / С.Г. Вайнштейн, И.В. Жулкевич, Н.Е. Котельникова, Г.А. Петропавловский // Бюлл. экспер. биол. мед. – 1987. – № 2. – С. 167–168.

4. Kotelnikova, N.E. Cellulose materials modified by antiseptics and their antimicrobial properties / N.E. Kotelnikova, E.F. Panarin, N.A. Zaikina, N.P. Kudina, H. Yongfa, L. Sh. Su, A.S. Bobasheva, V.V. Lavrentiev // Polym. Med. – Poland. – 1998. – № 3-4. – P. 37–53.

5. Turbak, A.F. Because these cellulose products are patented, these processes may require licensing from the inventors / A.F. Turbak, F.W. Snyder, K.R. Sandberg // Pat. N3047351A1 (DE). – 1981. – 28 p

6. Krieger, J. Bacterial cellulose near commercialization / J. Krieger // Chem. Eng. News. – 1990. – P. 35–37.

7. Котельникова, Н.Е. Изменение морфологической структуры целлюлозы при гидролизе в водных средах до «предельной» СП и диспергирование (получение МКЦ) / Н.Е. Котельникова, Г.А. Петропавловский, Т.Е. Погодина // Cellulose Chem. Technol. – 1982. – V. 16. – N 3. – С. 303–321.

8. Филь, А.А. Биотехнология получения сорбционных материалов (энтеросорбентов) с заданными свойствами: автореф. дис. канд. биол. наук. / А.А.Филь. – Ставрополь, 2006. – 21 с.

9. Шойкулов, Б.Б. Гелевая композиция на основе МКЦ и азидина / Б.Б. Шойкулов, Д.С. Набиев, Х.А. Мирзахидов, Н.Ж. Бурханова // Химия природных соединений. – 1999. – № 5. – С. 577-580.

10. Vasiliu, O.C. Микрокристаллическая целлюлоза с фильтрующими свойствами // Cellulose Chem. Technol. – 1983. – № 2. – P. 91-102.

11. Bektemirov Azizbek, Soliev Makhammadjon, & Hoshimov Farkhod (2022). Biological efficiency of Entolicur fungicide against yellow and brown rust of winter wheat crops. Austrian Journal of Technical and Natural Sciences, (9-10), 46-49.

12. А.О.Бектемиров, М.И.Солиев. Изучение биологической эффективности фунгицида «Энтоликур 22, 5%» ООО «Ифода Агро Кимё Химоя» // сборник материалов «Современная наука: актуальные вопросы, достижения и инновации». 2022, «Наука и просвещение». С.18-20

13. Bufotima T. Abdullaeva, Gulnora G. Rakhmonova, Mahammadzhon I. Soliev. Detection of Acute Toxicity of Wormwood Extract and Pine Conifer Extract // Spanish Journal of Innovation and Integrity. 2022. #5. P.605-609.

14. А.О.Бектемиров, М.И.Солиев. Изучение биологической эффективности фунгицида «Энтоликур 22, 5%» ООО «Ифода Агро Кимё Химоя» // сборник материалов «Современная наука: актуальные вопросы, достижения и инновации». 2022, «Наука и просвещение». С.22-24

BIZNESDA MIJOZLAR BILAN ISHLASH

Rashidov Shohboz Ilhom o`g`li
Jizzax Sambhram Universiteti BBA talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mijozlarni qanday qilib bir umirlik mijozga aylantirish kerakligi va uning qoidalari, mijozlarni muammoli vaziyatdan ijobiy taraflama chiqib ketishi, uning prinsplari haqida va undan tashqari mijozlaringizni xohishi, nimani xohlayotgani va nimani xohlamayotgani, mijozni qanday qilib jalb qilish va unga qanaqa reklama tuzish kerakligi, doimiy mijozlar uchun dasturlar va mijoz kompaniya mahsulotidan qayta sotib olganda, kompaniyaning ijobiy taraflama yutiqlari va kompaniya uchun ko`p foydasi olib kelishi haqida yozilgan.

Kalit so`zlar: Mijoz, reklama, brend, OAV, prinsp, portret, talab, taklif, xohish, jalb qilish.

Annotatsiya: In this article, how to turn customers into lifelong customers and its rules, how to get customers out of a problem situation in a positive way, about its principles, and in addition, about the desires of your customers, what they want and what they don't want, how to attract a customer and what kind of advertising should be created for him, permanent It is written about customer programs and when the customer repurchases from the company's product, the company gains positive publicity and brings many benefits to the company.

Key words: Client, advertising, brand, mass media, principle, portrait, demand, offer, desire, attraction.

Абстрактный: В этой статье о том, как превратить клиентов в клиентов на всю жизнь и ее правилах, как вывести клиентов из проблемной ситуации в положительную сторону, о ее принципах, а кроме того, о желаниях ваших клиентов, чего они хотят и чего хотят. не хочу, как привлечь клиента и какую рекламу ему создать, постоянная Написано о клиентских программах и когда клиент выкупает товар компании, компания получает положительную рекламу и приносит много пользы компании.

Ключевые слова: Клиент, реклама, бренд, СМИ, принцип, портрет, спрос, предложение, желание, привлечение.

Biznesda mijozlar bilan bilan ishlash uning qoidalari va mijozni olib qolish usullar.

Yangi mijozlarni qidirishni boshlashdan avval, sizdan bir marta maxsulot sotib olgan odamni bir umrlik mijozga aylantirishga harakat qiling. Bunda sizga mijozlarga xizmat ko`rsatishning o`nta qoidasi qo`l keladi:[2]

[2] Karl Syuell va Pol Braun “Bir umirlik mijozlar”kitobi 4-bet. Zukko kitobxon nashriyoti Toshkent-2021

1. Mijozlardan nima istashlarini so`rang va ularga shu narsadan qayta va qayta bering.

2. Sizning “Marxamat” va “Raxmat” deyishlaringiz siz ishni boshidan boshlaboq to`g`ri qilayotganingizni kafolatlamaydi. Faqat tizimli yondashuvgina buni kafolatlashi mumkin.

3. Mijozlar vadangizda turishingizni kutishadi. Siz o`z ishingizni ular kutgandanda ham a’loroq qiling.

4. Mijoz sizdan nimanidur so`rasa siz “Xa” deb javob berishingiz kerak.

5. Mijozlar bilan munosabatda bo`ladigan xar bir xodim shikoyatlarni hal qilish va muammolarni yechish xuquqiga ega bo`lishi kerak.

6. Siz nimanidur natog`ri qilayotganingizni mijozlaringiz yuzingizga aytishlariga yo`l qo`yib bering.

7. Fudbo`l komandalari shu narsani qilishadi. Siz ham shunday qilishingiz kerak.

8. Hodimlaringizga hamkorlaringizga to`lagandek xaq to`lang.

9. Odamlarga hurmatingizni namoyish qiling. Xushmomila bo`ling. Bu narsa ishlaydi.

10. Eng yahshilar qanday ishlashini bilib oling. O`zingizda o`sha tizimni ishlating.So`ngra uni mukammallashtiring.[3]

Agar mijoz s.izdan yo`q narsani so`raydigan bo`lsa, raqibingizga qo`ng`iroq qilib, maxsulot ayirboshlashni taklif qilishga urinib ko`ring. Bundan ikkalangizga foyda bo`lgani uchun, raqibingiz xar holda rozi bo`lsa kerak.[4]

Mijozlarga sizga yaxshi muomila bo`lishlariga qo`yib bering. Qanday qilib yaxshi servisga ega bo`lish yo`llarini ularga o`rgating: siz bilan qaysi paytda uchrashish qulay ekanligi va ular ishning boshidan yaxshi bajarilishi uchun ular sizga nimalarni aytib berishlari kerakligii tushuntiring.[5]

Eng past narxni taklif qilib yutishga xarakat qilganlarning kelajagi yo`q. Reklamada xarakat qilnganlarini kelajagi yoq. Reklamada narx to’grisida gaprish kerak emas. Buning o`rniga doim biznesingiz asoslangan prinsiplar xaqida gapirishga xarakat qiling.[6]

-Elon qilmang, namoyish qiling. Sizdagi sotuvchilar eng do`stona ekanligini aytib o`tirmang. Ularning o`zlarini tutishlaridan birorta misol keltiring. Mijozlarning o`zlari xulosa qilishsin.[7]

-Qilayotgan ishlaringizning xammasi sizning brendingizga ishlaydi. Xar bir arzimagan narsa xam kompaniyaning mijozlar va xodimlari uchun brendini

[3] Karl Syuell va Pol Braun “Bir umirlik mijozlar”kitobi 16-bet. Zukko kitobxon nashriyoti Toshkent-2021
[4] Karl Syuell va Pol Braun “Bir umirlik mijozlar”kitobi 77-bet. Zukko kitobxon nashriyoti Toshkent-2021
[5] Karl Syuell va Pol Braun “Bir umirlik mijozlar”kitobi 100-bet. Zukko kitobxon nashriyoti Toshkent-2021
[6] Karl Syuell va Pol Braun “Bir umirlik mijozlar”kitobi 205-bet. Zukko kitobxon nashriyoti Toshkent-2021
[7] Karl Syuell va Pol Braun “Bir umirlik mijozlar”kitobi 206-bet. Zukko kitobxon nashriyoti Toshkent-2021

shakillantiradi. Biz o`zimiz uchun chindan muhum bo`lgan narsani namoyish qilamiz. Bu kiyimimizning shakli bo`ladimi,ishlatayotgan qog`ozimizning sifati bo`ladimi yokiy nutqimiz uslubimi-aynan shuning uchun ham detallar axamiyatga ega.[8]

-Tatqiqot o`tkazuvchi kompaniyalarning turi OAVning reytinglari haqidagi hisobatlari bilan tanishish vaqt yoping. Reklama agentlaringiz nima deyishgani bilan bu oliy matematika emas.[9]

Mijoz portreti. Ushbu jadvalni mijozlarigizdan kelib chiqib, to`ldiring! Ushbu mashqni bajarmay turib, biznes boshlashni hayolingizga ham keltirmang![10]

Mijozim nimani xohlayabdi?	Mijozim nimani xohlamaydi ?	Mijozimni nima ikkilantiradi?	Mijozimni qanday qorquvlari bor?	Mijozimni nima ranjitadi ?
1.	**1.**	**1.**	**1.**	**1.**
2.	**2.**	**2.**	**2.**	**2.**
3.	**3.**	**3.**	**3.**	**3.**
4.	**4.**	**4.**	**4.**	**4.**
5.	**5.**	**5.**	**5.**	**5.**
6.	**6.**	**6.**	**6.**	**6.**
7.	**7.**	**7.**	**7.**	**7.**

Mijozni jalb qilish. Buning uchun sizda mijozlar portreti bor. Mijozigiz xohish va qiziqishiga qarab reklama tuzishigiz kerak. Siz oddiy reklama emas, samarali natija beradigan reklama tuzishingiz kerak. Sizni reklamada yozilgan taklifingiz, mijozni o`ziga jalb qilsin, fikrlariga, munosabatiga, qaror qabul qilishiga ta’sir qilsin.[11]

Mijozlar uch guruhga bo`linadi:

1. Minnatdor – mijozlaringiz hammaga va har doim tavsiya qiladi.
2. Neytral – mijozlar faqat so`rasagina tavsiya qiladi.
3. Tanqid qiluvchi – mijozlar tanqid qiladi, etiroz bildiradi va hech kimga tavsiya qilmaydi.[12]

Doimiy mijozlar uchun dasturlar ularning biz uchun qanchalik muhim ekanliklarini ko`rsatib beradi. Bunday yondashuvdan foydalanganda, siz oddiy “raxmat” aytgandan ko`ra (ba’zida beixtiyor tarzda) ko`proq narsani bajargan bo`lasiz. Siz o`zingiz bilan ish ko`rayotgan mijozga mukofat bergandek bo`lasiz.[13]

[8] Karl Syuell va Pol Braun “Bir umirlik mijozlar”kitobi 206-bet. Zukko kitobxon nashriyoti Toshkent-2021
[9] Karl Syuell va Pol Braun “Bir umirlik mijozlar”kitobi 206-bet. Zukko kitobxon nashriyoti Toshkent-2021
[10] Shuhrat Suyundiqov “Biznesda intuitsya” kitobi 46-bet. Zamin nashr nashriyoti Toshkent-2021
[11] Shuhrat Suyundiqov “Biznesda intuitsya” kitobi 48-bet. Zamin nashr nashriyoti Toshkent-2021
[12] Shuhrat Suyundiqov “Biznesda intuitsya” kitobi 61-bet. Zamin nashr nashriyoti Toshkent-2021
[13] Karl Syuell va Pol Braun “Bir umirlik mijozlar” kitobi 103-bet. Zukko kitobxon nashriyoti Toshkent-2021

Doimiy mijozlar uchun dasturlar kampaniya o`zining mijozlari uchun qanchalik e'tibor qilishini takidlaydi. Xar bir biznes shunday turdagi dasturga ega bo'lishi kerak: bu narsa mijozlarning sizga nisbatan iliq munosabatini yaratish usullaridan biridir. Mijozlarga ajoyib xizmat ko`rsatishning butun g`oyasi odamlar sizga qayta-qayta murojat qilishlaridir.

Agar biz mijozni yana qayta bizga murojat qilishga majbur qila olsak, mana nimalar sodir bo`ladi.

Birinchidan, bizning savdomizning hajmi o`sib boradi. Mijozlar bizdan ko`proq narsa sotib oladilar.

Ikkinchidan, biz bozordagi o`rnimizni mustaxkamlab olamiz. Agar mijozlar bizdan sotib olishadigan bo`lsa, ular raqiblarimizga borishmaydi.

Uchinchidan, biz marketingga ketadigan xarajatlarimizni kamaytiramiz. Mijozni qaytadan jalb qilish uchun ko`p pul sarf qilamiz shart emas: u endi bizning mijoz. Buning ustiga bizda xursand mijozlar biz bilan ish ko`rish yaxshi ekanligi haqida o`z do`stlariga, yaqinlariga gapirib berishadi. Shuni bilingki, do`stining tavsiyasidan ham ko`ra ta'sirliroq reklama yo`q.

To`rtinchidan, bu narsa bizni narxdagi raqobatdan ozod qiladi: chuki bizga sodiq bo`lgan mijoz bir necha dollarlik pastroq narx uchun boshqa joyga borib o`tirmasa kerak.

Va nixoyat, bizdan xursand mijoz bizning boshqa maxsulotlarimiz va xizmatlarimizni ham sinab ko`rishni xohlab qoladi – chunki ilgari biz uning uchun yaxshi ish qilib berganmiz.[14]

Muammoli mijozlar bilan ishlash bo`yicha 3 maslahat:

1. Muammoli mijozlar va muammoga duch kelgan mijozlarnio ajratib oling.

Aksariyat mijozlar oddiy mijozlardir. Ular ataylab asabiylashmaydilar. Shunchaki biron sababga ko`ra siz ularni umidlarini oqlamadingiz yoki ayni paytda ular qiyin vaziyatni boshdan kechirmoqdalar.

2. Tog`ri taxminlarni shakillantirishga yordam bering.

Mijoz "Bugun tayyor bo`ladi deb oyladim", deb aytishini kutmang. Boshidanoq, ish jaroyoni qanday tuzilganligini, mijoz sizdan nimani va qaysi vaqtda kutishishi mumkinligini aniq tushuntirib bering. Agar unda qo`shimcha savollar bo`lsa, siz bilan qanday bog`lanishini tushuntiring.

3. Agar mijoz qiyin vaziyatda bo`lsa, qo`shimcha harakat qiling.

Siz hamma narsani to`g`ri bajarganingizda ham mijoz sizdan norozi bo`lishi mumkin. Va bu vaziyatda size mas, balki mijozning qiyin hayotiy hayoti sababdir. Bunday holda siz odatda ayibni o`ziga yuklashni va boshqa hech narsa qilmaslikni

[14] Karl Syuell va Pol Braun "Bir umirlik mijozlar" kitobi 102-bet. Zukko kitobxon nashriyoti Toshkent-2021

ishtaysiz. Ammo mijozni xursand bo`lishi uchun nima qilish kerakligini o`ylab ko`rish lozim.[15]

Xulosa

Agarda mijozlaringiz sizni kampaniyangizdan ya’ni siz bilan hamkorlikni to`xtatmoqchi bo`lsa uning sabablarini biling, chuki bu sizni kampaniyangizni qolgan mijozlarini ham siz bilan hamkorlikni to`xtatib qo`yishiga olib kelishi mumkin. Sizni tizimingizda, dasturingizda yoki hodimlaringizda, maxsulotingizda kamchilikingiz bo`lishi mumkin, buni darhol yechimini hal qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karl Syuell va Pol Braun “Bir umirlik mijozlar” kitobi “ZUKKO KITOBXON” nashryoti. 2021 yil. – 224 b.
2. Shuhrat Suyundiqov “Biznesda intuitsiya yoxud tadbirkorlikning oltin kaliti” kitobi “ZAMIN NASHR” nashryoti. 2021 yil. – 318 b.
3. Maksim Batirev “sotuvchining 45 qoidasi” kitobi “ZUKKO KITOBXON” nashryoti. 2021 yil. – 336 b.
4. https://m.facebook.com/BiznesRivoj/photos/qiyin-mijozlar-bilan-ishlash-boyicha-3-maslahat1-muammoli-mijozlar-va-muammoga-d/487045302651205

[15] https://m.facebook.com/BiznesRivoj/photos/qiyin-mijozlar-bilan-ishlash-boyicha-3-maslahat1-muammoli-mijozlar-va-muammoga-d/487045302651205/

THE HEALING POWER OF MUSIC

Marufjon Yuldoshev
Head of the Department of Scientific Research, Innovation and Training of Scientific and Pedagogical Personnel, Doctor of Philology,
Professor of the SIAM of Uzbekistan
marufcany@gmail.com
Mashrab Muhammadiev
Student of the SIAM of Uzbekistan
mashrabmuhammad@gmail.com

Annotation: Determine psychogenic factors in growing illness facilitate to define necessary psychotherapy conditions. In consequence of alternative medicine a lot of countries do various scientific-practical researches. Nowadays, music therapy is a significant field of widening alternative medicine. International music therapy Institutions as WFMT, EMTC and CLAM all over the world expose methodological approaches to scientific works. They have tried to express people's problems, happiness, heroic actions, surprises and love through music. Music hypnotizes people and directs them to a certain purpose. Especially, in many cultures music was utilized to strengthen religious feelings and to treat different diseases. To treat with a help of music is an ancient style. In Chinese manuscript system hieroglyph which expresses music conception means happiness, joy and life. Moreover, specialists emphasize that in antique Indian and Greek phycology schools education and medicine was based on music. If we look through information related to music therapy, we will be sure that attention of human body to music or to rhyme diverse from his attention to another sounds. In Cosmology is mentioned that the Universe and the Earth is put into place with the help of music. Our ancestors placed the music to each part of their life because they had realized significance of music for since. Everybody knows the song and specific music sound Alla (lullaby) in Turkish (Nini) which is sung by mothers assists children to sleep calm. During the death or in accidents which finish with death or loss people repeat elegies loudly with a cry and shout. In the sources are emphasized in treating psychological patients smooth and reflective-resonance music has a strong influence. The present article highlights music therapy history, methods of using music maqoms of Uzbek and East people, music genres which were utilized in treating diseases and music therapy terminology.

Key words: music therapy, reflective-resonance theory, vibrio acoustics.

Speaking about the musical culture of the Uzbek people, its very long history is mentioned and recognized. In the course of historical development, such performing

forms, close to each other in form and style, as classical folk music, traditional professional music, folk compositional methods, as well as folklore and amateur musical heritage, complemented each other. This musical heritage of ours still manifests itself today as part of our spiritual culture. [Mannopov, 2004, 11] “Music, which has developed as an integral part of the way of life of people who lived in antiquity, by the IX-XII centuries reached a new stage in its development. During this period of high development of science, musical performance, creativity and musical science developed rapidly, and great representatives of this area appeared among the local population. For a complete understanding and comprehensive analysis of the classical musical heritage and works of composers of this period, it is necessary to study them consistently in a specific system of preparatory education. The role of music in human life, its influence on the psyche, the laws of the historical, theoretical and aesthetic art of music were developed by scientists. It should also be noted that initially, in the works of Farabi and Ibn Sina, music was considered a complex science and was described as part of the mathematical sciences. By this time, the study of philosophical, theoretical, historical and practical problems of music was started by Central Asian scholars in their special musical treatises”. [Tursunov. 2022, - p.76] Abu Nasr al-Farabi (873-950), the great encyclopedist of the X century and the great founder of the science of musicology, based on his works in the field of music, European scientists also created a number of works. In his work “A Word about Music”, the scientist talks about the theoretical foundations of music, its study and meaning. Another scholar-encyclopedist Abu Ali Ibn Sina (980-1037) also wrote a treatise on music and wrote about its influence on the human psyche.

According to ancient teachings, a healthy life depends on the regular harmony of the body and mind, that is, on the regular harmony of the soul with nature. This kind of harmony seems to be an echo of divine music. In addition, it is recognized that music, which is a reflection of the laws of divine harmony in earthly tones, can alleviate human suffering, heal and create the possibility of healing. [Goldman, 2003; Shabutin, 2006, 27.] In ancient Greece and Rome, music was considered divine and meant to keep the body and soul healthy. [Dyurst-Mad-doc O., 2000, 56.]

In the XVII - XVIII centuries in Europe, scientific ideas about the use of music for medicinal purposes (“yatromusic”) were on the agenda. The author of this theory was the scientist-encyclopedist Athanasius Kircher. This theory is based on the influence of music on the physical and chemical processes in the body, aspects that help in treatment. In one of his works (“Fonurgiya nova”, 1673), the thinker discusses *musica mundana* and *musica humana*: he tries to prove that *musica mundana* creates the harmony of the heavenly bodies, and *musica humana* calls for the harmony of the human soul and body. The scientist considers the therapeutic effect of music as a mental reaction. In his opinion, music removes unnecessary concepts, worries, sorrows

and fears recorded in the consciousness and subconscious of a person. That is, it causes physiological reactions of sanogenesis, similar to the process of catharsis. In the XIX century, scientists investigated the physiological effects of music using the scientific method and found that it affects heart rate, respiration, and blood pressure. At the end of the XIX century, it became customary in Great Britain to use music as a healing technology.

By the XX century: Music therapy had become a professional specialty in the US, Europe and Russia. [Shushardjan, 2005a]. The first training course in this regard was developed by Joseph Alvin, founder of the British Music Therapy Association. Mark Priestley developed the Analytical Music Therapy system, which combines the methods of music therapy with individual psychotherapeutic treatment. The practical method of music therapy, presented by N. Nordoff and Clive Robbins, was based on achieving maximum socialization of disabled children.

Существуют разнообразные классификации глаголов, учитывающие как семантические, так и семантико-грамматические особенности глаголов. Наиболее известной является классификация Ф. Данеша. Стилистические функции глаголов речи в структуре разговорной речи выявляются Г.В. Кочетковой (1978), анализ глаголов говорения на материале художественной речи А. Платонова в функциональном аспекте осуществляется В.Г. Бабенко (1981). В названных работах наряду с исследованием глаголов в прагматическом плане проводится семантическая классификация, содержится большой фактический языковой материал.

Анализу глаголов речи в историческом плане посвящаются работы Ф.Ф. Филина, А.И. Молоткова, В.И. Кодухова, В.Л. Бахтиной, И.П. Бондарь, З.М. Петеновой и других, в которых показано, как с течением времени изменяются и пополняется глаголы речи в русском языке. В.И. Кодухов свидетельствует о незначительном расширении групп глаголов говорения с XI по XVII век. В XVII-XVIII вв. в русском литературном языке количество глаголов говорения, вводящих прямую речь, не превышало двух десятков.

Наблюдения В.Г. Краснова показывают, что в XIX в. происходит увеличение группы глаголов, вводящих прямую речь, но в первой половине XIX века это увеличение незначительно, например, у А.С. Пушкина в «Капитанской дочке» всего 22 глагола.

Некоторые аспекты парадигматических семантических отношений глаголов речи в общем, соотношении с глаголами звучания узбекского языка рассматриваются в диссертационной работе Х.С. Мухиддиновой (1979).

Из зарубежных исследователей изучению семантики глаголов речи в парадигматическом (в основном) и синтагматическом аспектах посвящены работы А. Вежбицкой [Wlejbicka 1972] в польском языке, Ч. Филлмора (1972) (1972), Дж. Макколи [Maocowlay J, 1977] в английском языке. Определенная часть глаголов речи используется Дж. Лайонзом (1978) как лексический материал для иллюстрации возможности и методов семантического анализа лексических единиц.

Лексическая система в современном языкознании определяется как совокупность слов, связанных внутренними отношениями в целом, проявляющимися в парадигматических и синтагматических аспектах. Выделяемые в современной лексикологии парадигматические и синтагматические отношения являются основой изучения структурной организации лексической системы и направлены на раскрытие внутренней организации семантики слова и многоаспектности его проявления с другими компонентами.

Семантическая взаимосвязь и взаимообусловленность элементов лексической системы предопределяет свойство слов объединяться в различные группы с различными смысловыми связями. Выделение определенных лексико-семантических объединений основывается на восприятии группы слов как систем определенным образом упорядоченного множества и как лексико-семантических классов множества, обладающего общими признаками. Исходя из этого, объектом изучения семантических объединений становятся отношения между элементами системы или признаки, структурно организующие данную систему.

Изучение семантических объединений слов в двух проведенных подходах (как систему определенным образом упорядоченного множества и как классы, проявляющие признаки, конституирующие систему), позволяет выделить различные семантически взаимосвязанные типы слов: семантические классы, группы, лексико-семантические группы и др. Несмотря на терминологические различия, их выделение базируется на том, что все они имеют в своей основе ту или иную семантическую категорию или категориальную ситуацию [Васильев, 1970. 126]. Анализ внутрисистемных отношений и семантических взаимосвязей лексики позволил выяснить те семантические противопоставления, которые существуют между различными словами. Именно противопоставление значений различных слов делает возможным выделение существенных семантических признаков, которыми определяется данное значение слова [Шмелев, Лексика, 14]. Выявление оппозиций и существенных семантических признаков, организующих слова в систему, стало основой анализа внутрисистемных отношений.

Языкознание XIX-XX вв. большое внимание уделяло установлению содержания слов и связанному с ним лексическому значению слова. Развивались различные направления изучения содержательной структуры слова и определения лексического значения [Степанов 1975; Степанова 1968]. В то же время существенное влияние на разработку современным семантических теорий и направлений внесло учение Ф. де Соссюра о значимости, в соответствии с которым значение в современных теориях поля определяется как отношение или как совокупность отношений знака к другим знакам [Л. Ельмелов, И. Трир, Дж. Катц, Л. Вайсгербер, Л. Блумфилд, Ч. Морри, Ст. Ульман и др.]. При этом значение истолковывается как отношение языкового знака к предмету “декотативное значение”, понятию “сигнификативное значение”, условиям акта речи и его участникам “прагматическое значение”, сфере или ситуации его употребления “стилистическое значение”, другим языковым знакам “структурное значение”. Существенный вклад в разработку проблем семасиологии внес В.В. Виноградов, установивший основные аспекты изучения

смысловой структуры слова и предложивший оригинальную типологию лексических значений (Виноградов, 1977), оказавших существенное влияние на развитие и становление лексикологии русского и других языков. Лексический аспект семантики становится объектом изучения в работах Д.Н. Шмелева, Ю.Н. Караулова, В.Г. Гака, А.А. Уфимцевой, Ю.Д. Апресяна, Л.Н. Новикова. Широко известны работы Ф.П. Филина, Р.А. Будагова, С.Д. Кацнельсона, В.А. Звегинцева, А.И. Смирницкого, Л.М. Васильева, Г.О. Винокура, Г.В. Колшанского, М.В. Никитина, Ю.С. Степанова, И.Л. Стернина, Н.И. Толстого и др. в изучении проблем семантического анализа лексического значения слов. Нет необходимости останавливаться на анализе разнообразных подходов к решению основных проблем семантики, получивших достаточное освещение в лингвистической литературе. Поэтому кратко остановимся на раскрытии тех основных понятий, которые важны с точки зрения раскрытия темы данного исследования.

Следует отметить, что для обозначения лексического значения слова в лингвистической литературе используются различные термины: значение (В.В. Виноградов, Л.А. Новиков, Д.Н. Шмелев, К.А. Левковская, Л.М. Васильев и др.), параметр лексической структуры (В.А. Гак), элемент значения (А.А. Уфимцева, Н.Г. Комлев, И.Л. Стернин), компонент значения (Л.М. Васильев, Е.Г. Белявская и др.) и т.п. Лексическое значение слова – это содержание слова, отображающее в сознании и закрепляющее в нем представление о предмете, свойстве, процессе, явлении и т.д. дается подобное толкование в лингвистическом энциклопедическом словаре (ЛЭС).

В лингвистической литературе установлено, что лексическое значение слова включает: 1) указание на обозначаемый предмет, явление, процесс или признак; 2) указание на отношение к обозначаемому со стороны говорящего; 3) указание на общий тип коммуникативных ситуаций, в которых может использоваться данное наименование (Беляевская, 1987, 44) и соответственно включает: 1) вещественное содержание; 2) коннотативный аспект; 3) прагматический аспект. Каждый аспект лексического значения входит в его состав как компонент лексического значения.

Вопрос о типах лексических значений слов впервые был поставлен В.В. Виноградовым, учитывавшим основные аспекты семантической вариантности слова и представившим слова как систему взаимосвязанных и взаимообусловленных вариантов (Виноградов, 1977). Им же впервые вводится понятие смысловой структуры слова как множества и единства его лексических значений, в дальнейшем в лексикологии получивших название лексико-семантических вариантов. Лексико-семантический вариант В.В. Виноградов определял как разные лексические значения слова, рассматриваемые как

лексико-фразеологическая форма слова, т.е. «форма, реализующая одно из лексических значений слова и связанная со строго определенными Фразеологическими контекстами» (Виноградов, 1947, 42). Системная взаимосвязь лексико-семантических вариантов одного и того же слова в пределах тождества организует семантическую (смысловую, по В.В. Виноградову) структуру слова. При этом тождество лексико-семантических вариантов в семантической структуре слова, по определению В.В. Виногродова, «организуется, прежде всего, его лексико-семантическим стержнем» (там же, 34), в дальнейшем в лингвистической литературе получившим названия *общее значение, семантический стержень, семантическое ядро, семантический центр,* использовавшиеся в различных пониманиях. Так, тождества всех лексико-семантических вариантов в глаголе **кричать** шесть: 1) издавать крик; 2) громко говорить; 3) звать громким голосам; 4) громко, резко говорить, браня, выговаривая и т.п. достигается наличием общего признака-характеристики процесса речи с точки зрения интенсивности проявления голоса или чувства, а в целом качественной характеристики процесса речи.

В зависимости от способа определения элементарной составляющей семантической структуры слова, выделяются два основных направления понятия смысловой структуры слова: 1) семантическая структура слова определяется как единство лексико-семантических вариантов, при котором в качестве основной единицы выступает лексико-семантический вариант, соотносимый с отдельным значением многозначного слова; 2) семантическая структура слова понимается как набор элементарных смыслов или смысловых признаков, выделяемых в процессе расчленения содержательной стороны языковой единицы. При этом единицей семантической структуры слова выступают семы – минимальные компоненты значения, как однозначного слова, так и отдельного лексико-семантического варианта многозначного слова. Второе направление в современных семантических исследованиях практическое воплощение получило в методиках оппозитивного и компонентного анализа семантической структуры слова, в целом составляющих основные аспекты семантического анализа методом поля.

Оппозитивный метод, перенесенный в семантические исследования из фонологии, является наиболее разработанным и эффективным методом анализа внутрисистемных отношений в лексике. Сущность оппозитивного метода заключается в том, что он выявляет отношения лексических единиц друг к другу в пределах определенных лексических групп на основе общности для их основания и различия. Общим основанием в оппозитивных отношениях между лексическими единицами служит свойство, объединяющее их по какому-либо признаку, сближающее их по выражению. Существует достаточная литература о

современных методах семантических исследований (Апресян Ю.Д., 1963; Аспекты..., 1980; Медникова Э.М., 1974; Васильев Л.М., 1990; Принципы и методы..., 1978; Степанов Ю.С. 1975; Степанова М.Д., 1968; Арнольд И.В., 1966; Белявская Е.Г.,1987 и др.). Сравните: говорить-тараторить-мямлить-ругать; общим является говорить, осуществлять речь; различия заключаются в признаках их семантической структуры, которыми они отличаются: говорить - тараторить, к примеру, противопоставлены по семантическому признаку «быстро», характерному для глагола тараторить, по признаку «невнятно» - для глагольной пары говорить - мямлить, противопоставление по признаку «агрессивности» - для глаголов говорить - ругать.

Методика компонентного анализа ставит своей целью расчленение содержательной стороны языковой единицы на составляющие ее компоненты и представление значения в виде наборов элементарным смыслов или смысловым признаков (Гулыга Е.В., Шенделъс Е.И., 1976, Завахина, 1979). Минимальные смысловые компоненты, или семы, выделяются в содержательной стороне слова или отдельного его лексико-семантического варианта как иерархически упорядоченная структура. Минимальный семантический компонент является единицей отражения семантической структуры, как слова, так и отдельно взятого ЛЕВ многозначного слова. Компонентный анализ представляет содержательную сторону на уровне минимальных компонентов значения (Кузнецов, 1986).

Денотативная соотнесенность значений слова, отражение и наименование действий предметов реальной действительности являются одним из основных свойств реализации словом существенных особенностей предметов и явлений действительности. Эти особенности познаются через сравнение и сопоставление лексических единиц, соотношение с другими подобными посредством выявления отличия и совпадения, определение места каждого слова среди других. Оно соотносится своей связью с другими общностью определенных признаков и отличается от них отражением свойственных только ему существенных, особенностей. Специфика соотношения лексических единиц с действиями предметов реальной действительности, как отражение и наименование существенных признаков их реалий, а также особенности формирования связей данного слова с другими в лексической системе составляют семантическую структуру лексической единицы в виде определенных семантических компонентов. Исходя из этого, каждая лексическая единица в языке потенциально обладает универсальным набором компонентов значения. Целью компонентного анализа является определение компонентов смысловой структуры слова, разложение ее на минимальные семантические составляющие и в конечном итоге сопоставление и соотношение с семантической структурой соотнесенных по семантике слов разных языков.

Метод компонентного анализа имеет свои недостатки, которые связаны с направленностью на выделение сущностных характеристик объектов реальной действительности, средством номинации которых является то или иное слово. В таком виде компонентный анализ носит экстралингвистический характер и в целом применяется в изучении закрытых лексических систем, с другой стороны, как отмечает Гинзбург, он ограничивается констанцией факта наличия или отсутствия соответствующих семантических компонентов в обозначаемых словами денотатах.

Список использованной литературы

1. Арутюнова Н.Д. К проблеме функциональных типов лексического значения //Аспекты семантических исследований. – М., 1980

2. Булагина Т.В. К построению типологии предикатов в современном русском языке//Семантические типы предикатов, – М., 1982.

3. Васильев Л.М. Опыт структурно-сопоставительного анализа лексики современных славянских языков//Славянский Филологический сборник. Посвящ. V Междунар. съезду славистов. – Уфа, 1962.

4. Гайсина Р.М. Лексико-семантическое поле глаголов отношения в современном русском языке. – Саратов, 1981.

5. Сильницкий Г.Г. Семантические классы глаголов и их роль в типологической семасиологии //Структурно-типологическое описание современных германских языков. М.: Наука, 1966.

6. Степанова М.Д. Методы синхронного анализа лексики. – М., 1968.

7. Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. 3-е изд. – М., 1986.

8. Апресян Ю.Д. Современные методы изучения знаний и некоторые проблемы структурной лингвистики / Проблемы структурной лингвистики. – М., 1963.

KORXONALARDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

J.M.Djalalov
Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
«Menejment va marketing» kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Sun'iy intellekt va undan foydalanish usullarining o‘ziga xos jihatlari o’rganilib O`zbekistonda sun'iy intellektning rivojlantirish istiqbollari haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: sun'iy intellekt, jarayonlarni robotlashtirilish, avtomatlashtirish, dasturiy ta’minot ilovasi, inson resurslarining robototexnikasi, sun'iy intellekt texnologiyasi.

Sun'iy intellektdan foydalanish odamni monoton ishlardan ozod qilish, xavfli ish turlarini avtomatlashtirish, qaror qabul qilishni qo’llab-quvvatlash va odamlar o’rtasidagi aloqani saqlash uchun amalga oshirilishi mumkin. Sun'iy intellekt sohasida jahon yetakchilari qatoriga Amerika kompaniyalari kiradi: Microsoft (dasturiy ta'minotni ishlab chiqish), Google (Internet xizmatlarini ishlab chiqish), Facebook, Automation Anywhere (biznes jarayonlarini avtomatlashtiradigan platformalar), IBM (apparat va dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, IT - xizmatlar; Xitoy kompaniyalari: Baidu (qidiruv tizimlari), DJI-Innovations(dronlar), Sensetime va Megvii (yuzni tanish), iFlytek (aqlli tarjimonlar). Bugungi kunda Rossiya kompaniyalari ichida yetakchi o’rinlarda «Яндекс», «Сбер», Mail.ru Group, «Айкумен» (katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash), «Лаборатория Касперского», ЦРТ (распознавание речи), Cognitive Technologies (uchuvchisiz transport vositalari uchun dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchisi) va hokazo.

“Sun'iy intellekt" atamasi 1956 yilda paydo bo'lgan, ammo bugungi kunda SI texnologiyasi ma'lumotlar hajmini ko'paytirish, algoritmlarni takomillashtirish, hisoblash quvvatini va ma'lumotlarni saqlash vositalarini optimallashtirish fonida haqiqiy mashhurlikka erishdi. 60-yillarda bu sohada AQSh Mudofaa vazirligi qiziqish uyg'otdi: AQSh harbiylari insonning aqliy faoliyatini simulyatsiya qilish uchun kompyuterlarni o'qitishni boshladi. 2003-yilda aqlli shaxsiy yordamchilarni yaratishga muvaffaq bo'lishdi.

Jarayonlarni robotlashtirilish yo‘li bilan avtomatlashtirish – bu robot sun’iy intellect mahsuli bo’lib (dasturiy ta’minot ilovasi) asosan og’ir ishlarni bajaradigan sun’iy intellekt yordamida raqamlashtirilgan dastgoh hisoblanib, u shishani quyish, yo’nish hamda sovutish amallarini dasturiy kiritilgan buyruq yordamida o’zi bajaradi.

Sun’iy intellektning ushbu intizomi takrorlanadigan va qoidalarga asoslangan qisman yoki to‘liq qo‘lda bajariladigan operatsiyalarni avtomatlashtirishga yordam beradi.

Ilova xavfsizligini va xizmat ko'rsatishni takomillashtirish:

Sun'iy intellekt biznesga asosan transport va ishlab chiqarish sohalarida texnik xizmat ko'rsatish jadvallarini yaxshilashga yordam beradi. Masalan, zarafshanglass shisha zavodi ushbu sun'iy intellekt tizimidan foydalanadi va texnik tekshirishni o'tkazish uchun sun'iy intellekt texnologiyasi hisoblanadi. Shisha ishlab chiqarish sanoatidagi mexanik qismlarning eskirganligini sun'iy intellekt dasturlari yordamida aniqlash mumkin. Ushbu ilovalar sizga optimallashtirishni yaxshilash uchun texnik xizmat jadvallarini tuzishda yordam beradi. Oxir oqibat, bu ma'lumotni yetkazib berish va tahlil qilish natijasida qidiruvdagi kechikishning oldini oladi.

Mahsulotlarni ommaviy ravishda tashish kerak bo'lgan ko'plab korxonalar mavjud. Bunday korxonalardan yana biri bu ushbu shisha ishlab chiqarish zavodi hisoblanib, u sun'iy intellekt tizimlariga bog'liq. Sun'iy intellekt tizimlari transportda ham muhim ahamiyatga ega, chunki sun'iy intellekt harajatlarni pasaytirishga yordam beradi, shishalarning sinish xavfini pasaytirgan holatda u ularni bir joydan ikkinchi joyga ko’chiradi va odamlar boshqaradigan transport vositalaridan ko'ra ishonchli ekanligini isbotlaydi. Sun'iy intellekt tizimlari yordamida transport xarajatlari ham tejalishi mumkin.

Korxonalarda sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari hamda kamchiliklari:

- robototexnikadan foydalanishning afzalliklari haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, birinchi navbatda mahsuldorlik haqida gapirib o‘tish lozim. Robototexnikasi mavjud bo‘lgan kompaniya, shubhasiz bitta ustunlikka ega bo‘ladi – uning sexlari uzluksiz holatda ko‘p soatlar davomida ishlay oladi. Ishlab chiqarishning avtomatlashtirilishi to‘g‘ri tashkil qilingan holda har oyda ishlab chiqariladigan mahsulotning miqdori anchagina ko‘payadi. Bundan tashqari, inson resurslarining robototexnika bilan almashtirilishi ish haqiga to‘lanadigan mablag‘larning sarflanishini kamaytiradi. Barcha jarayonlarni amalga oshirish uchun, barcha tizimlarni nazorat qila oladigan bir nafar operatorning o‘zi kifoya bo‘ladi. Yana shuni e’tirof etish kerak-ki, ba’zi ishlab chiqarish sohalaridagi ish sharoiti inson sog’lig’i uchun juda ham zararli, aynan shunday joylarda robototexnika asqotadi. Bu yerda payvandlash ishlari, po‘lat quyish sanoatidagi ishlar, materiallarni bo‘yash va hokozolar nazarda tutilmoqda.

Sexda joylashtirilgan robot o‘z ish hududiga ega bo‘ladi, bu hudud shunday jihozlangan bo‘ladiki, unga odam kira olmaydi. Sun’iy intellektga ega bo‘lgan robotlar esa ish hududini qisqartirishga imkon yaratadi.

Ushbu modernizatsiyada qanday kamchiliklar mavjud?

Uskunalarning juda qimmatligi ishlab chiqarishni robotlashtirishdagi eng katta nuqsonlaridan hisoblanadi. Masalan, bitta dastgohni almashtirish 5 mln so‘mdan 50

mln so‘mgacha mablag‘ni talab qiladi, bu jarayon puxta moliyaviy tayyorgarlikni talab etadi. Agar uskuna buzilsa yo ishdan chiqib qolsa, ta’mirlashga shoshilinch tarzda pul qidirish zarur bo‘lib qoladi, bu unchalik ham qulay emas. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashda ko‘p hollarda uchraydigan yana bir katta kamchilik bu – xodimlar sonining qisqartirilishi. Robotlar quyi malakali ishlarni bajarishga mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu pog‘onada mehnat resurslarini almashtirishlari zarur, biroq korxonalar doimo o‘z xodimlariga ishsiz qolish evaziga yangi lavozim taklif etishga qodir emaslar va albatta bu muammo va kamchilik bo’lib qolaveradi.

Butunjahon Iqtisodiyot jamg‘armasi mutaxassislarining fikricha, robotlar yaqin ikki-uch yil ichida yer yuzidagi 5 mln kishini o‘z ish joylaridan siqib chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda: Sun'iy intellekt va texnologiyalar hayotning bir tomoni bo'lib, bizni doimo yangi g'oyalar, mavzular, yangiliklar, mahsulotlar va boshqalar bilan qiziqtiradi, hayratga soladi. Oxir-oqibat, biz ushbu izlanishlarni sun'iy intellekt ta'riflari, qisqacha tarixi, sun'iy intellektning ommaviy joylarda qo'llanilishi, harbiy sohada sun'iy intellektning qo'llanilishi, sun'iy intellekt etikasi va robototexnikaning uchta qoidalari doimiy o’rganishdan to’xtamaymiz. Bu sun'iy intellektning oxiri emas, bundan ko'p narsa kutilmoqda, kim kelajakda sun'iy intellekt biz uchun nima qilishi mumkinligini biladi, ehtimol bu butun robotlar jamiyati bo'lishi mumkin. Sun’iy intellektning ob’yektiv va kelajakdagi maqsadlari insonning barcha murakkab faoliyatini avtomatlashtirish orqali xatolar va noto‘g‘ri qarashlarni bartaraf etishdan iborat.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Thomas Davenport, Jeff Loucks, and David Schatsky, “Bullish on the Business Value of Cognitive” (Deloitte, 2017), p. 3 (www2.deloitte.com/us/en/pages/deloitte-analytics/articles/cognitive-technologyadoption-survey.html).

2. Luke Dormehl, Thinking Machines: The Quest for Artificial Intelligence—and Where It’s Taking Us Next (New York: Penguin–TarcherPerigee, 2017).

3. Shubhendu and Vijay, “Applicability of Artificial Intelligence in Different Fields of Life.”

4. Andrew McAfee and Erik Brynjolfsson, Machine Platform Crowd: Harnessing Our Digital Future (New York: Norton, 2017).

5. Portions of this paper draw on Darrell M. West, The Future of Work: Robots, SI, and Automation, Brookings Institution Press, 2018.

6. PriceWaterhouseCoopers, “Sizing the Prize: What’s the Real Value of SI for Your Business and How Can You Capitalise?” 2017.

7. Dominic Barton, Jonathan Woetzel, Jeongmin Seong, and Qinzheng Tian, “Artificial Intelligence: Implications for China” (New York: McKinsey Global Institute, April 2017), p. 1.

8. Nathaniel Popper, “Stocks and Bots,” New York Times Magazine, February 28, 2016.

SPORT KONTRAKTLARIDA NEUSTOYKANING QO‘LLANILISHI

Hakimov Sunnat Furqat o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura bosqichi talabasi
sunnat98hakimov@gmail.com
Tel:+998944247667

Annotatsiya: Mazkur maqolada sport kontraktlarida majburiyatlarni bajarilishini ta’minlash bandini kiritishning muhimligi, neustoykaning shartnoma taraflarining o‘z zimmalariga olgan burchini lozim darajada bajarishga undashi, neustoykaning jarima hamda penya shakllari va ularning sport kontraktlarida tutgan o‘rni yoritiladi. Bundan tashqari neustoykaning hisobga o‘tkaziladigan neustoyka, jarimali neustoyka, alohida neustoyka va muqobil neustoyka kabi turlarining o‘zaro farqi hamda qo‘llanilish amaliyoti tadqiq etiladi. Zararni qoplash hamda voz kechish haqi singari majburiyat bajarilishidan ozod qiluvchi vositalarning sport kontraktida qo‘llanilishi tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: majburiyatlar bajarilishini ta’minlash, neustoyka, jarima, penya, hisobga o‘tkaziladigan neustoyka, jarimali neustoyka, alohida neustoyka, muqobil neustoyka, voz kechish haqi.

Bir qator fuqarolik olimlari neustoykaning ham pul ko‘rinishida ham tovar ko‘rinishida bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydilar. Sport kontraktlarida neustoyka asosan pul ko‘rinishida mavjud bo‘ladi. Taraflar sport kontraktining istalgan turini tuzganda asosan uning majburiyatni bajarishni ta’minlash turi sifatida neustoykaning muayyan summasini yoki uning foizlarini ko‘rsatadilar. Umuman ushbu holatda taraflarda aniq bir belgilangan majburiyatni bajarmaslikning keltiradigan zarari qanchaga tushishi haqida tasavvurdan kelib chiqib neustoyka belgilanadi.

Sport kontraktlarida shartnomada belgilangan majburiyat buzilmagunga qadar neustoyka majburiyat bajarilishini ta’minlash usuli sifatida amalda qo‘llaniladi. Sport kontraktlarining tomonlaridan biri o‘z majburiyatini bajarmasligi javobgarlik chorasi sifatida neustoyka bandini faollashtiradi. “Birinchi darajali majburiyatning to‘la darajada ado etilmasligi mulkiy javobgarlik sifatida ikkinchi darajali neustoykani qo‘llashga asos bo‘ladi”. Yuqorida keltirilganidek, neustoyka o‘zida ta’minlovchi hamda javobgarlik chorasi kabi vazifalarni jamlagan. Neustoykaning ta’minlovchi xususiyati sport kontraktining bir tarafini o‘z majburiyatini bajarishga majbur qiladi. Neustoykaning javobgarlik chorasi tomonlardan biriga o‘z majburiyatini bajarmagaligi uchun shartnomada yoki qonunchilik hujjatlarida belgilangan jazo chorasini qo‘llanilishini anglatadi. Neustoyka sport kontrakti taraflarining o‘rtasidagi ijtimoiy xususiyatga ega munosabatlarni ta’minlash uchun ishonch vositasidir. U o‘z majburiyatini to‘la to‘kis bajargan shaxsni rag‘batlantiradi hamda mavjud himoya

vositasiga tayanishi mumkin ekanligini eslatib turadi. O‘z majburiyatini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shaxsni esa jazo muqarrar ekanligi haqida ogohlantirib turadi. Neustoyka sport kontraktlarida qo‘llanilishidan asosiy maqsad katta miqdordagi mablag‘ni yoqotish xavfini kamaytirishdir. Masalan, muayyan futbol klubi xorijlik futbolchini katta mablag‘ evaziga transferini amalga oshirdi hamda u bilan 3 yillik shartnomaga imzo chekdi. Bu holatda klub tomonidan futbolchining transfer shartnomasida ko‘rsatilgan pulni to‘lashdan tashqari, unga turli xil bonuslar, oylik maoshlar belgilaniladi. Muayyan o‘quv mashg‘ulotlari xorijda o‘tkazilsa klub barcha safar xarajatlarini o‘z hisobidan to‘laydi hamda yana boshqa ko‘plab to‘lovlarni amalga oshiradi. Shunday holda futbolchi o‘zidan kutilgan o‘yinni ko‘rsata olmaganidan tashqari jamoada to‘p surish niyati yo‘qligini bildirsa klub bunday holda katta yoqotishga duch keladi. Taraflar o‘rtasida tuzilgan mehnat shartnomasida neustoyka bandining aniq summasi belgilanishi futbolchining professional darajada harakat qilish hamda bor mahoratini namoyish etishni ta’minlaydi, futbol klubini esa ko‘proq mahoratli futbolchilar bilan shartnoma tuzishga undaydi.

Neustoyka taraflarning o‘z harakatlarini qo‘rqmasdan amalga oshirishni ta’minlovchi usuldir. U tegishli shartnomaviy huquqbuzarliklarni oldini oluvchi vositalardandir. Neustoyka sport kontraktining kreditori tomonidan amalga oshirilgan barcha majburiyatlarining qoplanishini belgilaydi hamda uning huquqlarini to‘liq himoya qiladi. Neustoyka sport kontraktlari tomonlari uchun o‘z harakatlarini lozim darajada bajarishlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Shuning uchun ham yuqorida ta’kidlanganidek, neustoyka ham majburiyatni qarzdor tomonidan buzilmasligini kafolati bo‘ladi, ham majburiyatni bajarmagan shaxs uchun jazo bo‘lib xizmat qiladi. Boshqa majburiyatlar bajarilishini ta’minlash usullaridan neustoykaning asosiy farqi ham uning real va oqilona talablar doirasida shartnoma bandlarida aks etganligidadir. Neustoyka majburiyatni bajarish vositasi sifatida majburiyat bajarilmagan taqdirda taraflarning pul to‘lovlarini qancha miqdorda va qanday tartibda to‘lashini tartibga soluvchi usuldir. Ushbu usulning faol harakatlantirish sababi bo‘lib taraflardan birining sharnoma shartlarini buzishi sanaladi. Bunday hollarda kreditor ushbu bandni (neustoyka bandini) faollashtirishga e’tibor qaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 260-moddasiga muvofiq neustoykaga ta’rif berilgan bo‘lib unga muvofiq taraflar o‘rtasida tuzilgan shartnomada belgilangan majburiyatlarning yoki qonunda belgilangan majburyatlarning shartnoma taraflari tomonidan buzilishi kreditor uchun to‘lov summasini undirishga asos bo‘luvchi neustoyka hisoblanadi.

Neustoyka – majburyatlar bajarilishi ta’minlash uchun taraflar tomonidan eng ko‘p qo‘llaniluvchi usul ekanligi olimlar tomonidan ta’kidlanadi. Darhaqiqat, sport kontraktlarining eng muhim qismi ham bevosita neustoyka bandi hisoblanadi. Katta miqdordagi mablag‘lar aylanishi so‘nggi yillarda sport industriyasi doirasidagi

shartnomalarning o‘ta yuqori riskli shartnomalar qatoriga qo‘shdi. Ushbu risklarni imkon darajasida kamaytirish aynan neustoyka orqali amalga oshirilmoqda. Neustoyka sport sohasida balki alohida shartnomaning bandi emas, balki umuman alohida hujjatlar bilan rasmiylashtirish xususiyatini o‘zida jo etmoqda. Buning asosiy sababi esa, har tarafning yuqori daromadga intilishi va o‘zaro munosabatlarni imkon qadar mukammal tarzda yo‘lga qo‘yishdir. Bugungi zamonaviy sport shartnomalarini neustoykasiz tasavvur etish ilojsizdir. Sababi neustoykada qarzdorning o‘z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi yoki mutlaqo bajarmaganligi holatida, bajarish muddatini kechiktirishi hollarida to‘lanishi shart bo‘lgan summani amalga oshirishga qaratilgan usuldir. Sport kontraktlarida ushbu usulning keng qo‘llanilishining asosiy sababi kreditorning shartnoma majburiyatlari bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi holatida ko‘rishi mumkin bo‘lgan zararini qoplash uchun asos ekanligidadir. Sport kontraktlarida belgilanuvchi neustoyka aynan mana shu holatda quyidagi xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rish mumkin: birinchidan, kelajakda yuz berishi mumkin bo‘lgan majburiyatni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik uchun javobgarlik shartnoma tuzilayotgan vaqtda taraflar tomonidan aniq belgilanishida; ikkinchidan, shartnoma tuzilgan paytda kelajakda shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida kelib chiqqan zararning aniq hisoblashning imkoni yo‘q bo‘lgan holatda taraflarning aniq summada belgilangan neustoyka bandini shartnomaga kiritishi; uchinchidan, taraflar o‘z ixtiyorlari bilan o‘zaro majburiyatlar bajarilmasligi natijasida zarar ko‘rishligi mumkinligi holida o‘zaro javobgarlik shartlarini belgilashlarida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga ko‘ra neustoyka qo‘llanilishi taqiqlangan shartnomalar belgilanmagan. Bu esa sport kontraktlarining ham banlarida neustoyka usulini qo‘llash orqali majburyatlar bajarilishi tartibga solish mumkinligini anglatadi.

Sport kontraktlarida neustoyka bandini faollashtirishga asos sifatida majburiyatlar bajarilmaganligi yoki lozim darajada belgilanmaganligining o‘zi yetarli. Bunday holatda majburiyat buzilishi hamda muayyan miqdorda zarar yetkazilganligini isbotlash shart emas. Bunday holda neustoyka shartnomani buzgan shaxsning aybini oqlashga qaratilgan usul deyilishi ham mumkin. Neustoyka bandi shartnoma shartlarini bajarilmagani zahotiyoq kreditorning qarzdordan neustoykada belgilangan pul summasini to‘lashni talab qilishi uchun asos vazifasini o‘taydi. Sport shartnomalarida nafaqat shartnomada belgilangan huquqlarning buzilishi balki professionallik talablarining buzilishi ham neustoyka talabini buzilishiga sabab bo‘ladi. Masalan, 2005-yildagi ruminiyalik professional futbolchi Adrian Mutu tomonidan Angliyaning “Chelsi” futbol klubida faoliyat yuritayotgan vaqtida kokain iste’mol qilganligi test natijalari orqali aniq bo‘lganidan so‘ng futbolchining professionallik xususiyatlarini yoqotganligi uchun u “Chelsi” klubi tarkibidan chetlashtiriladi hamda futbol tarixida

futbolchi tomonidan to‘langan eng katta neustoyka to‘lashga majbur etiladi. Futbolchi tomonidan klubga professional jihatdan harakat qilmaganligi uchun 15,2 million funt sterling neustoyka to‘lash majburiyati yuklandi. Sport kontraktlari ichidagi reklamaga doir yoki homiylik doir shartnomalarda neustoyka to‘lashni talab etish uchun qarzdor tomonidan aybli harakat sodir etilganligi ham isbotlanishi talab etiladi.

Sport kontraklarida neustoyka undirish uchun, umumiy qoidaga ko‘ra: birinchidan, majburiyat taraflardan biri tomonidan buzilishi kerak; ikkinchidan, majburiyatning buzilishi qarzdorning aybli xatti-harakati natijasida bo‘lishi kerak (fors-major holatda emas) va eng asosiysi shartnoma turidan kelib chiqib aybli harakat natijasida zarar yetkan yetmaganligi muhim emas (sportchi shartnomalari, murabbiy shartnomalarida va h.k) ayb zarar bilan sababiy bog‘lanishi kerak (sport reklamalari va homiylik shartnomalarida).

Sport kontraktlarida zararni qoplash hamda neustoyka o‘rtasidagi aniq chegarani belgilashda muayyan chalkashliklarga yo‘l qo‘yilishini kuzatish mumkin. Har ikkala vositaning o‘rtasidagi farqni javobgarlikning zaruriy belgilari tarkibidan kelib chiqib aniqlash mumkin. Agarda majburiyat bajarilmasa yoki lozim darajada bajarilmasa shuning o‘zi uni neustoyka deb hisoblash uchun yetarli holatdir. Qarzdor o‘z majburiyatini lozim darajada bajarmagan yoki bajarmagani uchun javobgar bo‘lmasa (uning aybli harakati bilan sodir bo‘lmagan bo‘lsa) ushbu holatda kreditor neustoyka talab qilish huquqiga ega emasdir.

Neustoyka tarkibiga kiruvchi jarima hamda penya undirilishi sport kontraktlarida ularning undirilish usullarida farqlanadi. Jarimada qat’iy summalari belgilanganligi asos bo‘lsa, penyada majburiyatning bajarishni kechikish muddati asosiy e’tiborga tushadi. Har qanday holatda ham neustoykada muayyan foizlar miqdorida belgilangan va qarzdor tomonidan belgilanadigan va qarzdordan undiriladigan puldir. Biroq penya hamda jarima o‘rtasida juda katta farq uchramaydi. Shunchaki, hisoblashish tartibining o‘ziga xosligi farqlovchi belgi bo‘lib xizmat qiladi. Yuqorida keltirilganidek, penya muayyan kunlar davomida qat’iy fozida oshib boruvchi qarzdorlik summasidir. Uning miqdori oshib borishi qarzdorning ko‘proq to‘lashga majbur qilganligi sababli ham majburiyatni vaqtida bajarishga taraflarni undaydi. Shu xususiyatdan kelib chiqib tor ma’nodagi neustoyka sifatida majburiyatlarni lozim darajada bajarilmaganligi, mutlaqo bajarilmaganligi hamda ijroning kechiktirilganligi uchun undiriladigan majburiyatlarni bajarilishini ta’minlash usulidir.

Sport kontraktlarida neustoyka shartnomada keltirilgan majburiyatga doir har qanday qismning buzilganligi uchun aniq summada undiriladi va bunda majburiyat qancha muddatga kechiktirilganidan qat’i nazar shartnomada aniq summa qayd etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidan farqli ravishda sport huquqida neustoykaning belgilanish asoslarida biroz farq mavjud. Neustoyka shartnomada hamda tegishli sport federatsiyalari, assotsiatsiyalarining reglament, ustav yoki alohida

qabul qilingan sirkulyar hujjatlari doirasida ham belgilanishi mumkin. Neustoyka taraflar o‘rtasidagi shartnomada belgilanmagan taqdirda nizo kelib chiqqan taqdirda sport nizolarini ko‘rib chiquvchi idoralarning neustoykaga bog‘liq talablarni ko‘rib chiqishda hali hamon nizoli bahsli holatlar ko‘pdir. Sababi bu kabi holatlarda sportchilar hamda tashkilotlar, klublar o‘rtasidagi tuzilgan shartnomalarda bo‘shliqlarning ko‘pligi hamda shartnomalarning umumiy tuzilishi talabga javob bermasligi ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga ko‘ra belgilanuvchi qonuniy neustoyka bunday holatlarda ko‘pincha sport shartnomalari yuzasidan kelib chiquvchi nizolarda qo‘llaniladi. Biroq sport kontraktlari uchun alohida etalon vazifasini o‘tovchi neustoyka namunalari mavjud emasligi ishni yanada qiyinlashtiradi. Umuman olganda, qonuniy neustoykada qancha miqdordagi summa undirilishi, qanday tartibda hisob kitob qilinishi hamda neustoykaga bog‘liq shartlar belgilanadi. Qonuniy neustoykaning shartnomaviy neustoykdan farqi shundan iboratki, bunda kreditor har qanday holda qonunchilikda belgilangan neustoyka summasini olishga muvaffaq bo‘ladi.

Sport homiylik hamda reklama shartnomalariga binoan klublar bilan tuzilgan shartnomalarda qonuniy neustoykaning yanada katta miqdorini belgilash mumkin ekanligi O‘zbeiston Respublikasi “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonunning 25-32-moddalarida qayd etib o‘tilgan. Shuni alohida ta’kidlash maqsadga muvofiqki, qonuniy neustoyka eng minimal darajada belgilangan bo‘lib shu holat uning imperativ xususiyatga ega ekanligi ushbu miqdordan kamaytirib bo‘lmasligini anglatadi. Agar taraflar ushbu neustoykadan kam foizlarini belgilaganliklari aniqlansa ushbu band haqiqiy emas deb topiladi.

Imperativlik xususiyati faqatgina miqdorni kamaytirishga nisbatan bo‘lib, agar taraflar kelishuvga erishsa hamda qonun taqiqlari mavjud bo‘lmasa miqdorni oshirish mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan. Qonunda belgilangan neustoykaning undirilishi muqarrar taraflar uning na undirilishi na miqdorini kamaytirishni talab qiladi oladilar. Shuning uchun ham neustoykaning shartnomaviy belgilanishi nizolar kelib chiqqanda hal etishning moslashuvchan holatini belgilab beradi.

Shartnomaviy neustoyka har ikki tarafning kelishuvi natijasida shartnomaning muayyan bandida (paragraf yoki bobida) belgilanadi. Bunda neustoyka qachon va qay tartibda undirilishini taraflar o‘z xohishlari doirasida belgilaydilar. Masalan, klub va futbolchi shartnomani muddatidan oldin bekor qilish shartlarini o‘zaro kiritishlari hamda uning tartiblarini belgilab olishlari mumkin.

Sport kontraktlarida neustoyka yozma shaklda belgilangan bo‘lishi huquqiy oqibat olib keladi. Odatda professional sportchilar bilan neustoyka ularning mehnat shartnomalarida alohida qayd etiladi. Super yulduz darajasidagi sportchilar bilan esa alohida shartnoma ko‘rinishida neustoyka tartibga solinadi. Agar sport kontraktida

neustoyka yozma shaklda aks etmagan bo‘lsa, kelishuv haqiqiy sanalmaydi. Neustoyka ham o‘z ichida quyidagi turlarga bo‘linadi:

-hisobga o‘tkaziladigan neustoyka;

-jarimali neustoyka;

-alohida neustoyka;

-muqobil neustoyka.

Sport kontraktlarida *hisobga o‘tkaziladigan neustoykalar* shartnomada jarima miqdori belgilanib keyinchalik qarzdorning aybli harakati natijasida katta miqdorda zarar yuzaga kelsa hamda ushbu zararni qoplashga neustoykada belgilangan pul summasi yetarli bo‘lmasa zarar hamda neustoyka orasidagi pul summasi undirilishiga aytiladi;

Jarimali neustoykada shartnomada jarima miqdori belgilanib keyinchalik qarzdorning aybli harakati natijasida zarar yuzaga kelganda ham neustoykani ham jarimani undirishga nisbatan ishlatiladi;

Jarima – bu moddiy ta’sirga ega pul bilan undiriladigan majburiyatni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik holatida undiriladigan majburiyatni ta’minlash usuli. Qoida tariqasida qat’iy summada aks etuvchi jarima neustoykaning bir turidir. Jarima shartnoma majburiyatini taraflar tomonidan bajarilishiga erishish vositasi hisoblanadi. Jarima qarzdorning aybi bilan majburiyat bajarilmaganda to‘lanadi. Ushbu neustoyka turining boshqalaridan farqi shundaki, unda neustoykaga qo‘shimcha jarima qo‘shish orqali juda kuchli javobgarlik yuzaga keladi. Masalan, klub tomonidan uning yulduz sportchilari homiy brendlarini reklamarida sur’atga tushishdan bosh tortishi yoki muayyan sabablarga ko‘ra sur’atga tushishda qatnasha olmasligi natijasida shu kabi jarimalar klublarga nisbatan qo‘llaniladi. Sababi bunday holatda reklamalar turli buyurtmalar oqimiga ta’sir ko‘rsatishi homiylarning ushbu neustoykani belgilashlariga sabab bo‘ladi.

Alohida neustoykada esa, u asosan penya shaklida bo‘lib zararning o‘rniga penya undirib olish huquqini beradi. Muayyan foizlarda penya belgilanadi. Penya bilan zarar o‘rtasidagi farq ham ushbu holatda qarzdor tomonidan to‘lab beriladi.

Muqobil neustoykada kreditor yoki neustoykani yoki zararni tanlaydi. O‘z o‘zidan bir vaqtda ikkisiga ega bo‘la olmaydi. Ushbu turdagi neustoykani baholanadigan neustoyka ham deb nomlashadi.

Muqobil neustoyka sport kontraklarida ko‘rilgan real zararni qoplash uchun kerakli vosita hisoblanadi. Agar zarar neustoykadan oshib ketgan bo‘lsa kreditor zararni miqdorini isbotlagan holda neustoykani emas faqatgina zararni undirishni talab qilish huquqiga ega bo‘ladi.

Yuqorida tahlil qilinganidek, neustoykani undirishdan maqsad majburiyatlarni bajarilishiga erishishdir. Neustoykaning penya turi quyidagi holatlarda shartnomalarda belgilanishi mumkin: penya majburiyatni belgilangan vaqtda ijro etilishini ta’minlashga

yo‘naltiriladi; penya jarimadan farqli ravishda qat’iy belgilangan summada emas majburiayat summasidan kelib chiqib foizda belgilanadi; penya davomiy neustoykadir u kunlik tarzda oshib boraveradi.

Sport shartnomalarida neustoykalarning miqdorini o‘zgartirtirish bo‘yicha qonunda nazarda tutilgan taqiq mavjud emasligi tufayli taraflar erkin tarzda uni belgilay oladilar (minmal miqdorni kamaytirmagan holda, albatta).

Neustoyka har qanday majburiyatni ijro etilishiga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Neustoyka qarzdorga qo‘shimcha majburiyat yuklaydi. Shu bilan birga kreditorning ham o‘z majburiyatlarini lozim darajada bajarishi uchun muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Neustoyka fuqarolik shartnomasi yoki mehnat shartnomasida bo‘lishidan qat’iy nazar yozma shaklda tuzilishi shart. Sud tomonidan neustoyka talablarini kamaytirish imkoni ham mavjud. Ammo davlat sudlarining sport shartnomalarida ishtirok etishiga doir bir qancha nomutanosib holatlar borligini hisobga olsak, bunday holda ko‘proq sport nizolarini ko‘rib chiquvchi idoralarning vakolati muhim ahamiyat kasb etadi. Odatda sport nizolarini ko‘ruvchi organlar shartnoma erkinligi prinsipini qo‘llagan holda shartnomaviy neustoyka miqdori xususida “shartnomada qanday belgilangan bo‘lsa, amalda ham shuncha miqdorda” tamoyiliga asoslanadilar.

Neustoykaning penya turida uni hisoblash muayyan muddat bilan cheklanishi mumkin. Ushbu muddat tugagandan so‘ng bir martallik jarima undiriladi.

Sport kontraklarida neustoykaning ko‘plab turlarini ishlatish mumkin bo‘lsada, undan ko‘zlangan asosiy maqsad majburiyatni bajarilishi ta’minlashdir. Jarima va neustoyka zararni qoplashdan farqli ravishda jarimali sanskiya hisoblanadi.

Sport kontraktlarida odatda neustoyka bandi faollashishi (professional futbolchining mehnat shartnomasida) majburiyatni asl holida bajarish imkoni deyarli tugaganini bildiradi. Bu esa kreditor uchun ahamiyatini yoqotgan ijrodan voz kechish va buning uchun voz kechish haqqini undirishga sabab bo‘ladi.

Majburiyatlarni bajarilishini ta’minlash vositasi sifatida neustoykadan sport kontraktlarida to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish sport nizolarining kamayishiga hamda taraflarning shartnomadan ko‘zlagan asosiy maqsadiga erishishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Омонов А. Неустойка как способ исполнения договорных обязательств // Вестник Высшего хозяйственного суда. 2014. - №9.

2. Sh.Ruzinazarov, J.Babayev, S.Inoyatova, M.Nuraliyev. Fuqarolik huquqida majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash usullari. O‘quv qo‘llanma. – T.:TDYU, 2018, 15-bet.

3. Sh.Ruzinazarov, J.Babayev, S.Inoyatova, M.Nuraliyev. Fuqarolik huquqida majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash usullari. O‘quv qo‘llanma. – T.:TDYU, 2018, 15-bet

4. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi //Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son; 30.03.2022-y., 03/22/760/0249-son; 21.04.2022-y., 03/22/765/0332-son, 30.06.2022-y., 03/22/782/0576-son; 08.11.2022-y., 03/22/801/0998-son

5. Rahmonqulov X.R. Majburiyat huquqi. Darslik. –T.: TDYI, 2005. – B 306; Mualliflar jamoasi. Shartnoma huquqi. Darslik. –T.: O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti, 2022, -B 634.

6. Sh.Ruzinazarov, J.Babayev, S.Inoyatova, M.Nuraliyev. Fuqarolik huquqida majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash usullari. O‘quv qo‘llanma. – T.:TDYU, 2018, 16-bet.

7. Chelsea Football Club Ltd. v. Mutu, 849 F. Supp. 2d 1341 (S.D. Fla. 2012).

8. O‘zbeiston Respublikasi “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuni // *Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 04.08.2022-y., 03/22/786/0705-so*

9. Sh.Ruzinazarov, J.Babayev, S.Inoyatova, M.Nuraliyev. Fuqarolik huquqida majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash usullari. O‘quv qo‘llanma. – T.:TDYU, 2018, 20-23-betlar

10. Rahmonqulov.X. Majburiyat huquqi (umumiy qoidalar). / Huquqshunoslik ixtisosi bo‘yicha oliy o‘quv yurtlari “Xususiy huquq” yo‘nalishi magistratura talabalari uchun. –T.: TDYI, 2005, 87-88-betlar

11. Sh.Ruzinazarov, J.Babayev, S.Inoyatova, M.Nuraliyev. Fuqarolik huquqida majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash usullari. O‘quv qo‘llanma. – T.:TDYU, 2018, 22-bet.

12. Rahmonqulov.X. Majburiyat huquqi (umumiy qoidalar). / Huquqshunoslik ixtisosi bo‘yicha oliy o‘quv yurtlari “Xususiy huquq” yo‘nalishi magistratura talabalari uchun. –T.: TDYI, 2005, 89-betl

EXPLORING EFFECTIVE APPROACHES IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING

Kayar Gulnoza Chariyevna
teacher of NSPI at the Department of the English Language and Literature
Botirova Feruza Orifovna
3nd year student at the Navoi State Pedagogical Institute

Abstract: English Language Teaching (ELT) has undergone significant developments in recent years, with educators exploring diverse approaches to enhance language learning outcomes. This article provides an overview of prominent approaches in ELT, including Communicative Language Teaching (CLT), Task-Based Language Teaching (TBLT), Content-Based Language Teaching (CBLT), Blended Learning, and Task-Based Learning (TBL). Each approach is examined in detail, highlighting their key features and benefits. CLT emphasizes communicative competence through meaningful interactions, TBLT centers on completing real-world tasks, CBLT connects language learning with subject content, blended learning combines face-to-face and online components, and TBL prioritizes the learning process itself. By understanding and utilizing these approaches, educators can create engaging and effective English language learning environments that cater to diverse learner needs and preferences, fostering language proficiency and confidence.

Keywords: English language teaching, ELT, communicative language teaching, CLT, task-based language teaching, TBLT, content-based language teaching, CBLT, blended learning, task-based learning, learner-centered, language proficiency, communicative competence, meaningful interactions, real-world tasks, subject content integration, technology integration, learner autonomy, engagement, language learning outcomes.

INGLIZ TILINI O'QITISHDA SAMARALI YONDASHUVLARNING TADQIQI

Kayar Gulnoza Chariyevna
NavDPI, Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi
Botirova Feruza Orifovna
Navoiy davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ingliz tilini o'qitish so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlarga duch keldi, o'qituvchilar tilni o'rganish natijalarini yaxshilash uchun turli yondashuvlarni tadqiq qilmoqda. Ushbu maqolada ingliz tilini o'rgatish bo‘yicha mashhur

yondashuvlar, jumladan Kommunikativ tillarni o‘qitish (CLT), vazifaga asoslangan til o'qitish (TBLT), kontentga asoslangan til o'qitish (CBLT), aralash ta'lim va topshiriqli o'rganish (TBL) haqida umumiy ma’lumot berilgan. Har bir yondashuv batafsil ko'rib chiqiladi, ularning asosiy xususiyatlari va afzalliklari ta'kidlanadi. CLT mazmunli o'zaro aloqalar orqali kommunikativ kompetentsiyaga urg'u beradi, TBLT real vazifalarni bajarishga qaratilgan, CBLT til o'rganishni mavzu mazmuni bilan bog'laydi, aralash o'rganish yuzma-yuz va onlayn komponentlarni birlashtiradi va TBL o'quv jarayonining o'ziga ustuvor ahamiyat beradi. Ushbu yondashuvlarni tushunish va ulardan foydalanish orqali o'qituvchilar o'quvchilarning turli ehtiyojlari va xohishlariga javob beradigan, tilni bilish va ishonchni kuchaytiradigan qiziqarli va samarali ingliz tilini o'rganish muhitini yaratishi mumkin.

Kalit so'zlar: ingliz tilini o'qitish, ELT, kommunikativ tilni o'qitish, CLT, vazifaga asoslangan til o'qitish, TBLT, kontentga asoslangan til o'qitish, CBLT, aralash ta'lim, vazifaga asoslangan ta'lim, o'quvchiga yo'naltirilgan, tilni bilish, kommunikativ kompetentsiya, mazmunli o'zaro muloqot, real dunyo vazifalari, mavzu mazmuni integratsiyasi, texnologiya integratsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quvchilarni jalb etish, til o‘rganish natijalari.

ИЗУЧЕНИЕ ЭФФЕКТИВНЫХ ПОДХОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Каяр Гулноза Чариевна
преподаватель НГПИ
Кафедры английского языка и литературы
Ботирова Феруза Орифовна
студентка 3 курса в Навоийском государственном педагогическом институте

Аннотация: В последние годы преподавание английского языка (ELT) претерпело значительные изменения, и преподаватели изучают различные подходы для улучшения результатов изучения языка. В этой статье представлен обзор известных подходов в ELT, включая коммуникативное обучение языку (CLT), обучение языку на основе задач (TBLT), обучение языку на основе содержания (CBLT), смешанное обучение и обучение на основе задач (TBL). Каждый подход рассматривается подробно, выделяются его ключевые особенности и преимущества. CLT делает упор на коммуникативную компетентность посредством значимых взаимодействий, TBLT сосредотачивается на выполнении реальных задач, CBLT связывает изучение языка с предметным содержанием, смешанное обучение сочетает в себе оффлайн и онлайн компоненты, а TBL отдает приоритет самому процессу обучения.

Понимая и используя эти подходы, преподаватели могут создавать привлекательные и эффективные условия обучения английскому языку, отвечающие разнообразным потребностям и предпочтениям учащихся, способствуя владению языком и уверенности в себе.

Ключевые слова: обучение английскому языку, ELT, коммуникативное обучение языку, CLT, обучение языку на основе задач, TBLT, обучение языку на основе содержания, CBLT, смешанное обучение, обучение на основе задач, личностно-ориентированное обучение, владение языком, коммуникативная компетентность, содержательные взаимодействия, реальные задачи, интеграция предметного контента, интеграция технологий, автономия учащихся, вовлеченность, результаты изучения языка.

Introduction:

The field of English language teaching (ELT) has witnessed significant advancements in recent years, with educators exploring various approaches to enhance language learning outcomes. These approaches aim to create engaging and effective learning environments that cater to the diverse needs and preferences of English language learners. In this article, we will delve into some of the prominent approaches in English language teaching and discuss their key features and benefits.

Communicative Language Teaching (CLT)

Communicative Language Teaching (CLT) prioritizes the development of communicative competence by emphasizing meaningful interactions. In CLT, language is seen as a tool for communication rather than an isolated set of grammar rules and vocabulary. Learners engage in pair work, group activities, and role-plays that simulate real-life communication scenarios. This approach encourages learners to express their ideas, negotiate meaning, and develop their speaking and listening skills. CLT also integrates reading and writing activities that reflect authentic language use. By focusing on fluency, accuracy, and the ability to convey intended meaning, CLT promotes effective communication in English.

Task-Based Language Teaching (TBLT)

Task-Based Language Teaching (TBLT) places the completion of meaningful tasks at the center of language instruction. Learners are presented with tasks that require them to use English to accomplish specific goals, such as planning an itinerary or solving a problem. TBLT encourages learners to engage in purposeful communication and apply their language skills in real-world contexts. This approach promotes the integration of the four language skills and provides opportunities for learners to develop critical thinking, problem-solving abilities, and collaboration. TBLT also fosters learner autonomy as learners take ownership of their learning process while working towards task completion.

Content-Based Language Teaching (CBLT)

Content-Based Language Teaching (CBLT) intertwines language learning with subject matter content. In CBLT, learners acquire language skills while studying academic topics of interest, such as science, history, or literature. This approach is particularly effective in language immersion programs or when learners have specific content-related goals. CBLT promotes language development through the exploration of content-related materials, discussions, and projects. By immersing learners in subject-specific contexts, CBLT enhances content comprehension, academic language proficiency, and critical thinking skills. It allows learners to engage with subject matter while simultaneously developing their English language abilities.

Blended Learning

Blended Learning combines traditional face-to-face instruction with online learning components. This approach integrates technology into English language teaching, offering learners a combination of in-person and digital learning experiences. Blended Learning provides flexibility in terms of time and location, allowing learners to access course materials, interactive exercises, and multimedia resources at their own pace. Online platforms and tools can facilitate language practice, virtual language exchanges, and provide immediate feedback. Blended Learning also enables educators to monitor learners' progress and adapt instruction to individual needs, fostering personalized learning experiences.

Task-Based Learning (TBL)

Task-Based Learning (TBL) places the learning process itself at the forefront of instruction. Learners are presented with challenging and authentic tasks that require them to engage in problem-solving, collaboration, and critical thinking. TBL encourages learners to actively participate, discover language patterns, and develop their own strategies for communication. Rather than focusing solely on explicit language instruction, TBL provides a learner-centered environment that promotes learner autonomy and engagement. By working on meaningful tasks, learners develop their language skills while also acquiring transferrable skills that extend beyond language acquisition.

In summary, these English language teaching approaches offer a range of strategies and techniques to enhance language learning outcomes. By implementing approaches such as CLT, TBLT, CBLT, blended learning, and TBL, educators can create dynamic and engaging learning environments that cater to the diverse needs and preferences of English language learners.

Conclusion

English language teaching has evolved significantly over the years, with educators embracing innovative approaches to meet the needs of diverse learners. From the communicative focus of CLT to the real-world tasks in TBLT, each approach brings

its unique benefits and caters to different learning styles. By combining these approaches or adopting a blended learning environment, educators can create engaging, meaningful, and effective English language learning experiences that empower learners to become proficient and confident users of the language.

References:

1. Thomas H. Schmidt Laura Torres-Zúñiga “New Methodological Approaches to Foreign Language Teaching” - Cambridge Scholars Publishing; 1st edition. 2017.

2. Jack C. Richards “Approaches and Methods in Language Teaching 3rd Edition” - Publisher : Cambridge University Press and Assessment; 3rd edition (June 16, 2014)

3. Cora Lindsay “Learning and Teaching English (Professional/Academic)” -Publisher : Oxford University Press (May 11, 2006)

ЭКОЛОГИК МУНОСАБАТЛАРНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ
КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВАЯ ОСНОВА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ
CONSTITUTIONAL AND LEGAL BASIS OF ECOLOGICAL RELATIONS

Абдуганиева Гулруҳ Мансур қизи
Ўзбекистон Миллий Университети Ижтимоий фанлар факультети
3-курс талабаси
Илмий рабар**:** й.ф.д. профессор **В.Р.Топилдиев**
Абдуганиева Гулрух Мансур
Студентка 3 курса факультета социальных наук Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Топилдиев Вохиджон Рахимжонович
доктор юридических наук, профессор
Abduganieva Gulrukh Mansur
3rd year student of the Faculty of Social Sciences of the Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan
Topildiev Vokhidjon Rakhimjonovich
doctor of legal sciences, professor

Аннотация: Мазкур мақолада муаллиф Ўзбекистон Республикасида экологик муносабатларнинг конституциявий-ҳуқуқий асослари юзасидан фикр ва мулоҳазалар билдирган. Янгиланган Конституцияда экология масалалари бўйича нормаларни таҳлил қилган. Шунингдек, ривожланган хорижий мамлакатлар Конституцияларида ўз аксини топган экологик-ҳуқуқий нормаларни мамлакатимиз қонунчилиги билан таққослаб, янгиланган Конституция лойиҳасида экологик нормалар хорижий мамлакатлар тажрибасига қай даражада мос келиши юзасидан ўз фикр ва мулоҳазаларини билдирган.

Калит сўзлар: Конституция, экология, экология ҳуқуқи, экологик муносабатлар, экологик бурч, норма, экологик-ҳуқуқий норма, атроф-муҳит, табиий ресурс.

Аннотация: В данной статье автор высказал свое мнение и замечания по поводу конституционно-правовых основ экологических отношений в Республике Узбекистан. Проанализировала нормы по экологическим вопросам в обновленной Конституции. Также сравнила экологические правовые нормы, отраженные в Конституциях развитых зарубежных стран, с законодательством нашей страны, и высказала свои мнения и замечания относительно того,

насколько экологические нормы соответствуют опыту зарубежных стран в обновленном проекте Конституции.

Ключевые слова: Конституция, экология, экологическое право, экологические отношения, экологический долг, норма, эколого-правовая норма, окружающая среда, природный ресурс.

Annotation: In this article, the author expressed views and comments on the constitutional and legal foundations of environmental relations in the Republic of Uzbekistan. Analyzed the norms on environmental issues in the updated Constitution. Also compared the environmental legal norms reflected in the Constitutions of developed foreign countries with the legislation of our country, and expressed opinions and comments on the extent to which environmental norms correspond to the experience of foreign countries in the updated draft of the Constitution.

Key words: Constitution, ecology, environmental law, environmental relations, ecological duty, norm, ecological-legal norm, environment, natural resource.

Табиат ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ҳар доим давлат ва жамият ҳаёти учун муҳим масалалардан бири бўлиб келган. Юртимизда экологик барқарорликни таъминлаш, аҳолининг қулай табиий муҳитга эга бўлиши учун зарур шарт-шароитлар яратиш, табиий ресурслардан оқилона ва самарали фойдаланиш, юзага келаётган экологик муаммоларнинг олдини олиш ва уларнинг салбий оқибатларини бартараф этиш масалаларига жиддий эътибор қаратилмоқда. Мамлакатимизда атроф-муҳит муҳофазаси, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, экологик хавфсизликка оид 20 дан ортиқ қонунлар ва юзлаб қонуности ҳужжатлари қабул қилиниб ҳаётга татбиқ қилинмоқда. Хусусан, “Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги, “Экологик экспертиза тўғрисида”ги, “Ўсимлик дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисида”ги, “Сув ва сувдан фойдаланиш тўғриси”ги қонунлар ва Ўзбекистон Республикасининг 2030-йилгача Ўзбекистон Республикасининг атроф-муҳитни муҳофаза қилиш концепцияси, 2019-2030-йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг “яшил” иқтисодиётга о‘тиш стратегияси шулар жумласидандир. Бундан ташқари, Жиноят ва Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексларнинг бир қатор моддаларида атроф-муҳитга зарар етказиш билан боғлиқ ғайриқонуний ҳуқуқбузарликлар учун жавобгарлик чоралари белгилаб қўйилган.[20]

Маълумки, конституциявий нормаларнинг экологик сиёсатни амалга оширишдаги ўрни ва аҳамияти беқиёс. Айнан Асосий қонунда давлат органлари ва жамоат бирлашмаларининг экологик фаолиятини шакллантириш бўйича асосий принциплари мустаҳкамланади, фуқароларнинг экологик бурчлари

[20] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 30.10.2019 йилдаги ПФ-5863-сон

белгиланади, жамиятнинг экологик барқарор ривожланишининг устувор йўналишлари ўрнатилади. Конституциявий нормалар тизими жамият ва табиатнинг ўзаро алоқаси чоғида юзага келадиган ва тартибга солинадиган ижтимоий муносабатлар тавсифидан келиб чиқиб, шартли равишда икки қисмга – умумий ва махсус экологик нормаларга бўлиниши мумкин.

Умуий конституциявий нормалар демократик-ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамиятини барпо этишда, давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларининг фаолиятини ташкил этишнинг асосий принципларини белгилашда, фуқароларнинг асосий ҳуқуқ ва эркинликларини кафолатлашда, экологик ҳуқуқ-тартиботни мустаҳкамлашда долзарб аҳамият касб этади.

Хусусан, Конституциямизнинг 10-боби инсон ва фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари кафолатларига бағишланган бўлиб, унда давлатнинг фуқароларнинг Конституция ва қонунларда мустаҳкамланган (шу жумладан экологик) ҳуқуқларини кафолатлаши белгиланган.

Шунингдек, Асосий Қомусимизнинг бешинчи бўлимида давлат ҳокимиятини ташкил этишнинг асосий қоидалари белгиланган бўлиб, ушбу нормалар экологик қонунчиликнинг шаклланиши ва шу соҳадаги давлат органларининг ташкил этилишида муҳим ҳуқуқий негиз бўлиб хизмат қилади.

Юқоридагилардан ташқари Конституциямизда Ўзбекистон Республикаси Президенти ва Вазирлар Маҳкамасининг ваколатлари ҳам белгиланган бўлиб, ушбу нормалар мазкур органларнинг экология соҳасидаги ваколатларининг ҳуқуқий мақомини белгиловчи миллий қонун ҳужжатларининг ривожланиши учун асос бўлади. Умумий конституциявий нормаларнинг аҳамияти яна шу билан белгиланадики, биринчидан, уларда экологик муносабатлар тўғридан-тўғри тартибга солинмаган; иккинчидан, ушбу нормалар экологик қонунчиликнинг шаклланиши ва ривожланишида муҳим аҳамиятга бўлган асосий қоидаларни белгилаб беради.

Ўзбекистон Республикаси янги таҳрирдаги Конституцияси 49-моддасига[21] кўра, Ҳар ким қулай атроф-муҳитга, унинг ҳолати тўғрисидаги ишончли ахборотга эга бўлиш ҳуқуқига эга. Давлат фуқароларнинг экологик ҳуқуқларини таъминлаш ва атроф-муҳитга зарарли таъсир кўрсатилишига йўл қўймаслик мақсадида шаҳарсозлик фаолияти соҳасида жамоатчилик назоратини амалга ошириш учун шарт-шароитлар яратади. Шаҳарсозлик ҳужжатларининг лойиҳалари қонунда белгиланган тартибда жамоатчилик муҳокамасидан ўтказилади. Давлат барқарор ривожланиш принципига мувофиқ, атроф-муҳитни яхшилаш, тиклаш ва муҳофаза қилиш, экологик мувозанатни сақлаш бўйича чора-тадбирларни амалга оширади. Давлат Оролбўйи минтақасининг экологик

[21] Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси –Т.: “Ўзбекистон”, 2023 йил.

тизимини муҳофаза қилиш ҳамда тиклаш, минтақани ижтимоий ва иқтисодий жиҳатдан ривожлантириш юзасидан чоралар кўради.

Қомусимизнинг 62-моддасида Фуқаролар атроф табиий муҳитга эҳтиёткорона муносабатда бўлишга мажбурдирлар. Ушбу норманинг аҳамияти шу билан белгиланадики;

биринчидан, фуқароларнинг экологик бурчи Конституция даражасида мустаҳкамланган;

иккинчидан, атроф табиий муҳит тушунчасининг юридик мазмунидан келиб чиқиб, Конституциянинг ушбу нормаси нафақат фуқароларнинг табиатни муҳофаза қилиш, балки табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш мажбуриятини ҳам назарда тутади.

Асосий Қонунимизнинг 66-моддасида белгиланишича, Мулкдор ўзига тегишли бўлган мол-мулкка ўз хоҳишича эгалик қилади, ундан фойдаланади ва уни тасарруф этади. Мол-мулкдан фойдаланиш атроф-муҳитга зарар етказмаслиги, бошқа шахсларнинг, жамият ва давлатнинг ҳуқуқларини ҳамда қонуний манфаатларини бузмаслиги керак. Ушбу норманинг ўзига хос хусусияти шундаки, унда мулк ҳуқуқи, хусусан табиий ресурсларга нисбатан мулк ҳуқуқи мазмунини белгиловчи мулкдор ваколатлари тартибга солинган ҳамда бундай хўжалик ва ишлаб чиқариш фаолияти атроф табиий муҳитга зарар етказмаслиги каби талаб мустаҳкамланган.

Давлат экологик сиёсатининг асослари Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 68-моддасида ўз аксини топган. Унга кўра, Ер, ер ости бойликлари, сув, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳамда бошқа табиий ресурслар умуммиллий бойликдир, улардан оқилона фойдаланиш зарур ва улар давлат муҳофазасидадир. Ер қонунда назарда тутилган ҳамда ундан оқилона фойдаланишни ва уни умуммиллий бойлик сифатида муҳофаза қилишни таъминловчи шартлар асосида ва тартибда хусусий мулк бўлиши мумкин. Фуқаролар атроф табиий муҳитга эҳтиёткорона муносабатда бўлишга мажбурдирлар. Ушбу конституциявий норма давлат экологик фаолиятининг қуйидаги асосий принципларини ифодалайди:

Биринчидан, республика табиий ресурслари умуммиллий бойлик ҳисобланади, яъни юридик маънода улар халқ мулкини ташкил этади ҳамда улар номидан давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари қонунда белгиланган ваколатлари доирасида иш юритади.

Иккинчидан, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш зарур. Экология ҳуқуқида оқилона деганда, табиий ресурслардан экологик норматив ва стандартларга қатъий риоя этган ҳолда фойдаланиш тушунилади.

Учинчидан, табиат объектлари ва ресурслари давлат томонидан қўриқланади. Бу давлат табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш ва муҳофаза

қилишни таъминлашини ҳамда жисмоний ва юридик шахсларнинг экологик ҳуқуқ ва манфаатларига, шунингдек экологик ҳуқуқ-тартиботга риоя этилишини кафолатлашини англатади.

Конституциямизнинг 123-моддасида[22] эса, маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг асосий ваколатлари саналган бўлиб, ушбу вакиллик органлари фаолиятининг устувор йўналиши сифатида “ҳудудларни экологик жиҳатдан ривожлантиришни таъминлашга қаратилган чора-тадбирларни амалга ошириш” бўйича ваколатлари мустаҳкамланган. Ушбу норманинг аҳамияти ва зарурияти қуйидагиларда намоён бўлади:

биринчидан, у атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш бўйича асосий вазифаларни белгилаб беради;

иккинчидан, барча даражадаги ҳокимларга ўз ҳудуди доирасида экологик қонунчиликка риоя этилиши борасида шахсан жавобгарлик маъсулиятини юклайди.

Хорижий мамлакатлар Германия, Греция, Италия, Болгария ва бошқа давлатлар конституцияларида ҳам экологик-ҳуқуқий нормалар о‘з аксини топганлигини кўриш мумкин.

Болгария Конституциясининг 15-моддасида давлат атроф-муҳитни муҳофаза қилиши ва такрор ишлаб чиқаришни, ёввойи табиатни сақлашни ва унинг хилма-хиллигини ва мамлакатнинг табиий бойликлари ва ресурсларидан оқилона фойдаланишни та’минлаши белгиланган[23]

Табиий объектлар ва ресурсларга нисбатан давлатнинг мутлақ мулк ҳуқуқи белгилаб қўйилган Венгрия Конституциясининг 8-моддаси, Руминия Конституциясининг 12-моддаси[24]

Халқ хўжалигини ва табиатдан фойдаланишни ривожлантиришда халқ хўжалигини режалаштириш, хом-ашё ва ресурсларга бўлган эҳтиёжни инобатга олиш, уларнинг режали тақсимлаш ва улардан оқилона фойдаланиш каби нормалар мустаҳкамлаб қўйилган. Венгрия Конституциясининг 7-моддаси[25]

Атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш бўйича юридик ва жисмоний шахсларнинг ҳуқуқлари ва мажбуриятларини шакллантириш. Айни дамда таъкидлаш ўринлики, кўп ҳолларда фуқароларнинг қулай атроф табиий муҳитда яшаш ҳуқуқи айни дамда атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш мажбурияти билан боғланади ГФР Конституциясининг 34-моддаси Табиатни муҳофаза қилишда жамоат бирлашмалари ва ҳаракатларнинг ўрни мустаҳкамланган ГФР Конституцияси 29-моддаси[26], Руминия Конституцияси 24-моддаси Давлатнинг

[22] Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси –Т.: “Ўзбекистон”, 2023 йил.
[23]Bulgaria's Constitution http://constituteproject.org
[24] The Constitution of Romania https://www.presidency.ro/en/the-constitution-of-romania
[25] Hungary's Constitution of 2011 http://constituteproject.org
[26] Constitution of the Federal Republic of Germany

мамлакат ва жамиятнинг табиатни муҳофаза қилиш бўйича ички ва ташқи сиёсатига оид принципларининг яхлитлиги Венгрия Конституциясининг 20-моддасида белгиланган.[27]

Шунингдек, Австрия, Албания, Болгария, Венгрия, Литва, Польша, Словакия, Словения, Хорватия, Чехия ва Эстония каби давлатларда фуқаролар ва давлатнинг экология соҳасидаги ҳуқуқ ва мажбуриятлари аниқ-равшан белгилаб берилган. Хусусан, Греция Конституцияси (1975 й.) 24-моддасида[28] "Табиий ва маданий атроф муҳитни муҳофаза қилиш давлатнинг мажбурияти ҳисобланади", деб белгиланган. Австрияда эса, "Атроф муҳитни ҳар томонлама муҳофаза қилиш тўғрисида"ги[29] Федерал Конституциявий қонун (1920 й.) амал қилиши ушбу мамлакатнинг атроф муҳитни комплекс муҳофаза қилишга интилаётганлигидан далолат беради. ГФР Конституцияси 20а-моддасида[30] ҳам давлат атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиши, бугунги авлод келажак авлод олдида маъсул эканлиги уқтирилган. Италияда ҳам атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш бўйича вазифа давлат зиммасига юкланган Италия Конституцияси 9-моддасида (1947 й.) таъкидланишича, "Республика мамлакат табиатини муҳофаза қилади"[31]. Ҳиндистонда атроф табиий муҳитни муҳофаза қилишнинг конституциявий-ҳуқуқий асослари давлатнинг атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш ва уни яхшилашга ҳаракат қилишга мажбур эканлигини ҳамда бу ҳар бир Ҳиндистон фуқаросидан талаб қилинишини белгилайди.

Турли мамлакатларнинг конституциявий-экологик нормаларининг қисқача таҳлили Конституцияда давлат экологик сиёсатининг устувор йўналишларини белгилаш, уларни норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда янада аниқлаштириш ҳамда қонунни қўллаш маданияти экологик барқарор ривожланишга имкон беришини яна бир карра тасдиқлайди. Худди шунингдек, қиёсий таҳлил кўрсатганидек, Ўзбекистон Республикаси Конституциясида мустаҳкамланган асосий экологик-ҳуқуқий нормалар энг илғор хорижий давлатлар тажрибасига мос бўлиб, мамлакатимизда барқарор ривожланишни таъминлашга, атроф муҳит мусаффолигини сақлашга, табиатни ҳамда аҳоли саломатлигини муҳофаза қилишга хизмат қилмоқда. Фикримизча, Янги таҳрирдаги Конституция асосида экология соҳасидаги барча норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ягона Экология кодексига жамланиши соҳадаги камчиликларни бартараф этиб, уни такомиллаштирилишига хизмат қилади.

[27] Hungary's Constitution of 2011 http://constituteproject.org
[28] The constitution of greece may 27th 2008
[29] Austria the federal constitutional law december 30, 2004
[30] Constitution of the Federal Republic of Germany
[31] Constitution of the Italian Republic senato.it

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси –Т.: “Ўзбекистон”, 2023 йил.

2. Bulgaria's Constitution http://constituteproject.org

3.The Constitution of Romania https://www.presidency.ro/en/the-constitution-of-romania

4. Hungary's Constitution of 2011 http://constituteproject.org

5. Constitution of the Federal Republic of Germany

6. THE CONSTITUTION OF GREECE May 27th 2008

7. AUSTRIA THE FEDERAL CONSTITUTIONAL LAW December 30, 2004

8. Constitution of the Italian Republic senato.it

INTERPRETATION OF SOCIAL STUDIES IN LINGUISTICS

Tangrieva Dilovar Anvarjonovna
Teacher of the Department of German Philology,
Faculty of Foreign Languages, BukhSU

Abstract. Sociolinguistics explores language in relation to society. This means that it is concerned with language as used for communication amongst different social groups of people in different socialsituations. This thesis analyzes sociolinguistics and its functions in modern linguistics.

Keywords: linguistics, language, function, grammar, society.

Аннотация. Социолингвистика исследует язык по отношению к обществу. Это означает, что речь идет о языке, используемом для общения между различными социальными группами людей в различных социальных ситуациях. В тезисе анализируется социолингвистика и ее функции в современной лингвистике.

Ключевые слова: языкознание, язык, функция, грамматика, общество.

Annotatsiya. Sotsiolingvistika tilni jamiyat bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Bu shuni anglatadiki, u turli xil ijtimoiy vaziyatlarda odamlarning turli ijtimoiy guruhlari o'rtasida muloqot qilish uchun ishlatiladigan til bilan bog'liq. Ushbu tezisda ijtimoiy tillar va uning zamonaviy tillardagi vazifalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, til, funktsiya, grammatika, jamiyat.

INTRODUCTION

In brief, the aim of **linguistics** is to determine the properties of natural language. Theinvestigation of individual languages is done with the intention of explaining why the whole set of languages are the way they are. This is the search for a theory of universal grammar. In this process the analyst aims to construct a device, a grammar, which can specify the grammatical strings of one language, say English or Bulgarian, but which is also relevant for the grammar of any human language. In this way, linguistics puts its focus on determining what the component parts and inner mechanism of languages are. In accomplishing this, theoretical models of language tend to exclude certain things, consigning them to the lexical, semantic or pragmatic components of language, or even outside of language altogether.

MATERIALS AND METHODS

Sociolinguistics is a relatively young discipline. Most of the growth in sociolinguistics took place in the late 1960s and 1970s. Indeed, there has been a long tradition in the study of dialects and in the general study of the relations between word-meaning and culture, both of which can be subsumed within the domain of

sociolinguistics. However, the awareness that sociolinguistics can shed light on both the nature of language and the nature of society is relatively new.

RESULTS AND DISCUSSION

Sociolinguists argue that language exists in context, dependent on the speaker who is using it and dependent on where it is being used and why. Speakers mark their personal history and identity in their speech as well as their sociocultural, economic and geographical coordinates in time and space. So taking a broad approach to the subject of sociolinguistics would mean to include in it everything: from considering 'who speaks', what language, to whom, and when and to what end, i.e. the social distribution of linguistic items, **to** considering how a linguistic variable might relate to the formulation of a specific grammatical rule in a particular language or dialect and, finally, **to** the processes through which languages change. (Wardhaugh 1992).

Depending on the purposes of the research, the different orientations of sociolinguistic research have traditionally been subsumed under two umbrella terms: **Sociolinguistics**' and '**The sociology of language**'. In this distinction **sociolinguistics i**s concerned with investigating the relationships between language and society with the goal to understand more thoroughly the structure of language and how languages function in communication. The equivalent goal in **the sociology oflanguage** is to discover how social structure can be better understood through the study of language, e.g. how certain linguistic features serve to characterize particular social arrangements. Both sociolinguistics and the sociology of language require a systematic study of language and society if they are to be successful.

The sample of classroom interaction in e.g. illustrates how a 'question' may not function as aquestion at all. As seen from the instructions in the beginning, the question forms are not meant as questions but as part of a game directed at practicing a particular language structure.

Accordingly, establishing the truth value of students' answers is not an issue at all. Comparing the function of questions in this sample with that of the questions we discussed in example four above we'll discover one more difference. As argued the questions in the above sample were notgenuinely searching for information either. But they had a different function from the function ofquestions in this excerpt. In example four , questions were elements of the attorney's strategy to make the opponent to his client, appear ridiculous and foolish which would add further strength to his defence strategy.

What all this implies is that it would be wrong to generalize whether or not speakers of a particular language have means to discern, comprehend or produce different discourse meanings. One and the same grammatical form may serve different functions in different discursive frames.

Another approach is to describe language as it is actually used and explain how the language resources are being exploited in diverse real life communicative situations. In general, approaches taking as a starting point language use are **functional as** they consider how different language **forms** are used in specific **context** to express particular **meanings.**

Some people argue that our ability to use language is actually the essence of what makes us human whereby the study of language in use should be considered primary. Without going deep into the debate on the primacy of structure or function, we can adduce a few more instrumental reasons for studying language as it is used in real life communication.

In brief, besides knowledge about language structure we need to explain:

- How language is used in such caring professions as teaching and medicine to explain, educate, nurse, reassure or learn other languages in a less time consuming and effortful way.
- How broadcast and print journalists use language to present events and news, to persuade or manipulate the audience/ readers to believe that what is presented is the sheer truth.

CONCLUSION

Interactional sociolinguistics employs discourse analysis for **interpretation** of social interaction in which the **emergent construction** and **negotiation of meaning** is facilitated by the use of language. Although the interactional approach is basically a functional approach, it has a more balanced focus on function. ISs believe that, **language and context co-constitute one another: language contextualizes and is contextualized,** such that language does not just function "in context", language also forms and provides context. One particular context is social interaction. Language culture and society are grounded in interaction; they stand in a reflexive relationship with the self and the other, and the self-other relationship, and it is out of these mutually constitutive relationships that discourse is created.

REFERENCES:

1. Gafurov B.Z. Similarities and differences of segment background options for Russian, Uzbek and English languages // Monografia pokonferency jnascience, Research, development №26. – Познань/Poznan, 2020. – Pp.17-19.

2. Gafurov B.Z. Analysis of the relationship of medical terminology with segment phonostylistics of the noun in Russian, Uzbek and English languages // Theoretical & Applied Science. International Scientific Journal. –Philadelphia, USA, 2020.–№1 (81). –P.464-466. http://T-Science.org. (Impact Factor SJIF 5.6).

3. MEIERKORD, Christiane (2012) Intractions Across Englishes. Cambridge University Press.

4. HUDSON, R. 2010. Sociolinguistics. Cambridge University Press.

5. GEORGIEVA, M. & A. JAMES (2010) Globalization in English Studies. Cambridge ScholarsPublishing.

6. COUPLAND, N. and Adam Jaworski (eds.). 2012. Sociolinguistics: a reader and course book. London: Macmillan Press.

ДРАМАДА РЕМАРКА ВА УНИНГ БАДИИЙ-ЭСТЕТИК ФУНКЦИЯСИ
РЕМАРКА В ДРАМЕ И ЕЕ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ
REMARKA V DRAME I EE GODLY- ESTHETIC FUNCTION

Ибодат Рустамова
филология фанлари доктори, Фарғона давлат университети
адабиётшунослик кафдраси доценти
Дилноза Муротова
Фарғона давлат университети 3-босқич талабаси

Аннотация: Мазкур мақолада драмада ремарканинг турлари ва унинг бадиий- эстетик функцияси ҳақида фикр юритилади.Ремарканинг драмадаги аҳамияти, ремарканинг бадиий асар структурасидаги ўрни ва драма қаҳрамонининг специфик хусусияти ҳақида маълумот берилади.Илимий манбаларга муносабат билдирилади, илмий-назарий хулосалар чиқилади.

Аннотация: В статье рассматриваются виды ремарки в драме и ее художественная- эстетическая функция, приводятся значение ремарки в драме, место ремарки в структуре художественного произведения, специфические характеристики героя драмы. Выражается отношение к научным источникам, делаются научные- теоретические выводы.

Annotation: The article discusses the types of direction in drama and its artistic - aesthetic function, using the meaning of direction in drama, the place of direction in special works of art, the technical characteristics of the character of the drama. The attitude to the sources is expressed, a scientific - theoretical sample is given.

Таянч сўз ва иборалар: драматик тур, специфика, хусусият, ремарка, саҳна, тур, жанр, сўз санъати, бадиий асар, ремарка, ўрин-жой ремаркаси, ҳолат ремаркаси, ҳаракат ремаркаси, психологик ремарка,

Ключевые слова и выражения: драматический тип, спецификация, черта, ремарка, сцена, вид, жанр, словесное искусство, произведение искусства, ремарка, ремарка места, ремарка ситуации, ремарка действия, психологическая

Key words and expressins: dramatic type, spec, feature, remark, scene, type, genre, word art, work of art, remark, place remark, situation remark, action remark, psychological remark,

Адабиётнинг ўрганиш объекти инсондир. Шунинг учун адабиётни инсоншунослик деб бежиз айтишмаган. Бадиий асарда инсон образи асосий қарамон сифатида қатнашади. Бинобарин адабий турнинг “гултожи” бўлган драматургияда ҳам инсон образи биринчи ўринда туради.

Адабий қаҳрамон – адабий асардаги инсон образидир. Бадиий асардаги қатнашувчи шахслар ва персонажларга нисбатан қаҳрамон деб қараш мумкин.[32] Худди шунингдек, “Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати” да бадиий асар қаҳрамонига хақли равишда бадиий асардаги иштирок этувчи шахслар [33] деб таъриф берилади. Демак, драматик асарда иштирок этувчи образлар, шу асарнинг умумий ғоясига хизмат қилувчи шахслардир. Адабий турнинг ҳар бирида қаҳрамон ўзига хос талқин этилади. Бу уларнинг воқеликни бадиий ўзлаштиришдаги усул ва имкониятларидан келиб чиқади. Драматик тургa оид бўлган тадқиқотлар ва дарсликларни кузатганимизда, драманинг спецификаси сифатида қатор хусусиятлар кўрсатилган. Жумладан, академик Иззат Султон драмада қаҳрамонларнинг хусусияти ҳақида қуйдагиларни кўрсатади: “Драматик турда характерлар тасвири бошқа адабий тур ва жанрлардан фарқли ўлароқ, жуда ҳам бўрттирилган бўлади.” [34]

Юқоридаги фикрларга қўшилган ҳолда драматик асар қаҳрамонининг специфик хусусияти қуйдагиларни қўшимча қилиш мумкин.Энг аввало ҳар қандай тур қаҳрамонининг специфик хусусияти шу турнинг жанр имкониятларидан келиб чиқади. Кузатишлар шуни кўрсатадики, драма қаҳрамонининг ўзига хос хусусияти ўзбек адабиётшунослигида кенг ўрганилмаган. Драматик тур хусусиятларига суянган ҳолда, драмада қаҳрамон сп спецификасини ўрганишни зару деб билдик. И.Султон “Адбиёт назарияси” китобида юқорида таъкидлаганимиздек, драматик турнинг специфик хусусиятига асосан тўхталиб, унинг коллектив сезимга эга эканлигини алоҳида эътироф этади. Бу драманинг бир бутун асар сифатида ўқилишида ремарканинг ўрни ниҳоятда катта эканлигини билдиради. Муаллиф ремаркаси драма қаҳрамонининг ўзига хослигини ўрганишда катта аҳамиятга эга.

80-йилларга келиб, ўзбек драматургиясида театр ва томошабин муаммоси юзага келди. Бироқ Шароф Бошбековнинг “Темир хотин” жидий комедиясининг яратилишида , бу муаммо хал этилгандай бўлди. Ҳар бир дарамаик асар саҳна учун яратилади, лекин у дастлаб сўз санъати– бадиий асарнинг намунасидир. Агар дарама томошабин талабларига жавоб бермаса, томошабин бу асарни келиб театрда кўрмай қўйса, бундан асар ўз-ўзидан тушиб кетади. Айнан шу нарсани ҳисобга олсак, демак, драма қаҳрамонининг биринчи специфик хусусияти, унинг иккинчи ҳаётини саҳнада давом эттиришидир. Драма қаҳрамони ўз ҳаётини саҳнада кўрсатиб бериш билан ажралиб туради, нисбий мустақил фаолият кўрсатади. Унинг ўзига хос хусусияти драмада муаллиф ремаркасининг мавжудлигидир.

[32] Литературный энциклопедический –Москва: Сов. энциклопедия, 1987. –603 с.
[33] Ҳатамов.Н, Саримсоқов Б. Адабиётшднослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати.–Тошкент: Ўқитувчи,1979. –Б. 335-336.
[34] Иззат Султон. Адабиёт назарияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1986. –Б 269.

Ремаркада асарда иштирок этувчи шахсларнинг ташқи кўриниши хатти-ҳаракати, қалб кечинмаси, сўзидаги интонация, шунингдек воқеалар кечадиган шарт-шароит, пайт-ўрин кабилар кўрсатилади.[35] “ Қишлоқдаги оддий, камтарона ҳовли. Тўғрида бир неча устунли пешайвон, ўнгда пастгина пешайвон, ўнгда пастгина пешайвон кўча эшик, олдинроқда ёғоч каравот. Саҳнадаги ҳар бир жиҳоз ҳар би буюмда нимадир етишмайди; эшик дераза ромларининг ярми бўялган,қолганининг ранги ўчиб кетган, ёғоч каравотнинг битта оёғи йўқ” [36] . Кейинги кўчирма шу мнбадан олинади.

Келтирилган ремаркададан бош қаҳрамоннинг яшаш шароити, уй жиҳозларининг кўримсизлиги, туну кун меҳнат қилса ҳам, яхши яшамаганлигининг гувоҳи бўламиз. Саҳнага хали чиқиб улгурмаган Қўчқор ҳақида китобхон ва режиссёрга дастлабки маълумот берилади Томошабин келтирилган ремарка ёрдамида, режисёрга дастлабки маълумотлар берилади. Томошабин келтирилган ремарка ёрдамида, режисёрнинг маҳорати асосида безатилган саҳна кўринишидан бош қаҳрамонни танийди. Эшик ва ромларнинг тўлиқ бўялмаганлигидан унинг хафсаласизлигини, ямоқ тушган пиёла, учган чойнаклардан ночорлигини, ёғоч каравотнинг оёғига қўйилган ғиштдан бечоралинини англаб олади.

Келтирилган жой тасвири ремаркасида қаҳрамон ўзининг бошланғич характеристикасига эга бўлади. Бундан ташқари, насрий асарга нисбатан бош қаҳрамонни таниш китобхон учун тезлашади. Яни у хали асар сюжетида иштирок этмасиданоқ танийди. Ремаркада берилган тасвир насрий асарларда кўп ҳолларда муаллиф нутқи орқали амалга оширилади. Бироқ насрий асардаги муаллиф нутқдан драмадаги ремарка фарқланади. Ремаркада фақат зарур, аниқ нарсаларгина берилиб, нисбатан бадиийликдан ҳоли бўлади. Келтирилган ремаркадан фақат жой тасвиригина эмас, балки бош қаҳрамон характерининг қирралари, диди, савияси ҳақида ҳам маълумот олиш мумкин. Жой тасвири ремаркаси ҳар қандай драматик асарда берилиши табиий. Ремарканинг бу кўриниши кўпроқ драманинг бошланишида берилади.

Ҳаракат тасвири ремаркасида драма қаҳрамонининг фаолиятига муносабат билдирилади, кўрсатма берилади. Драмада ҳаракат тасвири ремаркасининг аҳамияти катта, чунки унда ҳаракат биринчи ўринда туради. Драмада муаллиф қаҳрамоннинг ҳаракати жараёнига аралаша олмаганлиги учун ҳам уларнинг ҳар бир ҳаракати ремаркада берилади. Масалан: ”Пешайвон устунига “Қўқор арқон билан чандим ташланган, уст-боши, афт-ангори бир

[35] Жалилов Б. Ўзбек драмтургияси поэтикаси масалалари –Тошкент, 1984. –Б.32.
[36] Ш. Бошбеков.Эшик қоққан ким бўлди? –Тошкент, 1989. 163-бет.

аҳволда. Шу куйи ухлаб қолган бўлса керак, аввал секин қимирлаб қўйяди, сўнг кўзини очмай оёқ- қўли ўзига бўйсинмаганига ҳайрон бўлиб қаради”[37].

Қўчқорнинги ўзига хос бўлган томонлари юқоридаги ҳаракат ремаркасида янада яққол кўринади. Қуйдаги ремаркада эса, Салтанатнинг ҳолати очиб берилади. С а л т а н а т (**деворга қапишиб**). Вой, ўлиб қўя қолай!.. Вой, шўрим, Қўчқорвой, меҳмонимнинг тутқаноғи бор деб айтиб қўйсангиз бўлмайдими? Вой, тортсангиз-чи бунингизни!.. Вой, шарманда!..

А л о м а т (**муштини Салтанатнинг нақ бурнига теккизгудек қилиб**). «Ғинг» деган овозингни эшитсам, ўзингдан кўр, мегажин**!** Умуман, овозинг чиқмасин, тушундингми?! Бундан буён доим шивирлаб гапир!

С а л т а н а т. Хўп, дедим-ку, оповси, битта гапдан қолсак, ўлибмизми!

(Ш. Бошбеков. «Темир хотин». 190-бет. Драм иштирокчиларининг барчасининг ҳаракат ва ҳолатлари муаллиф томонидан берилган ҳаракат ва ҳолат ремаркаларида янада яққол кўринади. Ҳар икки ремарканинг бир вақтнинг ўзида берилиши кузатилади.

Масалан Олимтой ва Қўчқор ўртасида бўлиб ўтган суҳбат жараёнидаги бадиий ситуация ремарка ёрдамида аниқ кўрсатилади:

О л и м ж о н. Бу киши — Қўчқор ака.

Қ ў ч қ о р (**аранг жилмайиб**). Шундоқ, шундоқ...

А л о м а т. Қўчқор ака.

Қ ў ч қ о р . Лаббай?..

А л о м а т. Кўнглингизга келмасин-у, нега энди сизга ҳайвоннинг номини қўйишган, қўчқор деб?

Қ ў ч қ о р . Ие?..

А л о м а т. Қўчқор — қўйнинг эркаги-ку.

Қ ў ч қ о р . Ҳалиги... нима дейди... Ҳа энди, биз одамнинг эркагимиз-да, Аломатхон...

А л о м а т. Бизга нима хизмат бор, одамнинг эркаги?

(Ш. Бошбеков. “Темир хотин”, 174-бет)

Қумри ва К ў ч қ о р диалогида асосан психологик ремарка берилиб, Қумрининг психофизеологик ҳолатини очиб берилади.

К у м р и **(хўрлиги келиб).** Айтадиганингизни айтдингиз...

К ў ч қ о р. Айтадиганимиз нима экан?

К у м р и. Ҳали одамлар келса, тушунтириб беришади. **(кўнгли тўлиб)** Мен болаларимни олиб, ойимларникига кетдим. Мактабдан чиқиб, тўгри ўша ёққа боришади.

К ў ч қ о р. Ие, Жиннимисан, вей? Озгина шўхлик қилсак-қилибмиз энди, йигитчиликда нималар бўлмайди. •

[37] Ш. Бошбеков.Эшик қоққан ким бўлди? –Тошкент, 1989. 121-бет

К у м р и **(йиғламоқдан бери бўлиб).** Бу шўхликларингиз ўн олти йилдан бери (**томоғини кўрсатиб**) мана бу еримга келган…” [38]

Муаллиф персонаж руҳиятидаги тиғизликни тасвирлашда ҳолат ва ҳаракат ремаркаларидан фойдаланиб, образнинг руҳий ҳолатини мукаммал очиб беришга эришади.

Шундай қилиб, драматик асарларда ремарканинг аҳамияти катта бўлиб, улар асар бадиий бутунлигини таъминлашда бадиий-эстетик функция бажаради.

[38] Ш. Бошбеков.Эшик қоққан ким бўлди? –Тошкент, 1989. 167-бет

O’RMON - DALA EKOLOGIK OROMGOHLARIDA EKSKURSIYANI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA USULLARI

Usmanova Sohiba Soqibaevna
Jizzax Politexnika Instituti “Iqtisodiyot va menejment”
kafedrasi assistenti
soxibausmanova123456@gmail.com

Annotatsiya: O‘zbekistonning go‘zal tabiati va noyob qo‘riqlanadigan hududlari, noyob hayvonlar va qushlar faunasidan bahramand bo‘lishni istasangiz, mamlakatimiz milliy bog‘ va qo‘riqxonalariga tashrif buyuring. Sayyohlik kompaniyalari o’rmon va dala ekoturlarni tashkil qilishda ko'pincha nimani taklif qilishadi? Ushbu maqolada masalan, bu cho'l safari sayohatlari, dala, noyob tog'li hududlarga sayohatlar, qo'riqxonalar va milliy bog'larga sayohatlar tashkil etish, talabalarga ekoturizmda mustaqil kuzatuvchi sifatida ishtirok etishni tashkil qilish o’rgatiladi.

Kalit so’zlar: o’rmon va dala oromgohlari, flora va fauna, ekskursiya, kuzatuvchilar, didaktik o’yinlar, talabalar va o’quvchilar, axborotni uzatish sokratik suhbat, evristik suhbat.

Yozgi dala ekologik oromgohlaridagi maqsadlarning xilma-xilligi va tadbirlar mazmunining xilma-xilligi uni tashkil etishning turli shakllari va usullaridan foydalanishni talab qiladi. Didaktik maqsadlarga ko'ra, lagerlardagi barcha faoliyat shakllarini uchta asosiy guruhga bo'lish mumkin:

- axborotni uzatish va qabul qilishga qaratilgan shakllar;
- ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan shakllar;
- munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan shakllar.

Ushbu shakllarning bo'linishi faqat shartli ravishda amalga oshiriladi, chunki guruhlarning har biri o'z funktsiyalarini faqat ularning o'zaro ta'siri, izchil qo'llanilishi va ko'pincha o'zaro kirib borishi sharti bilan amalga oshirishi mumkin. Shunday qilib, amalda faoliyatni tashkil etishning ko'plab shakllari bir vaqtning o'zida bir nechta funktsiyalarni bajaradi, lekin ulardan biri ustun bo'ladi. Aynan shu dominant funktsiyaga ko'ra har bir shakl u yoki bu guruhga tegishlidir. Yozgi dala ekologik oromgohlarida faoliyatni tashkil etishning yetakchi axborot shakllaridan biri bu ekskursiyadir. Ushbu shakl tabiiy ob'ektlar va ular bilan bog'liq hodisalar haqida ma'lumotni uzatish va qabul qilishga qaratilgan. Bu shaklning samaradorligi shundan iboratki, u kuzatishlarni tabiiy sharoitlarda olib borishga imkon beradi, bunda nafaqat kuzatilayotgan ob'ektlar yoki hodisalarning xususiyatlari, balki ular o'rtasidagi munosabatlar ham ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi.

O’rmon yoki dala ekskursiyalarni o'tkazish talablarining maxsus tashkil etilishini talab qiladi. Avvalo oromgohlarda o’quvchi yoki talabalarga ekskursiya mavzusi va maqsadi haqida ma’lumot berish kerak. Keyinchalik, uni amalga oshirish joyi va muddatini ko'rsatishimiz kerak. Birgalikda muhokama qilish jarayonida tavsiya etilgan marshrutga qaysi kiyim va poyabzal eng mos kelishini va maqsadga erishish uchun qanday jihozlar kerakligini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Ekskursiyaga barcha kerakli tayyorgarlik sayohat oldidan, odatda kechasi amalga oshiriladi. Ekskursiyani suhbat shaklida boshlash maqsadga muvofiqdir, unda savollar asosida guruh rahbari (o‘qituvchi yoki tarbiyachi) o‘quvchilarga yoki talabalarga ekskursiyaning maqsadi, joyi va vaqti haqida eslatib turadi. Ushbu kirish suhbati mazmunining majburiy komponenti ekskursiya paytida xavfsiz xatti-harakatlar qoidalari bo'lishi kerak. Ko'pgina ma'lumotlar o’quvchi va talabalarga allaqachon ma'lum va rahbar ularni faqat etakchi savollar yordamida eslatib turadi. Boshqa ma'lumotlar talabalar uchun mutlaqo yangi va notanish bo’lishi kerak. Bu yerda yetakchining vazifasi talabalarga muhim ma'lumotlarni yetkazishdir. Bu muammoni turli usullar bilan hal qilish mumkin.

Axborotni yetkazishning eng oddiy, ammo kam samarali usuli bu uni tayyor shaklda o'quvchilarga etkazishdir. Bu holda axborot funktsiyasi "tinglang va eslang" tamoyiliga muvofiq amalga oshiriladi. Oddiy ta'lim sharoitida tayyor ma'lumotni o'zlashtirish samaradorligi, qoida tariqasida, 1/3 dan oshmaydi. Ekskursiya davomida o‘quvchilarning ko‘p chalg‘ituvchi omillar bilan o‘ralganligini hisobga olsak, o‘rganish samaradorligi yanada past bo‘ladi. Shuning uchun ekskursiyalar bo'yicha sof ko'rsatma faqat boshqa usullardan foydalanish mumkin bo'lmagan hollarda tavsiya etiladi. Talabalarni xabardor qilishning samarali usuli bu Sokratik suhbatdir. Axborot berishning bu usuli o'quvchilarni bosqichma-bosqich kerakli xulosaga keltirishni o'z ichiga oladi. Ushbu xulosaning asosiy vositasi guruh rahbarining etakchi savollaridir. Bunda o‘quvchilarda zarur xulq-atvor qoidalari ularga tashqaridan yuklanmagan, balki o‘zlari tomonidan ishlab chiqilgandek taassurot paydo bo‘ladi. Bunday qoidalar odatda aniqroq amalga oshiriladi va ularga rioya qilish ayniqsa o'quvchilarning o'zlari va tengdoshlari tomonidan qattiq nazorat qilinadi. Talabalarni xabardor qilishning yanada samarali usuli bu evristik suhbatdir. Bu erda ekskursiyalarda xavfsiz xatti-harakatlarning har bir qoidasini muammoli vaziyat ko'rinishida, unga hamroh bo'lgan barcha shartlar bilan taqdim etish muhimdir. Bolalarni ushbu muammoli vaziyatni hal qilish variantlarini ishlab chiqishga undash kerak. Guruh boshlig'i bu holatda "raqib" rolini o'ynaydi, u aniqlovchi savollarni beradi, tegishli xatti-harakatlar qoidalarini eng aniq shakllantirishni talab qiladi. Ekskursiyalarda o'quvchilarning xavfsiz xulq-atvori qoidalari haqida talabalarni xabardor qilishning u yoki bu usulini tanlashda ularning yoshini hisobga olish muhimdir. Turistlar qanchalik katta bo'lsa, ularga ko'proq mustaqillik berilishi mumkin. Ekskursiyaning keyingi bosqichi - marshrut bo'ylab ob'ektlar va tabiat hodisalarini kuzatish. Ushbu kuzatuvlarning muhim qismi frontal

ravishda sodir bo'ladi. Demak, barcha o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida o‘qituvchi yoki tarbiyachi rahbarligida bir xil narsa yoki hodisalarni kuzatishadi. Bu kuzatuvlarning eng yuqori samaradorligiga axborot talabalar tomonidan eng ko'p sonli analizatorlar orqali qabul qilinganda erishiladi: vizual, eshitish, taktil, hid bilish, istisno hollarda, ta'm. Bu holatda istisno, birinchi navbatda, o'quvchilarning sog'lig'i uchun kuzatuvlarning xavfsizligini hisobga olgan holda belgilanadi. Frontal kuzatishlar jarayonida olingan ma'lumotlar, qoida tariqasida, og'zaki tarzda qayd etiladi. Ya'ni, o'quvchilar kuzatilgan narsa va hodisalarni og'zaki nomlaydi va tasvirlaydi. Kuzatish natijalarini og'zaki aniqlash savollar yoki guruh rahbarining topshirig'i asosida amalga oshirilishi mumkin. Og'zaki nutqning elementar axloqiy me'yorlariga rioya qilish muhim ahamiyatga ega, o'quvchilar nutqining to'g'riligini nazorat qilish, qiyinchilik tug'ilganda ularga yordam berish kerak. Ekskursiyada frontal kuzatishlar bilan bir qatorda guruh kuzatuvlaridan ham foydalaniladi. Bunda barcha o‘quvchilar guruhlarga (asosan o‘z xohishiga ko‘ra) bo‘linganligini bildiradi, ularning har biri kuzatish uchun topshiriq oladi. Bu vazifalar barcha guruhlar uchun bir xil bo'lishi mumkin yoki ular farq qilishi mumkin. Guruh kuzatuvlarini o'tkazish uchun guruh a'zolari o'rtasidagi mas'uliyat yoki rollarni aniqlash kerak. Ayniqsa, butun guruh ishini tashkil eta oladigan uning rahbarini aniqlash juda muhimdir. Guruh kuzatuvlarida talabalar turli jihozlardan foydalanishlari mumkin: o'lchash asboblari, kompas, materiallarni yig'ish uchun idishlar, lupalar, durbinlar va boshqalar. Guruh kuzatuvlari natijalari, qoida tariqasida, oldindan tayyorlangan jadvallar, belgilar, diagrammalar yoki rejalarni to'ldirib, qisqacha eslatmalar shaklida yozma ravishda qayd etiladi. Shu bilan birga, bu muhim ahamiyatga ega shunday qilib, guruhdagi ish birgalikda, olingan natijalarni majburiy muhokama qilish, kuzatish natijalari bo'yicha umumiy xulosa ishlab chiqish bilan amalga oshiriladi. Guruh kuzatuvlari natijalari ekskursiyaning barcha ishtirokchilariga guruh rahbari yoki hisobot topshirilgan guruhning istalgan a'zosi tomonidan xabar qilinadi. Turli guruhlarning kuzatish natijalari bir-biriga taqqoslanadi, takomillashtiriladi va ular asosida umumiy xulosalar chiqariladi. Ekskursiyalar haqida ma'lumot olish uchun individual kuzatishlar alohida ahamiyatga ega. Ularning qiymati har bir talaba tomonidan uning individual xususiyatlariga mos keladigan hajm, sur'at va mazmunda o'tkazilishi bilan belgilanadi. Aynan individual kuzatishlar jarayonida talabalar nafaqat ko'rish, eshitish, hidlash yoki teginish, balki o'z kuzatishlari natijalarini o'ylash, xayol qilish va ijodiy idrok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Albatta, bularning barchasi maxsus tashkilotsiz mumkin emas. Shaxsiy kuzatuvlar har bir talabaning bilim chegaralari bilan belgilanadigan shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim muammosiga asoslanishi kerak. Ya'ni, kuzatish natijasida talaba avval bilmagan narsalarini bilib olishi kerak. Bunday bilimlarni yangilash vositalari quyidagilar bo'lishi mumkin: muammoli masala; talabalar yoki ularning rahbari tomonidan ilgari surilgan gipoteza; kuzatish jarayonida tasdiqlash

yoki rad etishni talab qiluvchi qarama-qarshi fikrlar. Individual kuzatishlar jarayonida talabalarga kuzatish ob'ektlarini, uni o'tkazish va belgilash usullarini, natijalarini baholashni erkin tanlash huquqi va imkoniyati beriladi. Ko'pincha, individual kuzatishlar jarayonida o'quvchilar eskizlar tuzadilar, yorqin epithetlarni tanlaydilar, she'riy asarlarni eslaydilar yoki o'z fikrlarini qofiya qiladilar. Bularning barchasi individual kuzatishlar jarayonida yuzaga keladigan yuqori hissiy ko'tarilishdan dalolat beradi. Ekskursiyaning keyingi bosqichi - olingan ma'lumotlarni birlamchi umumlashtirish va mustahkamlash. Bu muammolarni turli yo'llar bilan ham hal qilish mumkin. Bu holda ekskursiyalarni o'tkazishning eng mashhur usuli didaktik ochiq o'yinlar bo'lib, unda o'quvchilar kuzatilgan ob'ektlar va hodisalarning muhim xususiyatlarini ajratib ko'rsatish, tasvirlashga, o'rgatiladi. Bunday o'yinlarning qoidalari odatda uning ishtirokchilarining motor faolligini, zarur ma'lumotlarni qayta tiklash tezligi uchun raqobatni, asosiy ma'lumotlarni shakllantirishning aniqligi va qisqaligini o'z ichiga oladi. O'quvchilarga nafaqat alohida nomlar va xususiyatlar to'g'risidagi bilimlarni, balki kuzatilgan ob'ektlar va hodisalar o'rtasidagi aloqalarni ham namoyish qilish imkoniyati berilgan o'yinlar alohida didaktik ahamiyatga ega. Yuqoridagi vazifalarni hal qilishga qaratilgan yana bir usul - umumlashtiruvchi suhbat bo'lib, uning o'zagi o'quvchilarning kuzatilgan ob'ektlar va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash imkonini beradigan savollarga javoblari hisoblanadi. Bu erda ekskursiya bo'yicha asosiy xulosalarni talabalarning o'zlari qilishlari muhimdir. Ekskursiyaning yakuniy bosqichi o'z natijalarini sarhisob qiladi, bunda har bir talaba o'z ma'lumotlarining o'sishidan xabardor bo'lishi kerak. Ya'ni, har bir talaba o'zi uchun savolga javob berishi kerak: men ekskursiyadan oldin nimani bilmaganman, lekin hozir bilaman. Agar bir vaqtning o'zida har bir talaba yangi bilimlarni olganligini ko'rsatsa, uni qat'iy shaklda ko'rsatsa, bu juda foydali. Ammo ma'lumotni uzatish va qabul qilishga qaratilgan shakl sifatida ekskursiya bu muammoni to'liq hal qilmaydi. Kuzatishlar natijasida barcha bilimlarni olish mumkin emas. Ko'pgina muhim ma'lumotlar faqat nazariydir va ularni o'zlashtirish yozgi dala ekologik lagerida taqdim etilishi mumkin bo'lgan adabiy manbalar, boshqa axborot vositalari (audio, video, Internet va boshqalar) bilan ishlashni talab qiladi. Bu talabalar faoliyatini tashkil etishning boshqa shakllaridan foydalanishni talab qiladi. Yozgi dala ekologik oromgohida ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan faoliyatni tashkil etish shakllari orasida amaliy va laboratoriya ishlari alohida o‘rin tutadi. Ularni amalga oshirish jarayonida o'quvchilar asosiy kompetentsiyalar asosidagi maxsus harakatlar va ularni amalga oshirish algoritmlarini o'zlashtiradilar. Treningda faoliyatni tashkil etishning har qanday shakli kabi amaliy ish ham aniq belgilangan tuzilishga ega. U quyidagi komponentlar bilan ifodalanadi: amaliy ish maqsadini belgilash; asboblar bilan xavfsiz ishlash texnikasi bo'yicha brifing; amaliy ishlarni amalga oshirish rejasini taqdim etish yoki qurish; natijalarni nazorat qilish va baholash. Dala ekologik oromgohida amaliy

ishlarni samarali qo‘llashning muhim sharti uning amaliy ahamiyati bo‘lib, buni talabalarning o‘zlari ham e’tirof etadilar. Bu ahamiyat ularni ta'limning haqiqiy maqsadlari "biz qanday qilishni bilmaymiz, lekin biz o'rganishni xohlaymiz" va talabalar atrofidagi muhitni o'zgartirish maqsadlari “biz mavjud muammolarni ko'ramiz va hal qilishni xohlaymiz” bilan belgilanishi mumkin. Ikkala holatda ham talabalarning shaxsiy pozitsiyasi, o'z amaliy faoliyatining maqsadlarini belgilashdagi faolligi nihoyatda muhimdir. Bu holat maqsadni belgilash bosqichida texnika va usullar majmuasini belgilaydi. Bu erda eng mos usullar: muammoli suhbat, muammoli vaziyat, mini-nizo, blits-so'rov. Shu bilan birga, talabalarning o'zlari ular uchun faoliyatning umumiy yo'nalishlari allaqachon tanish va tushunarli ekanligini (ular tegishli bilimlarni shakllantirish jarayonida shakllantiriladi), lekin ular zarur ko'nikmalarga ega emasligini tushunishlari muhimdir. Shunday qilib, amaliy ish jarayonida talabalarda bu ko'nikmalarni egallashga ichki ehtiyoj paydo bo'lishi kerak. Ishning maqsadi nima bo'lishini aniqlagandan so'ng, talabalar o'qituvchi rahbarligida uni amalga oshirish uchun qanday vositalar va qurilmalar kerakligini aniqlashlari kerak. Ularning nomenklaturasini aniqlagandan so'ng, talabalar ularning qurilmasi bilan tanishishlari kerak. Buni frontal tushuntirish, so'ngra haqiqiy asboblar yoki asboblarni namoyish qilish orqali amalga oshirish mumkin. Tushuntirishda asboblar yoki asboblarning o'quvchilarga shikast etkazishi mumkin bo'lgan qismlariga alohida e'tibor berish kerak.Ularning qurilmasi bilan tanishib chiqqandan so'ng, asboblar va asboblar bilan xavfsiz ishlash qoidalarini shakllantirish kerak. Ushbu ishning samaradorligi bevos ita talabalar ushbu qoidalarni qanday mustaqil ravishda shakllantirishlariga bog'liq. Amaliy ishning keyingi bosqichi uni amalga oshirish uchun tayyor rejani taqdim etish yoki talabalarning o'zlari tomonidan bunday rejani tayyorlashdir. Ishning maqsadi va zarur jihozlarni aniqlab, talabalar tarbiyachi yoki o'qituvchi rahbarligida maqsadga erishish uchun bajarilishi kerak bo'lgan harakatlar ketma-ketligini tuzadilar. Agar talabalar kichik bo'lsa yoki ularning tayyorgarlik darajasi ularga mustaqil ravishda amaliy ish rejasini tuzishga hali imkon bermasa, bu holda har bir talaba nafaqat taklif qilingan narsalarni eslab qolishi uchun muhokama qilinishi kerak bo'lgan tayyor reja taklif etiladi. ketma-ketlikda, balki uning maqsadga muvofiqligini ham tushunadi. Amaliy ish rejasi o'quv doskasi, stend, plakat, tarqatma kartochkalar va boshqalarda taqdim etilishi mumkin. Shu bilan birga, bu muhim ahamiyatga ega. Amaliy ishning markaziy bosqichi o'z maqsadiga erishishga qaratilgan amaliy harakatlarning amalga oshirilishi hisoblanadi. Bu harakatlar frontal, ya'ni barcha o'quvchilar tomonidan bir vaqtning o'zida o'qituvchi yoki tarbiyachi rahbarligida bajarilishi mumkin. Ularni amalga oshirishning yana bir varianti har bir guruh uchun alohida topshiriq ustida guruhlarda ishlash bo'lishi mumkin. Bu erda o'rta maktab o'quvchilari yoki oldindan maxsus tayyorlangan bolalar orasidan guruh maslahatchisi yordamidan foydalanish tavsiya etiladi. Guruhlarda ishlash

muvaffaqiyatining muhim sharti uning izchilligi va izchilligidir. Guruh qanday ishlashi uning tarkibi doimiy yoki o'zgaruvchan bo'lishini aniqlaydi. Ayrim amaliy ishlarni har bir talaba individual bajarishi mumkin. Biroq, talabalarning individual ishi rahbardan uning bajarilishini nazorat qilish va tuzatish uchun qo'shimcha harakatlarni talab qiladi. Talabalarning individual ishi jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yana bir murakkablik - bu ishni bajarish vaqtidagi nomuvofiqlik. Amaliy ishning yakuniy bosqichi uning natijalarini nazorat qilish va baholashdir. Shu bilan birga, nazorat predmeti - belgilangan maqsadga erishish fakti, baholash predmeti esa ushbu yutuq darajasi va amalga oshirish sifati ekanligini unutmaslik kerak. Nazorat va baholash faqat guruh rahbarining vakolatiga aylanmasligi kerak. Talabalarning o'zlari ish maqsadiga erishilganmi yoki yo'qligini tushunishlari va olingan natijalarni baholashlari muhimdir. Ushbu muammoni hal qilishning eng yaxshi usullari quyidagilardir: talabaning hikoyasi, suhbati (yakka tartibda yoki guruhda), muhokama, mini-disput, reyting va o'zini o'zi baholash. Laboratoriya ishi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan shakl sifatida amaliy ishlardan tuzilishi jihatidan jiddiy farq qilmaydi. Bu holatda etakchi usullar eksperimentlar va tajribalar bo'ladi. Ularning asosiy farqi shundaki, ularni amalga oshirish natijalari talabalarga oldindan ma'lum emas. Munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan shakllar orasida bahslar, konferensiyalar va festivallar alohida o'rin tutadi. Ushbu shakllar talabalar tomonidan yangi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bo'yicha o'z ishlari natijalarini taqdim etishga asoslanadi. Olingan natijalarni tayyorlash va taqdim etish jarayonida talabalar o'zlarining pozitsiyalarini, nuqtai nazarlarini rivojlantiradilar, ular asosida ekologik faoliyat, uning ob'ektlari va sub'ektlariga munosabat shakllanadi. Ushbu shakllarni amalga oshirishda texnika va usullarni tanlash o'quvchilarning faolligi tamoyiliga asoslanadi. Bu holda reproduktiv usullardan foydalanish tavsiya etilmaydi.

Adabiyotlar ro’yxati.

1. 1. O’zbekiston Respublikasининг “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida” gi PF-6199- farmoni.2021 yil 6-aprel. //www.lex.uz

2. Колотова Е. В. Рекреационное ресурсоведение: Учеб. пособие. - М.: РМАТС.

3. XALQARO EKO TURLAR BOZORI ISHTIROKCHILARI O‘RTASIDAGI O‘ZARO MUNOSABATLAR S Usmanova - Interpretation and researches, 2023

4. AQSH YAPONIYA FIRMALARIDA XODIMLARNI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI SS Usmonova - Экономика и социум, 2022

ALGORITMNING ANOMALIYALARNI ANIQLASH ALGORITMI PARAMETRLARIGA BOG‘LIQLIGINI TEKSHIRISH

Rustamova Maftuna Sirojiddin qizi
M-Sc.IT “Kompyuter texnologiyalari” yo‘nalishi


Annotatsiya: Xarris algoritmining javob xaritasini binarlashdan so‘ng, ma’lum miqdordagi bog‘langan sohalarga ega bo‘lgan binar tasvir olinadi. Ular asl tasvirning ma’lum joylariga mos keladi. Ular orasida Avtomobil raqamining maydoni bo‘lishi mumkin. Raqam qaysi soha ekanligini aniqlash uchun algoritm anomaliyalarni aniqlash algoritmidan foydalangan holda ushbu sohalarni tasniflash masalasini hal qiladi, bu sohalar orasidan avtomobil raqamini topadi.

Tayanch so‘z, iboralar: Grafik, gauss qiymati, mantiqiy, kesish chegarasi, qiymat, koordinata.

Algoritmda juda muhim parametr – bu chegara chegarasining qiymati. Agar ko‘p o‘lchovli fazoda ma’lum bir nuqtada hisoblangan ehtimollik chegaradan katta bo‘lsa, u holda rasmning tegishli maydoni raqamlar sinfiga tayinlanadi. Aks holda, soha bu sinfga berilmaydi.

Tasniflash natijasiga eng muhim ta’sir ko‘rsatadigan anomaliyalarni aniqlash algoritmining asosiy parametri algoritmning chegara chegarasi qiymati hisoblanadi. Bo‘sag‘ani kesish chegarasini to‘g‘ri tanlash test xususiyati vektorlarini ikki sinfga to‘g‘ri bo‘lish imkonini beradi. Agar tasnif noto‘g‘ri bo‘lsa, anomaliyalarni aniqlash algoritmining noto‘g‘ri javoblari soni sezilarli darajada oshadi.

Ushbu bandda avtomobil raqamlarini aniqlashning aniqligi anomaliyalarni aniqlash algoritmining kesish chegarasi qiymatiga bog‘liqligi o‘rganiladi. 1-rasmda 0 dan 4•10-6 gacha bo‘lgan chegara qiymatlari diapazoniga bog‘liqlik grafigi ko‘rsatilgan.




1-rasm. Aniqlash aniqligining chegarani kesish qiymatiga bog‘liqligi

Ko‘rinib turibdiki, chegara qiymatining oshishi bilan aniqlash aniqligi pasayadi. Ushbu qonuniyat juda mantiqiy: kesish chegarasining oshishi algoritm tomonidan normal signal qiymatlari sifatida tasniflangan belgi qiymatlari maydoni torayishi va anomaliyalarga mos keladigan belgi maydoni kengayishiga olib keladi.

Bundan tashqari, chegara qiymatining yanada oshishi bilan, ramkadagi raqamlar bo‘shliqlari sonining ko‘payishi tufayli aniqlash aniqligining keskin pasayishi sodir bo‘ladi. Aksincha, kesish chegarasining pasayishi aniqlash aniqligining oshishiga olib keladi, chunki normal signal qiymatlariga mos keladigan belgilar maydoni kengayadi. Biroq, chegara qiymatini juda past darajada o‘rnatish anomal bo‘lgan signallarning bunday belgi maydoniga tushishiga olib keladi. Shunday qilib, ramkaning u mavjud bo‘lmagan joylarida raqamni noto‘g‘ri aniqlash soni ortadi.

Grafikda, qo‘shimcha ravishda, chegaraning 10^{-6} qiymatidagi xatti-harakatlarini ta’kidlash kerak. Bu yerda funksiyaning yemirilish tezligi keskin kamayadi. Bu xatti-harakat juda tushunarli. Yuqorida aytib o‘tilganidek, normallar sinfiga tegishli misollar Gauss taqsimotiga ega parametrik model tomonidan yaratilgan. Gauss qiymati uchun qoida to‘g‘ri bo‘lib, unda 99,7% ehtimollik bilan uning barcha qiymatlari o‘rtacha tanlamadan 30 dan uzoq bo‘lmagan oraliqda yotadi. Ushbu intervaldan tashqaridagi qiymatlar anomaliya deb e’lon qilinadi. Shuning uchun, bu intervalning chegaralariga mos keladigan ehtimollik qiymati normal va g‘ayritabiiy signal qiymatlari o‘rtasidagi chegara vazifasini bajarishi mumkin. Taqdim etilgan grafikda 10^{-6} chegarasi faqat belgi qiymatlari oralig‘i chegarasiga to‘g‘ri keladi (μ–3σ, μ+3σ).

1-rasmda modelning chegaraga nisbatan sezgirligi va o‘ziga xosligi tasvirlangan. Ko‘rinib turibdiki, ular 10^{-6} chegara nuqtasida burilish bor. Buning sababi allaqachon yuqorida ko‘rsatilgan: bu kesish chegarasining qiymati normal va g‘ayritabiiy signal qiymatlari orasidagi chegaraga to‘g‘ri keladi. Yuqoridagi grafiklar $5{,}5 \cdot 10^{-5}$ chegara qiymatiga mos keladigan nuqtada kesishadi.




2-rasm. Anomaliyalarni aniqlash algoritmining kesish chegarasini aniqlash

10^{-6} va $5 \cdot 10^{-5}$ chegaralarida aniqlash aniqligi qiymatlari bir-biridan ozgina farq qiladi. Shuning uchun, ushbu qiymatlar oralig‘ida chegara qiymatini o‘zgartirish

aniqlash aniqligiga kuchli ta’sir ko‘rsatmaydi. Shu bilan birga, yuqori chegara qiymatini belgilash to‘g‘ri ajratilgan raqamlar sonining kamayishiga olib keladi.

Taklif etilgan anomaliyalarni aniqlash algoritmi doirasida aniqlash aniqligining o‘quv ma’lumotlar bazasidagi tasvirlar hajmiga bog‘liqligi o‘rganildi. Buning uchun o‘quv majmuasidagi barcha tasvirlarning chiziqli o‘lchamlari mutanosib ravishda 1,5, 2, 2,5, 3, 3,5, 4, 4,5 va 5 marta qisqartirildi. Natijada turli xil miqyosdagi 9 ta o‘quv ma’lumotlar to‘plami paydo bo‘ldi. Keyinchalik, ushbu ma’lumotlar to‘plamining har birida anomaliyalarni aniqlash algoritmi o‘qitildi. O‘qitilgan tasniflagichlar avtomobil tasvirlarining test bazasida sinovdan o‘tkazildi. 2-rasmda aniqlash aniqligining o‘quv majmuasidagi tasvir masshtabiga bog‘liqligi ko‘rsatilgan.




3-rasm. Aniqlash aniqligining o‘quv majmuasi tasvirlari masshtabiga bog‘liqligi

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, o‘quv majmuasi tasvirlari miqyosi ortishi bilan sinov bazasida davlat raqamlarini aniqlashning aniqligi oshadi. Bu katta masshtabli tasvirlar ko‘proq lokal xususiyatlar va xarakterli tafsilotlarni o‘z ichiga olganligi bilan izohlanadi, ularning mavjudligi xususiyatlardan foydalangan holda avtomobil raqamini aniqroq tasvirlash imkonini beradi.

Ushbu xulosani qo‘shimcha ravishda ROC egri chiziqlarini qurish orqali tekshirish mumkin. 3-rasmda o‘quv majmuasining asl tasviri masshtabini o‘zgartirmagan, 3 marta o‘zgartirgan, 5 marta o‘zgartirilgan holatlar uchun bunday egri chiziqlar oilasi ko‘rsatilgan.

Ko‘rinib turibdiki, koordinatalar tizimining yuqori chap burchagiga eng yaqin bo‘lgan o‘quv jarayonida masshtablanmagan tasvirlardan foydalanishga mos keladigan egri chiziqdir. Masshtabni o‘zgartirganda, ROC egri chizig‘i pastga siljiydi va koordinatalar tizimining burchagi bissektrisasining joylashishiga yaqinlashadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, kattalashtirishda tasvirning ko‘plab batafsil xususiyatlarining yo‘qolishi ishlatiladigan statistik tasniflash modelining bashorat qilish qobiliyatini sezilarli darajada pasayishiga olib keladi.



4-rasm. O‘quv to‘plamining turli tasvir masshtablari uchun ROC egri chiziqlari oilasi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Лукьяница А. А., Шишкин А. Г. Цифровая обработка видеоизображений. – М.: «Ай-Эс-Эс Пресс», 2009.

2. Петров В.А. Применение алгоритма локальной бинаризации цифровых изображений в задаче выделения автомобильных номеров // XIII межвузовская научно-практическая конференция курсантов «Проблемы развития и применения средств ПВО в современных условиях» сб. докл.,2013 г. Стр. 70-74.

3. Дамьяновски В. Библия видеонаблюдения. Цифровые и сетевые технологии. – М.: Ай-Эс-Эс пресс, 2006.

KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA KONSEPT TUSHUNCHASI VA UNING TURLI TILLARDAGI IFODALANISHI

G‘ulomova Bibi Muxlisa Maxmudjon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti, Ingliz filologiyasi,
o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti talabasi

Annotatsiya. Kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyada konseptga har bir millatning dunyoqarashi va mentaliteti orqali olamning lisoniy manzarasini tasavvur qilish sifatida qaralmoqda. Ushbu maqolada lisoniy manzara tasvirida konsept ifodasi muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: bilim, konsept, tushuncha, konseptosfera, tafakkur, konsentrat.

KIRISH

Konsept o‘zi nima? «Konsept» termini falsafada U.T.Gobbs, P.Abelyar, U.Okkam kabi faylasuflar asos solgan o‘rta asrlar konseptualizmi davriga tegishli bo‘lib, ularning fikricha, konseptlar narsalar belgilarini umumlashtiruvchi va ong tomonidan uning ichki foydalanishi uchungavdalantirilgan, o‘zida muhim va dolzarb axborotni jamlagan universal omillardir.

ADABIYOTLAR SHARHI

«Konsept» termini ilk marta S.N.Askoldovning 1928 yildayozilgan «Konsept va so‘z» maqolasida ishlatilgan. Konseptlarga berilgan ta’rif va ularning tipologiyasi, ularni o‘rganishga oid yondashuvlar har xil bo‘lib, hozirgi zamon tilshunosligida «konsept» termini dunyo haqidagi bilimlarninamoyon etish shakllaridan biri sifatida ishlatiladi. Biroq Z.D.Popova va I.A.Sternin to‘g‘ri ta’kidlashganidek, tilshunoslikda konsept terminining olam haqidagi bilimlarni namoyon etuvchi turli talqinlari mavjud. Sh.Safarovning fikricha, «konsept» tushunchasining o‘ta mavhum hodisa ekanligi, uning zamiridagi «mental struktura» aniq moddiy ko‘rinishga ega bo‘lmasdan, balki aqliy idrok jarayonida hosil bo‘ladigan, tasavvurdagi tuzilma ekanligi unga (konseptga) to‘liq javob berishni qiyinlashtiradi. N.Mahmudov ham terminologiya masalasida to‘xtalib, «ular haqida tilshunoslikda juda ko‘p yozilgan bo‘lishiga qaramasdan, hali-hamon ularning ayrimlari, masalan: «lisoniy shaxs», «konsept» terminlari talqinida bir xillikka erishilgan emas», deb yozadi. Bundan tashqari, «konsept» bilan «tushuncha»ni bir-biridan ajratishmuammosi ham o‘z yechimini to‘liq topgan,deb bo‘lmaydi. Qadim va zamonaviy tadqiqotlarda turli nuqtai nazarlarning mavjudligi ham buni ko‘rsatib turibdi. Jumladan, o‘rta asrlardayoq P.Abelyar: Tushuncha ongli (intellectus) va ratsional bilim (tushunish) bilan bog‘liq, konsept (conceptus) – ma’nolarni ijodiy talqinqilishga qodir yuksak ma’naviyat, ong hosilasi,

deb yozgan bo‘lsa, V.N. Yarseva «tushuncha» va «konsept» terminlarini sinonim sifatida keltiradi [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Olamning lisoniy manzarasida konseptosfera til birliklari va ma’nolar majmui bilan ifodalanadi. Konseptosfera tildagi alohida so‘zlar orqali ham ifodalanishi mumkin. Bunda biror konseptga xos bo‘lgan tushuncha va ma’nolarning maydoni yoki ularning majmui konseptosferani tashkil qiladi.

Konsept va konseptosfera terminlarining o‘xshash tomonlari ularning inson ongida paydo bo‘lib, birorbir obrazni tasvirlashida ko‘rinadi. Binobarin, konseptosfera fikrlash in’ikosi sifatida hamda universal bir predmetga xos ramziy birliklarning majmui sifatida insonlarning axborot doirasini tashkil qilib, u tilbirliklari bo‘lgan so‘z, metafora, frazeologizmlar, sintaktik struktura kabilar orqali ifodalanadi [2].

Metafora nominativ, obrazli va ekspressiv funksiyasidan tashqari, yana konseptual vazifani ham bajaradi. Konseptual metaforaning roli ayniqsa, mavhum tushunchalarni belgilashda yaqqol ko‘rinadi. Metaforaning mazmuni asosiy va ko‘makchi komponentlarning o‘zaro ta’sirida namoyon bo‘ladi. Metafora borliqdagi turli sohalarda mavjud bo‘lgan ob’ektlarni nomlab, shu bilan tilning leksik va frazeologik qatlamlarini boyituvchi vositadir. Bunda «konseptual metafora avval lisoniy aks ettirilmagan hodisalarni verballashtiradi va unga borliqni yanada chuqurroq, konseptual sathda ifodalovchi vosita sifatida qaraladi. Ushbu maqolada «zoomorfizm» konsept bo‘lsa, uni qurshab olgan semantik/pragmatik maydon «konseptosfera» (termini)da yoritildi.

Quyida «odam+hayvon»konseptosferasida arximetafora va metaforik hodisaning iboralaryasalishidagi ishtiroki jarayonini qisqaifodalashga harakat qilindi. Bunda inson tafakkurida metafora hosil bo‘lishiga qadar birlamchi yadro arximetafora mavjudligi ifodalashga harakat qilindi.

Bu konseptosferada «tana + harakat»maydonida joylashgan «harakat pastdan»va «harakat tepadan» arximetaforalari voqelikda kishining muayyan holatini ularga xos konseptual metaforalar (paytavaga qurt tushmoq) **qurt** (g‘imirlash) va (tanada chumoli o‘rmalamoq) **chumoli**(jimirlash) zoomorfizmlari orqaliyaralishida u yoki bu jihatdan asos bo‘ldi. Binobarin, bu «odam+hayvon» konseptosferasida inson fikrlashiga oid in’ikoslar, universal ramziybirliklarning majmui arximetafora vametafora; metaforalar o‘z navbatida «paytavasiga qurt tushmoq» va «(tanasida) chumoli o‘rmalagandek» FBlar orqali ifodalandi: 1) Paytava issiq tutish va terlamaslik uchun oyoqqa o‘raladigan mato bo‘lib, u oyoqqa o‘ralganda uning ichiga tushib qolgan qurt g‘imirlasa, odam tipirchilab qolishi mumkin. Bu iboraning to‘g‘ri ma’nosi. Ammo paytava deyarli qo‘llanilmaydigan bugungi kunda biror odamga nisbatan bu ibora ishlatilsa, demak, ishlar joyida emas, nimadandir o‘zini qo‘yarga joy topolmayotganligitushuniladi. Bu asrlar qa’ridan tafakkurimizda yashab kelayotgan arximetafora hisoblanadi.

Masalan: (Shoira): Uxlashib bo‘pti. Hammasining oromi buzildi. Paytavasiga qurt tushdi, nazarimda. Ikkala opam ham tipirchilab qolishdi (J.Jabborov. Uyqusiz kecha, 19). O‘TILda ham bu iboraning «bezovtabo‘lmoq, yelib-yugurib qolmoq» ma’nosida ishlatilishi misollar bilan yoritilgan: Hudaychi jo‘nagach, qo‘rg‘onbegining paytavasiga qurt tushib, tipirchilab qoldi va u yoqdan bu yoqqa yugura boshladi (A. Qodiriy. O‘tgan kunlar) [3]. Ushbu ibora davr jihatdan yuz yillik farq oralig‘ida yozilgan yuqoridagi asarlarda pragmatik jihatdan bir xil jaranglab turibdi. Bunday iboralarning etimologiyasi uzoq o‘tmishga boribtaqaladi.

2) Chumoli o‘rmalagandek turg‘un o‘xshatmani chog‘ishtirib tahlilqilganimizda, «chumoli» zoomorfizmi o‘zbek milliy konsepti ekanligi asoslandi. Muqobil sifatida ispan tilida carne de gallina , rus tilida esa gusinaya koja iborasi ishlatiladi. O‘zbek tilida **chumoli**, ispan lisoniy manzarasida gallina **- tovuq**, rus tilida gus - **g‘oz** obrazi qo‘llanilganligi turli xalqlar tafakkurida «etning jimirlab ketishi» har xil hayvon konseptining muayyan halq tomonidan qabul qilingan konseptual metaforalashtirish mexanizmi asosida yuz berishini ko‘rsatadi. Masalan: Recuerdo que se me puso **la piel de gallina** (M.de Unamuno, Abel Sanchez, 47).; Sayloning vujudida **chumoli o‘rmalagandek** bo‘ldi. Bir seskanib, vujudijimirlab ketdi

XULOSA VA MUNOZARA

Demak, olamning lisoniy manzarasini anglashda konsept va konseptosferada turli obrazlarni tadqiq va tahlil qilish tilshunoslik fani sohalari hamda tarjimashunoslik rivojiga talayyangiliklarni ochib berishi shubhasiz.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Abduazizov A. Tilshunosligimiz istiqbollari // Filologiya masalalari – T., 2011. – №3 B.22-25.
2. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...// O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2012. -№ 5. –B. 3-16.
3. Mengliev B.R., Xolmanova Z.T.Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. –T.,2016. – 145 b.
4. Xudayberganova D.S. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini. Doktorlik diss. avtoreferati. – T., 2015. – 102b.
5. Popova Z.D., Sternin I.A. Tilning semantik-kognitiv tahlili. Voronej: "Manbalar", 2016. 226 b.
6. Рашидов, Д. (2023). Давлат-хусусий шерикликда таваккалчилик турлари. Scienceweb academic papers collection.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI ORASIDA NUTQIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH

Oripov Xakimjon Tursunovic
Namangan VPYMOMM o'qituvchisi
Ummatova Raxima Karimberdi qizi
Uychi tuman 3 maktab o'qituvchisi
Axatova Xiyoda G'aniyevna
Kosonsoy tuman 2- maktab o'qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqolaning asosiy maqsadi o'quvchilarni nutq madaniyatiga o'rgatish, odatlantirish va shirinsuxon qilib tarbiyalash haqida so'z boradi. Bu maqsad yo'lida nuroniy keksalarimiz, o'qituvchilar, ota-onalar birgalikda yoshlarga bor ilmini berib, namuna bo'lishga chaqiriladi.

Kalit so'zlar: Nutq madaniyati, axloq-odob, til, so'z, tafakkur, talaffuz, iboralar, maqol va metal, notiqlik, shirinsuxonlik, fikrlash qobiliyati.

IMPROVING SPEECH LITERACY AMONG PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation. The main purpose of this article is to teach students the culture of speech, to get used to it and to bring them up in a sweet way. To this end, our enlightened elders, teachers and parents are called upon to set an example by imparting their knowledge to the youth.

Keywords: Speech culture, ethics, language, word, thinking, pronunciation, phrases, proverbs and metal, oratory, sweetness, thinking ability.

Nutq madaniyati bevosita axloq-odob prinsiplariga bog‘liqdir. Chunki nutq madaniyati – bu so‘zga chechanlik‖ bo‘lmay, balki o‘z fikrini aniq, ravshan, grammatik qoidalarga rioya qilgan holda munosib ohangda bayon qilish formasidir. Ravshan bayon etilgan nutq tafakkurning mantiqiyligi va chuqurligidan dalolat beradi.

Odamlarning bir-birlari bilan so‘zlashishlaridan maqsad-moddiy borliqni, voqealikni bilish, o‘zini qiziqtiradigan biror narsa haqida aniq tasavvur olishdir. Odamlarning ichki go‘zalligi va ma‘naviy yetukligini, hayotni va yashashni tabiat in‘om etgan eng oliy ne‘mat- til va tafakkursiz tassavur etish qiyin.

Inson o‘z aql-u zakovati, tafakkuri, so‘zlashish qobiliyati bilan tabiat sirlarini o‘rganib, bilim olishga intilgan. U tafakkur orqali tabiat va jamiyat qiyofasini asta-sekinlik bilan o‘zgartira borgan va shu jarayonda o‘zi ham sotsial sub‘ekt, ya‘ni inson sifatida shakllana borgan. Shirinsuxanlik axloqiy madaniyatning muhim bosqichi

bo‘lib, u kishilik hayotida muhim o‘rin egallaydi. Bir og‘iz samimiy shirinso‘z kishi ko‘nglini ko‘taradi, odamga kuch quvvat bag‘ishlaydi, katta ijodiy faoliyatga undaydi.

Alisher Navoiy bobomiz so‘z qudrati haqida shunday satrlarni bitadi:

So‘z borkim, eshitg‘uvchi taniga jon kiyirur
Va so‘z borkim, aytg‘uvchi boshin yerga berur

(Mahbub ul-qulub asaridan)

Til –dil oynasi, dil esa madaniyatlilik nishonasidir. Dilda bori tilga chiqadi deganlaridek, kishining kimligini uning suhbatidan bilish mumkin. Yoshlarning sodda xalq tilida so‘zlashishi faqatgina o‘qimishliligidan darak bermay, balki ayni vaqtda aqlli va madaniyatliligini ham ko‘rsatadi. Bunday yoshlar birinchi so‘zlashuvdayoq odamlarni o‘ziga jalb qila oladi. Aksincha, qo‘pol ibora, mantiqsiz, pala-partish gap kishiga hurmat, e‘tibor keltirmaydi, balki u haqda yomon taassurot qoldiradi, xolos. Shuning uchun yoshlar hamma vaqt shoshmasdan ohista, mayin ovoz bilan so‘zlashga harakat qilishlari lozim. Talaffuz etilgan har bir so‘z, bo‘g‘in, tovush aniq va ravshan jaranglashi lozim. So‘zlashuvda ham yoshlar juda diqqat qilishi va tinglovchiga yaxshi ta‘sir etish uchun ochiq va yengil iboralarni tanlashi lozim. Yoshlarning notiq bo‘lishi shart emas, lekin faqat fikrini, tushunchalarini to‘g‘ri, aniq iboralar bilan ifoda qilishi kerak. Nafaqat ona tili darslarida, hatto boshqa fanlarni o‘rganishida, tushunchalarini ifodalashida, albatta, nutq madaniyatiga, ravonligiga ega bo‘lishi lozim.

Ona tilimizning sofligini saqlash har bir yosh avlodning sharafli burchidir. Afsuski, ba‘zi yoshlarda turli hildagi, hatto o‘zlari tushunmaydigan so‘zlar va iboralarni ishlatib gapirish hollari ham uchrab turadi. Bunday toifadagi yoshlar so‘zlashayotganida darhol uni to‘xtatib, to‘g‘ri, tushunarli tilda so‘zlashishga chaqirmog‘imiz lozim.

Kishi fikrlarini ta‘sirli, chuqur bayon etishi uchun maqol va matallardan unumli foydalanishi ham kerak. Shunda bayon etilayotgan fikr-mulohazalarning ta‘sirchanligi yanada oshadi. Agar inson tafakkurining eng yuksak yutuqlari, eng chuqur bilimlari va eng otashin tuyg‘ulari so‘zda aniq va ochiq-oydin ifodalangan bo‘lmasa, baribir odamlarga noma‘lum bo‘lib qolaveradi.

Donishmandlardan biri “hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi- nutq qobiliyatidir”, deb ta‘kidlagan ekan. Notiqning shirin so‘zi, ta‘sirli, ma‘noli gaplari kishini beixtiyor o‘ziga jalb qiladi. Dono xalqimiz “yaxshi so‘z-jon ozig‘I” deb bekorga aytmagan. O‘z o‘rnida ishlatilgan: assalomu alaykum‖, bormisiz‖, qadamingizga hasanot‖, kechiring‖, marhamat‖, o‘tiring‖, jonim bilan‖, ofarin‖, rahmat‖, boshim osmonga yetdi‖, kelib turing‖, xayr‖ kabi so‘zlarini muomalada ishlatish qanday yaxshi.

Hozirgi zamon taraqqiyoti, ilm-fanning mislsiz o‘sishi yoshlarimizni ma‘rifatli, odobli, nutq madaniyati shakllangan bo‘lishini taqazo etadi. Ona tiliga befarq qaraydigan kishi o‘z xalqiga, uning asrlar osha ardoqlab kelayotgan milliy madaniyatiga hurmatsizlik qilayotgan bo‘ladi. Tilning sofligi, ma‘no aniqligi, o‘tkirligi

uchun kurash- madaniyat uchun kurashdir. Tillarning eng yaxshisi so‘zga usta til, so‘zlarning eng yaxshisi bilib, oxirini o‘ylab so‘zlangan so‘zdir.

Abdulla Avloniy—Turkiy guliston yoxud axloq‖ asarida shunday go‘zal she‘rni keltirib o‘tganlar:

Go‘zallik yuzda ermas, ey birodar,
So‘zi shirin kishi har kimga yoqar.
So‘zing oz bo‘lsinu ma‘noli bo‘lsun,
Eshitkanlar qulog‘i durga to‘lsun.
So‘zing bo‘lsa kumush, jim turmak oltin,
Misi chiqg‘ay so‘zing ko‘p bo‘lsa bir kun.
Ko‘paygan so‘zni bo‘lgay to‘g‘risi oz,
Shakarning ko‘pidan ozi bo‘lur soz.

Har bir xalqning asrlar, ming yillar davomida takomillashtirib, sayqal berib, ardoqlab kelayotgan bebaho xazinasi bo‘lgan til boyligini chuqur qadrlamog‘imiz lozim.

Darhaqiqat, yoshlar kamoloti, avvalo, uning nutqi, yani fikrlash qobiliyatida nomoyon bo‘ladi.

Shunisi quvonarliki, 11-sinf ona tili darsligining asosini ―Nutq‖ mavzu qamrab olgan. Bu sinfda o‘quvchilarimiz ta‘sirli nutq — madaniy nutq tuzish malakalari, ya‘ni nutq madaniyati bilan tanishadilar, uning asosiy tushunchalarini egallaydilar. Bu darslik yangi hayotga qadam qo‘yayotgan yoshlarga kerakli va muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, biz ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodga nutq madaniyatining sir-asrorlarini o‘rgatmog‘imiz, uni to‘g‘ri va rost so‘zlashga, shirinsuxan bo‘lishga odatlantirmig‘imiz muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega.

Shirin so‘z kishi ko‘nglini tog‘dek ko‘tarib, qalbni hayotbaxsh tuyg‘ular, oliyjanob hissiyotlar bilan munavvar etadi. U ma‘naviy kamolot sari yetaklaydi. Shuningdek, shirin so‘z kishini har qanday qiyinchilikdan qutqaradi, kishi ruhini tetiklashtiradi, hatto bemorlarga shifo beradi...

Ha, tibbiyot ilmining ibtidosidanoq so‘z bilan bemorlar davolangan. Sharq meditsinasining asoschisi Ibn Sino ham Gippokrat ham bemorni dori-darmonsiz so‘z bilan davolash afzal ekanini alohida takidlashgan. Shirinsuxanlik madaniyatlilikning bir belgisidir. Shu fazilatni o‘quvchilarga yuqturish bugungi kunda tarbiyaning dolzarb masalasidir. Yoshlarni shirinsuxan qilib tarbiyalashda keksa avlodning hayot tajribasi, kishilarga bo‘lgan samimiy munosbati eng qiyin va og‘ir paytlarda ham vazminlik, yordam qo‘lini cho‘zish kabi hislatlari katta maktab vazifasini o‘taydi.

O‘rta maktabda nutq madaniyatini o‘stirish vazifasi faqat ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining ishi bo‘lib qolmay, balki butun pedagogik kollektivning, jamoatchilikning ishi bo‘lishi kerak. Ota-onalar ham nutq madaniyatiga ega bo‘lishlari

juda muhim. Chunki farzandlariga namuna, ko‘zgu hisoblanadi. Bizning madaniyatliligimiz, avvalo, nutqimizda ko‘rinadi. Shunday ekan nutqimizning sofligini, jozibasini, dilga yoqimliligini, ta‘sirchanligini yo‘qotmagan holda munosabatga kirishaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Yoshlarning axloq madaniyati.-T: O‘qituvchi, 1988-17
2. Turkiy guliston yoxud axloq‖ asari A. Avloniy.

TILSHUNOSLIKDA TIL VA NUTQ MUNOSABATI

Isoqulova Dilshoda Alisher qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti akademik litseyi

Annotatsiya: ushbu maqola til va nutq musosababtlari haqida yoshilgan. Unda fanema nima eknligi, qanday qo'llash usullari haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: fanema, tilshunoslik, tovush, nutq munosabatlari.

Tilshunoslik boshqa fanlardan ajratilib, o'zicha alohida mustaqil fan sifatida tanilgan davrlardayoq til va nutqni farqlashga e'tibor berilgan edi. Ammo fan taraqqiyoti tarixi davomida hamma jihatdan ham til bilan nutq bir-biridan farqlanavermadi. Shuning ucun, ko'pincha, nutqqa xos hodisalar til hodisasi sifatida talqin qilinib kelindi. Tilshunosligimizning keyingi taraqqiyotida til va nutqni farqlashga jiddiy e'tibor berilmoqda.

Til va nutq hodisalariga o'zaro farqlab yondashishni dastlab VIII-IX asrlarda arab tilshunosligida, keyinchalik V.Humbold, A.Shteyntal, Boduen de Kurtene ta'limotlarida uchratamiz. Lekin til bilan nutq hodisalarini va ularga xos birliklarni ilmiy va amaliy farqlash, shu tushunchalarni batamom yangi mazmunda qo'llash F.de Sossyur va uning izdoshlari yaratgan ta'limot bilan bog'liqdir. Lison(til) va nutqning farqlanishi,tilga tizim sifatida yondashuv XX asr jahon tilshunosligida inqilobga teng hodisa sifatida baholandi. Chunki bu hodisa tilshunoslikdagi mavjud qarashlarni tubdan o'zgartirib yubordi. Tilga, xususan, o'zbek tiliga sistema sifatida yondashuvning dastlabki yillarida lison o'rnida til atamasi qo'llanilib, bu so'z ko'p ma`nolilik tabiatiga ega bo'lganligi sababli, ayrim chalkashliklarni keltirib chiqarardi, chunki insonning nutq so'zlash qobiliyati ham, nutqi ham shu atama bilan yuritilar edi. Atamalarga esa bir ma'nolilik xosdir.

Lison deyilganda ma'lum bir jamiyatning barcha a'zolari uchun avvaldan tayyor holga keltirilib qo'yilgan, hamma uchun umumiy va majburiy fikrni ifodalash va boshqa maqsadlar uchun xizmat qiladigan birliklar hamda bu birliklarning o'zaro birikish qonuniyatlari yig`indisi tushuniladi [3,8;]. Tilning bunday talqini uning psixofizik hodisa ekanligini, u o'ziga umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab(UMIS) kabi sifatlarni mujassamlashtirganligini isbotlaydi. Til (lison) bunday xususiyatlarini aniq formalarda – xususiy hodisa va voqeliklar sifatida gavdalantiradi.Shu nuqtayi nazardan til va nutqning har biriga xos mustaqil birliklari mavjuddir. (Keyinroq, bu birliklar haqida to'xtalib o'tamiz).

Lisonda birliklar va birikish qonuniyatlari farqlanadi. Lisoniy birlik ikki tomonning bir butunligidan iborat bo'ladi:

a) lisoniy birlikning shakily, tashqi tomoni;

b) lisoniy birlikning ma’lum bir vazifasi, ma`noviy qiymati.

Lisoniy birlik ongda qandaydir tarh, ramz sifatida saqlanadi. Masalan, **[a]** fonemasining talaffuz xususiyatlari haqida umumlashma tasavvur o‘zbek tilida so‘zlashuvchi barcha jamiyat a’zolari tilida birdir. Bu **[a]** fonemasining tashqi tomonidir, uning ichki tomonini ma’no farqlash, chegaralash xususiyati tashkil etadi. Ichki va tashqi tomonni bir- biridan ajratib bo‘lmaydi. Bir-birini shartlovchi, bir-biriga bog`liq bo‘lgan “lison – nutq qobiliyati - nutq” zanjirida faqat nutqqina tashqi shaklda (og‘zaki, yozma) namoyon bo‘ladi. F.de Sossyur lison – nutq munosabatini shatranj o‘yini qoidalari asosida tushuntirib o‘tgan. Shaxmat donalari va har bir donaning yurish qoidasi ongimizdagi lisoniy birliklar va ularning birikish imkoniyatlariga o‘xshaydi. O‘yin qoidalari hamma uchun bir xil. O‘yinchi xuddi so‘zlovchi bo‘lib, shaxmat oyinini bilishi esa so‘zlovchining nutq qobiliyatiga o‘xshaydi. Donalarning harakatlantirilishini nutqqa qiyoslash mumkin. Chunonchi:

shaxmat – o‘ynash qobiliyati - o‘yin;

lison – nutq qobiliyati – nutq.

Lison va nutq munosabatiga dialektik, dialektika kategoriyalari nuqtayi nazaridan yondashilganda, u haqdagi tasavvur va bilimlarimiz to‘laqonli bo‘ladi. Lison va nutq munosabatiga dialektikaning umumiylik va yakkalik, mohiyat va hodisa, imkoniyat va voqelik, sabab va oqibat munosabati asosida yondashilsa, u haqdagi bilimlarimiz yanada ravshanlashdi, ya’ni til (lison) umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab (UMIS) belgilariga, nutq esa yakkalik hodisa, voqelik, oqibat (YAHVO) belgilariga egadir.

Lison va nutqning o‘ziga xos birliklari mavjud:

Lisoniy birliklar – fonema, morfema, leksema, qolip;

Nutqiy birliklar – tovush, qo‘shimcha, so‘z, (yasama so‘z, qo‘shma so‘z…) so‘z birikmasi, gap.

Biz quyida bularning farqini birma-bir ko‘rib o‘tamiz.

1.**Fonema** va **tovush.** Eng kichik lisoniy birlik fonemalardir. Fonema muayyan til egalarining ma’lum tovushlar tipi haqidagi umumiy tasavvurlaridir. Har bir fonema so‘zlovchilar ongida o‘z tipini farqlovchi belgilari majmui asosida vujudga kelgan maxsus “akustik – artikulyatsion portret” yoki “tovushlar obrazi” sifatida saqlanadi. Muayyan fonemaning farqlovchi belgilari uning artikulyatsion va akustik xususiyatlari asosida shakllanadi. Artikulyatsion belgilar muayyan tovushlarni talaffuz qilish uchun nutq a’zolarining bir xildagi harakatga moslashgan avtomatik, standart holatlari haqidagi tasavvur bo‘lsa, akustik belgilar sifatida bir turdagi tovushlarga xos talaffuz sifati va miqdori tusuniladi.

O‘zbek tilida so‘zlovchi shaxslarning ongida hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi 30 ta tovush tipi – fonemalar haqidagi ma’lumot bor. Bu ma’lumot kishi ongida uning til o‘rganishi, o‘zgalar va o‘zining nutqini ko‘rsatish natijalari sifatida jonlanadi. Masalan, o‘zbek tili sohibi o‘zining eshitish va so‘zlash a’zolari faoliyatini kuzatish

natijasida [**a**] fohemasining unlilik, kenglik, lablanmaganlik, [**u**] fohemasining unlilik, torlik, lablanganlik, [**p**] fonemasining undoshlik, shovqinlilik, jarangsizlik, portlovchilik, lab – lablik kabi belgilarga ega ekanligi haqidagi “tabiiy” (go‘yoki o‘zi hosil qilingan) bilimga ega bo‘ladi. Nutq so‘zlaganda, kishi ana shu tipik belgilarni jonlantirishga, ongidagi imkoniyatni voqelantirishga, fonetik umumiylikni xususiylashtirishga harakat qiladi.

Lisoniy birliklar nutqiy birliklarga nisbatan miqdoran cheklangan bo‘lsa-da, ammo ularning soni ham sanoqli emas. Shu boisdan ularning xotirada saqlanish mexanizmini ochish lozim bo‘ladi.Ma’lumki, inson narsalarni ularning umumlashtiruvchi va farqlovchi belgilari asosida esda saqlaydi. Esda saqlanishi lozim bo‘lgan narsa miqdor jihatdan ko‘p bo‘lsa, eslab qolishning asosiy yo‘li tasniflash, ya’ni guruhlarga ajratishdir. Tasnif esa o‘xshash va noo‘xshash, umumiy va farqlovchi belgilarini aniqlash asosida kechdi. Bu tamoyil barcha lisoniy birliklar, xususan, fonemalar tasnifida ham to‘la amal qiladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida 30 ta fonema so‘zlovchi ongida, avvalo ikki guruh – unlilar va undoshlarga bo‘lingan holda mavjud bo‘ladi. Bu guruhlar tovushlar talaffuzidagi ovoz va shovqinning ishtiroki darajasiga qarab belgilanadi. Bo‘linish shu tarzda alohida fonemagacha davom etib boradi. Unlilar ham, undoshlar ham qarama-qarshi belgilari asosida kichik guruhlarga bo‘linib boraveradi. Masalan, o‘zbek tilidagi 6 ta unli bir tizim bo‘lib, ular shovqinsizligi bilan undoshlardan ajraladi. Biroq bu tizimchaning o‘zi ham unsurlarning qarama-qarshi belgilari asosida bo‘linadi. Unlilarning qarama- qarshi qo‘yilishi quyidagicha:

i u
e o‘
a o

Umuman olganda, minimal lisoniy birlik bo‘lmish fonemalar inson nutq a’zolari yordamida vujudga kelgan tovush ko‘rinishlarining umumiy andozasi bo‘lib, cheksiz tovushlarning umumlashmalari qatori sifatida ongimizda yashaydi. So‘zlovchilar ongidagi ushbu psixo-akustik obrazlar asosida nutq a’zolarini harakatga keltirib tovushlarni hosil qiladi. Yoki tinglovchi o‘zgalar tomonidan hosil qilingan tovushlarni eshitish orqali ongidagi andozaga solishtirib ko‘radi.

Fonemalarning ma’no farqlash xossasi mavjud bo‘lib, bir fonemaning turli ko‘rinishlari bo‘lgan tovushlarda bu hodisa kuzatilmaydi. Bir fonemaning nutqiy varianti bo‘lmish tovush boshqa fonemaning varianti bo‘lgan tovush bilan almashtirilsa, so‘z ma’nosi yangilanadi, ya’ni boshqa so‘zga aylanadi. Qiyoslang: [*qora*] va [*qara*] [*ota*] va [*ata*], [*ona*] va [*ana*]. Shu boisdan ham fonemaga tilning ma’no farqlovchi eng kichik birligi deb ta’rif berildi. Bir fonemaning turli variantlari ma’no farqlamaydi. Masalan, til oldi va til orqa [**o‘**] unlilari quyidagi so‘zlarda ma’no farqlamagan: *o‘l – o‘l.*

Leksema va so‘z. Lisonning borliq hodisalarini nomlash, ifodalash, ko‘rsatish uchun xizmat qiluvchi birligi leksemadir. Lisoniy birlik sifatidagi leksema biri ikkinchisisiz mavjud bo‘la olmaydigan ikkita psixofizik-akustik struktura (tovush qobig‘i), ya’ni nomema hamda ma’lum bir tusuncha asosida vujudga kelgan mazmuniy struktura, ya’ni sememaning birligidan iborat.

Lisoniy birlik sifatidagi leksemalarning tovush strukturasi fonetik birliklar ko‘rinishlar (variant)larining turlicha kombinatsiyalari asosida vujudga kelgan. O‘zbek tilida mavjud leksemalarning barchasining shakily tomoni tilimizda mavjud 30 ta fonema asosida, xolos. Shu boisdan tashqi fonetik strukturasi asosida leksemalarni kuchli va kuchsiz ziddiyatlarga qo‘yish mumkin. Kuchli oppozitsiyalar bittadan (**u** – olmosh, **e** - undosh), ikkitadan (**ot** - ish), uchtadan (**bor - kel**), to‘rttadan (**qunt - band**) fonema variantining zidlanishi asosida hosil bo‘lgan bo‘lsa, kuchsiz ziddiyatlar leksemalarning tarkibidagi ayrim fonema variantlari asosida bo‘ladi.

Har bir leksema lisoniy birlik sifatida mazmun mundarijasiga ham ega. Leksemalarning mazmun rejasi **denotatlar** yoki **referentlar** deb ataladigan borliqdagi narsa, harakat, belgi, miqdor kabilarni ifodalovchi tushunchalarni bildiradi. Masalan, borliqda *yuz* deb ataluvchi kishi burnining ikki tomonidagi peshonadan iyakkacha bo‘lgan qismi mavjud. Shu asosda kishilar ongida *yuz* tushunchasi vujudga kelgan. Mazkur tushuncha asosida esa semema (leksema ma’nosi) shakllanadi. Tushuncha bilan ma’no bitta narsa emas, ular farqli xususiyatlarga ega. Masalan, ingliz, rus, nemis tillarida so‘zlashuvchi kishilarning ongida *aka* va *uka* tushuchalari mavjud. Biroq bu tushunchalar *brother* (ingliz), *brat* (rus) va *bruder* (nemis) leksemalarida bitta ma’no (semema)da birlashgan. Yoki [*yuz*], [*bet*], [*bashara], [chehra]*, [*oraz*] leksemalari bitta tushunchani ifodalaydi, lekin ularning ma’nolari o‘zaro farqlanadi.

Leksemalarning mazmun silsilasi bo‘lgan sememani tashkil etuvchi uzvlar semalardir. Nomema tovushlarning turlicha kombinatsiyalari asosida tashkil topganligi kabi, ana shu semalarning turlicha birikuvi va ba’zilarining o‘rin almashinuvi asosida turli mazmundagi semema vujudga keladi. Bu sememalarning semik tarkibi quyidagicha:

[*yuz*] – “odamga xos”, “boshning old qismi”, “burunning ikki tomoni”, “peshonadan iyakkacha”, “burundan quloqqacha”, “qo‘llanishi chegaralangan”, “uslubiy betaraf”, “turkiy qatlamga oid”, “umumiste’mol”.

[*jamol*] – “odamga xos”, “boshning old qismi”, “burunning ikki tomoni”, “peshonadan iyakkacha”, “burundan quloqqacha”, “qo‘llanishi chegaralanmagan”, “badiiy uslubga xos”, “arabiy qatlamga xos”. Har ikkala leksema ham bir tushunchani ifodalaydi. Ularning mazmun rejasi – sememalarining semik tarkibi farqlanadi. Leksemalar sememalarining atash semalari denotatning in’ikosi – tushunchani ifodalaydi. Har bir leksema sememasi o‘xshash va farqlovchi semalarga ega. O‘xshash

semalar ularni guruhlarga birlashtirishga, farqli semalar esa ajratish uchun xizmat qiladi.

Leksemaning nutqiy qo‘llanishidagi varianti so‘zlar bo‘lib, ular turlicha matniy qurshovlar asosida har xil xususiyatlar kasb etadi. Leksemalar tub yoki yasama bo‘lishi mumkin. Masalan, [*kitob*], [*savdogar*], *nonchi* birliklarini olaylik. Qatordagi [*kitob*], va [*savdogar*] birliklari tayyorlik, umumiylik, ijtimoiylik xossalariga ega. Biroq tilimizda *nonchi* degan lisoniy birlik yo‘q. U nutq jarayonidagina hosil qilinishi mumkin va yuqoridagi birliklar ega bo‘lgan xususiyatlardan xoli. *Nonchi* birligining nutq jarayonigagina xosligi tayyorlik belgisiga ega emasligini ko‘rsatadi.

3. **Morfema va qo‘shimcha**. Morfema leksemadan ajralgan holda o‘z mohiyatini namoyon qila olmaydigan, shakl va denotativ bo‘lmagan mazmunning birligidan iborat bo‘lgan kichik lisoniy birlikdir. Qo‘shimcha esa ana shu psixo-fizik mohiyatning nutqda namoyon bo‘lishidir. Morfema ham tashqi (moddiy) va ichki (ma’no, vazifa) jihatlar yaxlitligidan iborat. Atov mustaqilligiga, mustaqil sintaktik mavqega ega bo‘lmagan bu birliklar o‘zida leksik va grammatik mohiyatlarni uyg‘unlashtirgan bo‘ladi:

a) yangi so‘zlar hosil qiladi;

b) so‘zlarga qo‘shimcha leksik – semantik qiymat beradi.

Har bir tilga xos birliklar boshqa tillarnikidan o‘zaro farqlanadi. Masalan, aloqasiz (amorf), yelimlovchi (agglyutinativ) va egiluvchan (flektiv) tillardagi leksemalar mohiyatan o‘ziga xosdir.

4.**Qolip va hosila**. Lisoniy birliklarning navbatdagi turi qurilma – qoliplardir. Qolip deganda yasama so‘z, so‘z birikmasi va gaplar hosil qilish sxemalari tushuniladi. Qoliplar ikki xil bo‘ladi:

a) so‘z yasash qoliplari;

b) sintaktik (so‘z birikmasi va gap) qoliplari.

Qoliplar ham boshqa lisoniy birliklar kabi UMIS tabiatli bo‘ladi. Masalan, nutqimizdagi cheksiz yasama so‘zlar (masalan, (*nonchi*), (*sutchi*), (*uzumchi*), (*nisholdachi*) kabi bitta bevosita kuzatishda berilmagan lisoniy birlik (masalan, [*narsa/buyum oti+chi=shu narsa//buyum bilan shug`ullanuvchi kishi*], ya’ni so‘z yasash qolipining nutqiy hosilalaridir. *Kitobni o‘qimoq* nutqiy hosilasi boshqa o‘ziga o‘xshash cheksiz so‘z birikmalari (*qog’ozni yirtmoq, uyni sotmoq* va h.k.) bilan birgalikda [Ot$^{t.k}$+*Fe’l*]= vositasiz to‘ldiruvchili fe’lli birikma] lisoniy sintaktik qolipidan chiqqan nutqiy hosilalardir.

Qoliplar miqdoran cheklangan bo‘lib, masalan, o‘zbek tilida so‘z birikmasi hosil qilishning 18 ta ustivor qolipi ajratilgan va nutqimizda ulardan son- sanoqsiz so‘z birikmalari hosil qilamiz.

Lisoniy va nutqiy birliklar o‘zaro qarama-qarshi belgilarga ega bo‘ladi: lisoniy birliklar moddiylikdan xoli, cheklangan, ijtimoiy, barqaror kabi belgilarga ega bo‘lsa, nutqiy birliklar moddiylikka ega, cheksiz, individual, o‘tkinchi belgilarga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “TILSHUNOSLIKDA TIL VA NUTQ” O’quv qo’llanma. Toshkent 2013-y
2. Mengliyev B.R. Hozirgi o’zbek adabiy tili. Fonetika-fonologiya. Grafika. Imlo. Leksikologiya-semasiologiya. Leksikografiya. I qism Qarshi. 2004.
3. SH.SHoabdurahmonov va b. Hozirgi o’zbek adabiy tili. I qism. 1980.
4. E. Qilichev. Hozirgi o’zbek adabiy tili. Buxoro. 1999
5. Abduazizov A.A. Fonologicheskaya sistema sovremennogo uzbekskogo yazika. Referativniy sbornik //Problemi fonologii i morfonolologii. Referati. Obzori.
6. Bondarko L.V. Foneticheskoe opisanie yazika i filologicheskoe opisanie rechi. -L.:Izd. LGU, L., 1981.

CHINGIZ AYTMATOV ASARLARIDA DAVR MUHITINING AKS ETTIRILISHI

Jo'rayeva Nargiza Tilovmurodovna
Termiz davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Chingiz Aytmatov yigirmanchi asr adabiyoting eng qalami o'tkir ijodkorlaridan biri hisoblanadi. Yozuvchi asarlarida tasvirlangan oddiy qishloq hayoti, davr muhiti, insonlarning murakkab hayot chizgilariga nisbatan soda va oddiy munosabatlari yorqin bo'yoqlarda tasvirlanadi. Ushbu maqolada Chingiz Aytmatov asarlarida davr muhitining tasvirlanishi haqida batafsil bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: 20-asr adabiyoti, milliy o'zlik, insonparvarlik, bosh qahramon, obrazli tasvirlash.

Chingiz Aytmatov nomi butun dunyo kitobxonlariga juda tanish va qadrli. Buyuk qirg'iz yozuvchisi va jamoat arbobining vafoti haqida tarqalgan xabar jahon ahlini qayg'uga soldi. Adib haqli ravishda o'zbek xalqining ham sevimli yozuvchisiga aylangandi. Buyuk yozuvchining 80 yoshga to'lishiga yarim yil qolgan edi. Chingiz Aytmatov Germaniyaning Nyurnberg shahridagi klinikada 2008 yil 10 iyun kuni vafot etdi. Ammo adibning o'lmas merosi — betakror asarlari, samarali faoliyati so'nmas quyosh kabi porlab turaveradi. "Biz quyoshning so'nishiga yo'l qo'ya olamizmi?". Zamonamizning alp adiblaridan, asarlari, shubhasiz,jahon mumtoz adabiyotini boyitgan Chingiz Aytmatov bundan o'n bir yil muqaddam "Literaturnaya gazeta" tahririyatida bo'lib o'tgan "Cho'qqida qolgan ovchining ohu zori" asari taqdimotida shunday degan edi. Biz ajoyib so'z ustasi, zabardast yozuvchi Chingiz Aytmatov yaratgan "Momo yer", "Birinchi o'qituvchi", "Jamila", "Sarvqomat dilbarim", "Alvido, Gulsari", "Erta qaytgan turnalar", "Sohil bo'ylab chopayotgan olapar" kabi dilbar qissalarni o'qib, olamni, hayotni idrok etganmiz, ezgu hislarga oshno bo'lganmiz. "Asrga tatigulik kun", "Qiyomat" romanlarining behad teran mohiyatidan, ajib timsollardan lol qolganmiz, "Kassandra tamg'asi" romani falsafasidan o'yga tolganmiz. Adibning sermahsul ijodi necha-necha iste'dodlar namoyon bo'lishiga turtki bo'ldi.

Yozuvchi O'rta Osiyodagi boshqa xalqlar singari o'zbek adabiyotiga ham befarq bo'lmadi. San'atimiz, adabiyotimizdagi har bir yangilikdan xabardor bo'lib turdi. Xususan, Oybek, Mirtemir, Zulfiya, Pirimqul Qodirovlar ijodini e'tirof etdi, hamisha xalqimizga samimiy, sidqidildan munosabatda bo'ldi. Chingiz Aytmatov haqli ravishda qadim Turkiston zamonaviy nasrining namoyandasi sifatida ellarimizni jahonga tanitdi. "Asrga tatigulik kun" romanidagi birgina manqurt obrazi jahon adabiyotida yangi hodisa emasmidi? O'zuvchi bitgan sara asarlar dunyo adabiyotining

tarkibiy qismiga aylandi. Uning qissalari, romanlari uslub jihatidan ham, janr jihatidan ham tubdan farq qiladi, bir-birini takrorlamaydi. Lekin birgina jihatdan o‘xshash — ular orasidan birorta nosamimiy asarni topolmaysiz. Samimiyat — Aytmatovning ilk qissalaridan to so‘nggi yillarda yaratgan falsafiy romanlarigacha yo‘g‘rilib ketgan. Davr ruhi bu asarlarga daxl qilolmaydi — hammavaqt kishiga birday ta’sir etadi, kitobxon bu kitoblarni har safar o‘qiganida yangi-yangi sifatlarni kashf qilaveradi. Uning asarlaridagi psixologizm kitobxonga juda kuchli ta’sir ko‘rsatadi. O‘zuvchi jamiyatning qat’iy insoniy qadriyatlari, o‘zgarmas ma’naviy qonuniyatlariga suyanib asar yozdi. Chingiz Aytmatov — olamni nozik mushohada qiluvchi donishmand, inson qalbining eng teran, sirli torlarini chertishga qodir mohir musiqachi va faylasuf edi. Muallifdagi ana shu xislatlar uning so‘nggi romanlaridan biri — “Kassandra tamg‘asi”da yana bir bor o‘z aksini topdi. Bolalik… Ijodkor qalbi sira qarimaydi. Bolalikning beg‘ubor, oppoq tuyg‘ulari adibni umri davomida tark etmadi, ana shu hislar uning go‘zal asarlariga yetakchi bo‘ldi. O‘zuvchining “Bolaligim” avtobiografik qissasi fikrimizga dalil bo‘la oladi. Chingiz To'toqulovich Aytmatov - ajoyib zamonaviy yozuvchi. Qirq yildan ortiq adabiyotda ishlagan u tariximizning qiyin va qahramonlik lahzalarini jonli va haqqoniy aks ettira oldi. Yozuvchi hali ham ijodiy rejalarga to'la, boshqa roman ustida ishlayapti. Aytmatov 1928 yilda Qirg'izistonning chekka Sheker qishlog'ida tug'ilgan. 1937 yilda otasi, taniqli partiya xodimi, noqonuniy ravishda qatag'on qilingan. Aynan o'sha paytda Aytmatov sharaf darsini oldi: "Sen kimning o'g'lisan?" Boshini ko'tarmasdan, odamlarning ko'ziga tik qarab, otasining ismini chaqirish kerak. Bu buvimning, otamning onasining buyrug'i edi ». Uzoq davom etgan sharaf darsi hayotning printsipiga aylandi, keyinchalik ijodkorlik. Yozuvchi mifologiyadan, hatto ertakdan ham keng foydalanadi. Aytmatov mifologiyasi o'ziga xosdir. Zamonaviy mifologizm - bu nafaqat afsonaning poetikasi, balki uning orqasida turgan dunyoni idrok etishdir, u o'z ichiga mafkuraviy va badiiy qarashlarning murakkab majmuasini oladi.

“Cho‘qqida qolgan ovchining ohu zori” asari — bu bir yo‘l, mangu savollar yo‘li. Bu savollarning ko‘pi murakkab, ko‘pi fojiali. Inson o‘ziga o‘zi bu savollarni mardona bera turib, qo‘rquvni, ruhan tushkunlikni yengadi, zero, umidni yo‘q qilib bo‘lmaydi. Chingiz Aytmatov asarlari haqida yanada ko‘p va xo‘p gapirish mumkin. Har bir davr kitobxoni yozuvchini o‘zicha, yangicha talqin etadi, yangi-yangi ohanglardan bahramand bo‘ladi. Aytmatov zabardast yozuvchi, siyosiy arbob bo‘lishi bilan birga katta so‘zlar bilan yoziluvchi grajdan ham edi. Yillar bo‘ldiki, xalqimiz boshiga qora kunlar tushdi, tuhmatlar yog‘ildi. Yurtimizga mash’um “O‘zbek ishi” atalmish falokat yo‘ladi. Ana shunda Chingiz Aytmatov dadil o‘z so‘zini aytdi. Aytganda ham o‘zbeklarning jahon tamadduniga qo‘shgan hissasini baralla aytdi. Bu bizga madad bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi hukumati yozuvchi xizmatlarini e’tirof etdi, taqdirladi.

Chingiz Aytmatov millionlab yillar davomida insoniyat taraqqiyotining asosiy asosini, uning ko'p asrlik tarixini, afsona va afsonalarda saqlanib qolganini, uning yorqin kelajagining garovi deb biladi. Hayot - insoniy mavjudot - erkinlik - inqilob - sotsializmni qurish - tinchlik - insoniyat kelajagi - bu qadamlar, hayotning haqiqiy yaratuvchisi va xo'jayini Odam Odamining "hammasi oldinda" ko'tariladigan yagona va yagona zinapoyasini tashkil etadi. va undan yuqori! " U, Chingiz Aytmatovning bosh qahramoni, odamlar, Yer, Koinot bilan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan va bo'ladigan hamma narsa uchun shaxsan javobgardir. U - harakatli va tafakkurli odam - butun insoniyat qo'ygan qiyin yo'lda noto'g'ri hisob -kitob qilinishining oldini olish uchun o'z o'tmishini sinchkovlik bilan o'rganmoqda. U kelajakka intiqlik bilan qaraydi. Bu yozuvchini zamonaviy dunyoga yondashuvida ham, o'z qahramonini tasvirlashda ham, ularni barcha polisemiyasida ham tushunib yetishga ko'maklashadi. "Buranniy polustanok" romani haqiqatan ham yurak qoni bilan yozilgan ta'sirchan asar, har xil fikrlarni keltirib chiqardi. Uning atrofida munozara davom etmoqda. Ba'zilar, "irmik og'zi" tasvirining vaqtinchalik noaniqligi noto'g'ri talqinni keltirib chiqarishi mumkin deb hisoblaydilar. Boshqalar aytishicha, romandagi "Paritet" deb nomlangan va asarning butun kosmik chizig'ini o'z ichiga olgan ramz bir -biriga zid printsiplardan tashkil topgan, shuning uchun ular bilan bog'liq asosiy muammoning echimini so'zsiz qabul qilib bo'lmaydi. Bundan tashqari, boshqalar "manqurt" haqidagi afsona ham, faqat publitsistik vositalar yordamida yaratilgan kosmik fresk ham hikoyaning asosiy qismiga juda aniq organik tarzda payvandlanmaganligini qo'shib qo'yishadi.

Yozuvchi insoniyat hayotining eng murakkab muammolari haqida o'z fikriga ega bo'lgan oddiy odamning eng boy ma'naviy dunyosini ishonchli tarzda ko'rsatishga muvaffaq bo'ldi. Bizning davrimiz o'z qahramoni nigohi bilan bizga g'alabalari va mag'lubiyatlari, achchiq va quvonchlari, qiyin muammolari va yorqin umidlari bilan qaraydi. Yangi roman - "Kassandra markasi", 1994 yilda "Znamya" da nashr etilgan. Bundan ham betashvish, lekin o'ziga yarasha bezovtalanuvchi, "Aytmatov yo'lida". Ko'rinib turibdiki, MDHning keng hududlarida odamlar jang qilmoqdalar, katta miqdordagi pulni o'g'irlaydilar, boshqa nomaqbul ishlarni qiladilar - bu haqda yozinglar. Biroq, Aytmatov, uning oyog'i ostidagi har xil tafsilotlarni o'ylay olmaydi. Uning nigohi hali ham yuqoridan pastgacha Yerga qaratilgan va uni butunlay yopib turadi. Bosh qahramon - rohib Filoteiy Yer atrofida orbital stantsiyada uchib ketishi tasodif emas: shuning uchun siz uni, baxtsiz, yaxshiroq ko'rishingiz mumkin. Filofey har doim ham shunday bo'lmagan, ilgari u, olim Andrey Andreevich Kriltsov, sun'iy odamlarni etishtirishga ixtisoslashgan "iksrods", aytganda, erkin eksperimentchilarning qornida, ya'ni ayol mahbuslar. Keyin, o'zini rohib deb e'lon qilishdan biroz oldin, olim nafaqat bu adolatsiz ish emas, balki embrionlar ham tug'ilishdan bosh tortishini, bu erda yovuzlik hukm surishini bilib oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Aytmatov Ch. Birinchi muallim.-Toshkent:” O’qituvchi”,1986.
2. Luqmon Bo’rixon. Xizir ko’rgan yigit”.-Toshkent: “Sharq”, 2007.
3.Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik.-Toshkent:”Akademnashr”,2020.
4.Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi.Toshkent: “Muharrir”2011

HERODOT: THE FATHER OF HISTORY AND THE FIRST ETHNOGRAPHER

Urunov Shoxijahon Jamshidovich
Student of Bukhara State Pedagogical Institute
urunovshoxijahon@gmail.com

Abstract. This article explores the life and travels of Herodotus, the ancient Greek historian, and father of history. Born in Halicarnassus during the 5th to 4th centuries BCE, Herodotus belonged to a prosperous family and received a good education. His early life laid the foundation for his remarkable journeys and his eventual contributions to historical writing. Herodotus's extensive travels took him to various regions of the Mediterranean, Asia Minor, and Egypt. During his journeys, he observed and documented diverse cultures, historical events, and societal customs. His fascination with ancient civilizations led him to explore the architectural wonders of Egypt and the grandeur of the Persian Empire. The article highlights how Herodotus's travels influenced his approach to historical writing, incorporating ethnographic details and cultural insights. His most significant work, "The Histories" stands as one of the earliest examples of historical and ethnographic writing, reflecting his passion for storytelling and meticulous observations.

Keywords: Herodotus, historian, travels, ancient civilizations, Mediterranean, Egypt, Persian Empire, cultural insights, "The Histories", ethnography, historical writing.

Introduction: Herodotus, born in the ancient Greek city of Halicarnassus during the 5th to 4th centuries BCE, is considered one of the earliest and most influential historians of the ancient world. Often referred to as the "Father of History" Herodotus played a crucial role in shaping the genre of historical writing. His magnum opus, "The Histories' stands as one of the first known works of history and ethnography in Western literature.

Early Life and Travels

Herodotus's extensive travels were a defining aspect of his life. He embarked on various journeys across different regions of the Mediterranean, Asia Minor, and Egypt. These voyages provided him with invaluable opportunities to observe and learn about diverse cultures and historical events firsthand.

1. Travels in Asia Minor and Surrounding Regions: During his early travels, Herodotus explored several regions in Asia Minor, including the territories of modern-

day Turkey. He was fascinated by the rich history, vibrant cultures, and ancient civilizations that thrived in this part of the world.

2. Journey to Egypt: One of Herodotus's most significant journeys was his trip to Egypt. His fascination with the country's ancient civilization led him to explore its architectural wonders, religious practices, and cultural traditions. Herodotus was deeply impressed by the engineering marvels, such as the Great Pyramid of Giza, and documented his observations about Egyptian society in his writings.

3. Mediterranean Exploration: Throughout his life, Herodotus traveled extensively around the Mediterranean, visiting various Greek colonies and islands. He was intrigued by the interconnections between different cultures and the influence of geography on shaping societies.

4. Exploration of Persia and the East: Herodotus ventured eastward to the vast Persian Empire, then one of the dominant powers of the ancient world. His journeys took him to the heart of the empire, where he observed the grandeur of the Persian court and the customs of its people.

Herodotus's travels not only allowed him to gather historical information but also exposed him to a myriad of cultural practices and traditions. These experiences greatly influenced his approach to writing history, as he believed in the importance of presenting a comprehensive understanding of the world, its people, and their interconnectedness. Herodotus's early life and extensive travels laid the groundwork for his groundbreaking work as a historian and ethnographer. His encounters with different cultures and civilizations enriched his historical writings, making him one of the foremost chroniclers of the ancient world. His magnum opus, "The Histories" stands as a testament to his curiosity, meticulous observations, and dedication to unraveling the tapestry of human history.

"The Histories"

Herodotus's most significant work, "The Histories" consists of nine books that cover the Greco-Persian Wars, focusing on the conflicts between the Greek city-states and the mighty Persian Empire. Written in the Ionic Greek dialect, the narrative combines historical facts, myths, and legends, reflecting the storytelling tradition of ancient Greece.

Ethnography and Cultural Insights

One of the remarkable aspects of Herodotus's work is his inclusion of ethnographic details about various societies and peoples. He goes beyond recording battles and politics to describe the customs, traditions, and ways of life of different civilizations. This ethnographic approach was a groundbreaking departure from earlier historical writings that merely chronicled events.

Accuracy and Interpretation

While Herodotus's work is highly regarded for its comprehensive scope and engaging storytelling, some scholars have criticized his accuracy and reliability. Modern historians often debate the extent of his embellishments and biases in recounting historical events. However, his writings remain an essential primary source for understanding the ancient world and the socio-cultural dynamics of his time.

Legacy and Influence

Herodotus's influence on subsequent historians and writers cannot be overstated. His approach to combining historical events with cultural insights and his dedication to collecting diverse perspectives laid the foundation for the discipline of history. Later historians, including Thucydides and Polybius, built upon his methodology and expanded the boundaries of historical research.

Conclusion

Herodotus's contributions to history and ethnography have left an indelible mark on the world of scholarship. His pioneering work as a historian, storyteller, and traveler has inspired generations of historians and shaped the way we study and interpret history. Herodotus remains an enduring figure, celebrated for his immense curiosity and passion for unraveling the tapestry of the past.

REFERENCES:

1. Herodot. The Histories (Tarix). (Original work in Ancient Greek, 5th century BCE)
2. Pliny the Elder. Natural History (Historia Naturalis). (Original work in Latin, 1st century CE)
3. Strabo. Geographica (Geography). (Original work in Ancient Greek, 1st century BCE)
4. Dionysius of Halicarnassus. Roman Antiquities (Antiquitates Romanae). (Original work in Ancient Greek, 1st century BCE)

DURPOSHSHO XUDOYNAZAROVA SHE'RIYATINING BADIIYATI

Xudayberganov Yodgorbek Sotimbayevich
Urganch davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Bu maqolada xorazmlik ayol ijodkor Durposhsho Xudoynazarova she'rlarining badiiyati tahlil qilingan. Tabiat haqidagi "Rangtasvir" she'rida orginal o'xshatishlar, falsafiy xarakterga ega "Tashrif" she'ridagi tasavvufiy qarashlar, "Xorazm" she'rida vatanini shu muhitgagina xos bo'lgan jihatlarni bayon qilish usullari tahlil qilingan.

Kalit so'z: Xorazm adabiy muhiti, "Rangtasvir" she'ri, "Tashrif" she'ri, "Xorazm" she'ri.

Durposhsho Xudoynazarovaning she'riyati olamidagi rang-baranglik mavzular ko'lamida, tesha tegmagan original o'xshatish, tashbehlarda va o'ziga xos ifoda yo'sinida ko'zga tashlanib turadi. Jumladan, tabiat tasvirining shoira ijodiga xos oshiqona notalarda kuylanishini quyidagi "Rangtasvir"[39] she'rida ko'rishimiz mumkin:

Maysalarning sho'x davrasida
Qoqio'tlar turar mastona.
Qumrilarning mahzun sasidan
Kabutarlar bo'lar devona...

Bu banddagi tabiatga oshiqlik ruhidan shuni anglashimiz mumkinki, shoira o'zining ko'nglida jo'sh urayotgan muhabbatni "qoqio'tlar"ga, "kabutarlar"ga ko'chiradi. She'rda lirik qahramonning faqat bitta xususiyati, tabiatga oshiqligi, namoyon bo'ladi. Insonga xos xususiyatlarning predmetga ko'chishining go'zal ifodalari she'rning oxirgi bandida ham davom etadi:

Lolalarning libosi - alvon,
Oshiqlarning oladi hushin…
Ayta boshlar suvlarga tushin...

Adirlarda yam - yashil insho.Endi bu bandda shoira "giyoh"larni vosita qilib oladi. Uning hidlari hech qanday cheklovlarsiz dunyoni bo'ylashi esa tushga qiyos qilinadi. Ya'ni tushdagi inson kabi xohlagan makonda va zamonda bo'lishi mumkinligiga ishora qilinadi. "Ayta boshlar suvlarga tushin…" kabi xalq og'zki ijodini joyida qistirib ketilishi esa shoiraning mahoratidan nishonadir. E'tibor berib qarasak, bu xalq og'zaki ijodining o'zida tabiat unsuri, suv, bor. Tabiatga bog'langan she'rda insonga xos "tush" detalini va tabiatning unsurini o'zida jamlagan xalq og'zaki ijodini o'z o'rnida yopishtirib ketishi she'rning badiiy qimmatini yanada oshirgan.

[39] Durposhsho Xudoynazarova. " Bir tutam yog`du". Xorazm yoshlari-Urganch 2022.

Shoiraning “Tashrif”[40] she’rida falsafiy qarashlar ilgari suriladi. Shoira:

Men keldim samoviy kengliklar osha,
Inson deb atalgan nafasga mahkum.

-degan misralar bilan she’rni boshlaydi. Shoira shu ikki misralarning o‘zida konfliktni yuzaga keltiradi. Bunda lirik qahramon “samoviy kenglik”ni erk deb biladi va unga qarshi tarafda tug‘ilishni, insonni va tiriklikni qullik, mahkumlik deb ataydi. Ayni damda shu mahkumlik “nafas” so‘zi bilan ham izohlab o‘tiladi. Bu bilan lirik qahramon “inson” bo‘lib yashash o‘tkinchiligiga, nafas kabi qisqaligiga ishora qiladi. Bu esa mubolag‘a san’atining betakror ifodasini yuzaga keltirgan. Bandning keyingi ikki misrasida esa samodan ayrilishning, tiriklikka mahkum etilishning sababi keltiriladi:

Hukmi mutlaq edi ishqqa yarasha,
Sohir muhabbatga yarasha hukm...

Bu misralar endi bandda nima haqida fikr yuritilayotganini yanada ravshanlashtiradi. “Ishqqa yarasha” hukm, “Sohir muhabbatga” berilgan hukm deganda nima nazarda tutilmoqda? Bu bilan shoira nima demoqchi? Bu savollarga javob izlash uchun esa insoniyat yaratilishiga oid diniy-tasavvufiy qarashlarga suyanish kerak. Ya’ni shoira bu bilan Odam Ato va Momo Havoning jannatdan quvilishiga ishora qilyapti. Diniy-tasavvufiy ta’limotga ko‘ra Alloh bandalarini o‘ziga ibodat qilishi uchun, muhabbat qo‘yishi uchun yaratgan. Ammo ular o‘z Egalariga yetarli darajada ishq qo‘yolmadilar, bu yo‘lda sustkashlik qildilar. Ya’ni shaytonning aldamchi “Sohir muhabbatiga” aldandilar. Shuning uchun ham ular o‘zining qalbidagi “ishqqa yarasha” hukm etildilar. Keyingi bandlarda lirik qahramonning “mahkumlikda” o‘tgan hayoti tasvirlanadi:

Chechaklarga burkab o‘ng-u ro‘yoni,
Ko‘ngul ufqlariga lolalar tikdim.
Gul-haman ko‘rmoqni istab dunyoni,
Umidlar qadadim, ilinjlar ekdim.

Lirik qahramon bu bandda jannatni izlaydi. Buning uchun lirik qahramon asir etilgan dunyosini “Chechaklarga burkab o‘ng-u ro‘yoni” jannatga o‘xshatishga kirishadi. U nafaqat atrofini, balki ruhiy dunyosini ham o‘zgartiradi. Buni biz “ro‘yo” so‘zidan anglab olishimiz mumkin. Bilamizki, ro‘yo insonda fizologik o‘zgarishlar natijasida hosil bo‘ladigan jarayon. Bu vaziyatda insonda nimani ko‘proq ko‘rish istagi tug‘ilsa, o‘sha narsa inson ko‘z oldida paydo bo‘ladi. Demak, lirik qahramon jannatni qayta ko‘rish uchun botinni ham tarbiya qiladi, qalbiga umidlar qadaydi, ilinjlar ekadi. Undagi istak shu darajada kuchliki, ko‘ngil ufqlari hijrondan, iztirobdan lola kabi

[40] O‘sha manba.

qizarib qonga to‘lgan. Keyingi bandda lirik qahramonning murodiga yetishishiga guvoh bo‘lamiz:

Iltijodan ungan - ilohiy ne’mat,
Bog‘i Jahonoro, Bog‘i Dilkusho...
Falaktoz obida - falaktoz qurbat
Mendan shaffof yodgor-samoviy insho...

Bu bandda lirik qahramon iltijo ya’ni ibodat bilan “ilohiy ne’matga” erishadi. Ikkinchi misradagi bog‘lar tahlilida esa tarixga yuzlanishimiz kerak bo‘ladi. Bunda “Bog‘i Jahonoro” Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan, “Bog‘i Dilkusho” esa Amir Temur tomonidan yaratilgan bog‘lardir. Aynan shu bog‘larni keltirilishida ham ramziylik bor. Dilkusho so‘zi fors-tojik tilida ko‘ngil ochuvchi, yaratuvchi degan ma’nolarni bildiradi. Bu bilan ijodkor iltijo, duo orqali inson g‘uborlangan, kirlangan ko‘ngillarini ochadigan yo‘lni topishi, yaratishi mumkinligini aytadi. Banddagi “Falaktoz obida - falaktoz qurbat” misrasi ham alohida tahlilni talab qiladi. Bunda biz “Falaktoz” qo‘shma so‘zi tarkibidagi “toz” leksemasining ma’nosiga e’tibor qaratishimiz lozim. Toz so‘zi boshning sochsiz qismiga nisbatan qo‘llanadi. Xo‘sh, nega falaktoz? Tasavvufda soch dunyo ramzi ekanligiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, toz so‘zining misra tarkibidagi ma’nosi yanada oydinlashadi. Soch va toz so‘zlarini bir-biriga zidlantiradigan bo‘lsak, misrada toz so‘zi zimmasiga dunyosiz, tarki dunyo qilgan inson ma’nosi yuklatilgnini ko‘rishimiz mumkin. Endi misradagi boshqa so‘zlarni ham izohlaydigan bo‘lsak, falak so‘zi Alloh makoni, “qurbat” so‘zi esa Allohga yaqinlashish ma’nosida kelganligini anglaymiz. Ana endi izohlarni umumlashtirsak, quyidagicha xulosa chiqarishimiz mumkin. Misrada “Falaktoz obida” birikmasi qabr degan mazmunni anglatyapti, “Falaktoz qurbat” jumlasi esa bu foniy dunyodan ham ruhan, ham qalban kecholgan insongina Alloh vasliga erisha oladi degan g‘oyani ilgari suryapti. Ya’ni tasavvufga ko‘ra vahdat ul-vujud hosil qiladi.

Shoiraning vatanni madh etuvchi she’rlarida ham o‘ziga xos yondoshuvlarni ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, shoira “Xorazm”[41] she’rida vatanini shu muhitgagina xos bo‘lgan jihatlarni bayon qilish yo‘sinida tasvirlayda. Shoira ortiqcha she’riy san’atlarsiz musiqiy ohang shaklida oson tushuniladigan jumlalar orqali milliylikni, tabiatimizni kuylaydi. She’rning uchinchi bandida esa orginal qiyoslashni ko‘rishimiz mumkin:

Kaltaminor - uzun iztirob,
Unsiz savol ham unsiz javob,
Asrlarga ibratli xitob -
Naqshi nigor, zarhal Xorazm.

Bu bandda shoira kaltaminor obyektining spetsifikasidan, kaltaligidan, foydalangan holda Xorazmning tarixini “uzun iztirob” deyish orqali hech kimnikiga

[41] O‘sha manba

o‘xshamagan konfliktni yaratadi. Keyingi bandlarda muallif Xorazmlik avliyo, shoir-ijodkor va san’atkorlarni xalq qanaday tasavvur etishi jihatidan nomlarini turli sifatlashlar bilan keltirib o‘tadi:

Orol - asrim chuqur yarasi,
Yuragimning qonli porasi,
Bolam, sensan najot qal’asi,
To‘zonlari - asal Xorazm.

...Ming tirilib, ming marta o‘lib,
Qad rostlagan har gal Xorazm.

She’rning yuqoridagi keyingi ikki bandida shoira Xorazmning og‘ir ekologik mintaqa ekanligini eslatib o‘tgan holda yosh avlodga xitob qiladi. Yurtni va tabiatni asrash ularning qo‘lida ekanligini, ular “najot qal’asi” ligini aytadi. Shoira she’rning oxirgi bandida yurtdagi har qanday qiyinchilikka qaramasdan uni sevishini, ulug‘lashini va bu “Ming tirilib, ming marta o‘lib, har gal qad rostlagan Xorazm”ni nurli kelajakka mash’al bo‘lishini ta’kidlaydi.

Yo‘llarimda mash’al Xorazm.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Durposhsho Xudoynazarova she’riyatning ilmini chuqur egallagan intellektual ijodkordir. Chunki badiiyatan boy she’rlarni yarata olgan. Tabiat haqidagi “Rangtasvir” she’rida orginal o‘xshatishlar ko‘zga tashlansa, falsafiy xarakterga ega “Tashrif” she’rida esa tasavvufiy bilimlarni ham chuqur egallaganini ko‘rishimiz mumkin. Shoira ijodini kuzatar ekanmiz, bu kabi nozik tasvirlarga ega, katta falsafiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega ijod namunalarini ko‘plab uchuratishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. D.Xudoynazarova. “ Bir tutam yog`du”. Xorazm yoshlari-Urganch 2022.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati – T. ziyouz.com-2013

TARIXIY OBRAZ VA BADIIY ADABIYOTNING UCH OLAMI

Xudayberganov Yodgorbek Sotimbayevich
Urganch davlat universiteti 1-bosqich magistranti
yodgor_alishon17@mail.ru

Annotatsiya: Bu maqolada badiiy adabiyotda aks etgan tarixiy obrazlar haqida ilmiy mulohozalar aks etgan. Badiiy adabiyotning epik, lirik, dramatik turlariga alohida to‘xtalib o‘tgan holda va ularning spetsifik xususiyatlaridan kelib chiqib tarixiy obraz tushunchasi izohlab berildi.

Kalit so‘z: Tarixiy obraz, hayoti va badiiy haqiqat, spetsifik xususiyat, adabiy tur, badiiy talqin.

Annotation: This article presents scientific considerations about historical images reflected in fiction. The concept of historical image is explained with special emphasis on the epic, lyrical, dramatic types of fiction and their specific features.

Key words: Historical image, life and artistic reality, specific feature, literary type, artistic interpretation.

Tarix butun insoniyat uchun chinakam ibrat maktabidir. Biz uning vositasida, avvalo, o‘zligimizni anglab yetamiz. Turli tarixiy hujjatlar, ilmiy risolalar orqali biz tarix haqida aniq faktlarga, ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Bu kabi faktlar esa, olamni o‘zgacha nigoh bilan kuzatuvchi ijodkor ongida, uning badiiy tafakkurida yangicha obrazda gavdalanadi. Bunda reallik bilan badiiylikning sinkretik munosabatidan yaratilgan tarixiy asar bevosita insonning qalbiga ta’sir qiladi. Kitobxon ruhan ongida shakllangan tarixga sayohat qiladi. “Tarixiy shaxslar o‘z davrida tutgan sotsial mavqeyi, hayotdagi roli, tarixiy haqiqatga mos ravishda buzmasdan saqlanadi va to‘qima yo‘li bilan yaratilgan xarakterlarga bog‘langan holda haqqoniy tasvir etiladi”.[42]

Boshqa adabiy tur va janrlarga nisbatan epik turda yaratilgan asarlarda tarixiy shaxslar talqini salmoqli o‘rin egallaydi. Chunki epik turning janriy xususiyatlari muallifga o‘z fikrlarini, voqealar rivojini izchillik bilan bayon qilishga ancha qulaylik yaratib beradi. “Darhaqiqat, epik asarda makon va zamonda kechuvchi voqea-hodisalar tasvirlanadi, so‘z vositasida o‘quvchi tasavvurida reallik kartinalariga monand jonlana oladigan to‘laqonli badiiy voqelik yaratiladi.”[43]. Ayniqsa roman, qissa janrlari alohida ahamiyat kasb etadi. Roman o‘zida katta tarixiy davrni yoki katta syujetlarni qamrab olgan holda, nafaqat ma’lum bir tarixiy obraz haqida, balki u yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy ahvoli, muayyan hududning geografik tasvirlari, shuningdek bosh

[42] I. Sulton. Adabiyot nazariyasi. “O‘qituvchi”, Toshkent – 1980, 194-bet.
[43] Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. www.ziyouz.com kutubxonasi.

qahramonning atrofidagi tarixiy obrazlarning ruhiy-ma'naviy kechinmalari tasvirlarini berilishi bilan ajralib turadi. Ijodkor o'z navbatida bosh qahramon qilib olmoqchi bo'lgan tarixiy obrazi haqida ko'p izlanishlar olib borishi kerak bo'ladi. Jumladan, ko'pgina ijodkorlarimiz bitta tarixiy asarini yaratish uchu bir yil, hatto olti-yetti yillab o'qib-izlanishgan, katta tayyorgarlik ko'rilgan. Qissa janrida esa, asosan, tarixiy obrazning muayyan bir davri olinib, qisqa syujetlardan tuzilgan kompozitsiyadan iborat bo'ladi. Lekin shunday bo'lsa ham tarixiy asar yuzasidan ijodkorga qo'yiladigan yuqoridagi talablar qissa janrida yozilajak asar uchun ham asosiy mezon hisoblanadi. Chunki qissadagi voqealar tarixning muayyan kichik davri asosiga qurilgani uchun ijodkorga asarni yozish ancha qiyinchilik tug'diradi. "Ko'ramizki, roman, qissa, hikoya janrlariga mansub asar qahramonlari asarda tutgan mavqei, ahamiyati, vazifasi jihatidan farqlanadi. Roman muallifi uchun qahramon vosita – dunyoni anglash (bunisi maqsad) vositasi, qissanavis uchun qahramonning o'zi maqsad (voqea hodisalar vositasi), hikoyanavis uchun voqeaning o'zi maqsad bo'lib xizmat qiladi"[44].

Hozirgi kunda badiiy asarlarda tarixiy shaxslarning talqinini juda ko'plab asarlarda uchratishimiz mumkin. Buning boisi tarix bu eng avvalo har bir millatnning o'zligi, milliy iftixoridir. O'zbek adabiyotida ham XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab butunjahon tarixida o'chmas iz qoldirgan, jumladan, Alisher Navoiy, Sulton Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Abu Rayhon Beruniy, Al – Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Zamaxshariy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa shu kabi ajdodlarimizni badiiy adabiyotga tarixiy obraz sifatida olib kirish asta-sekin kuchaydi.

Bugungi kun adabiyotida esa shunday ajdodlarimizning o'chmas xotiralariga ehtirom sifatida ularning ijtimoiy-siyosiy faoliyatidan xabar beruvchi juda ko'plab asarlar yaratilmoqda. Darhaqiqat, badiiy adabiyotning insoniyat jamiyati oldidagi buyuk xizmatlaridan biri bu tarixiy asarlardir. Tarixiy hujjatlar insonga faqat ma'lumot bersa, tarixiy asarlar insonning qalbiga tasir etgan holda muayyan bir davrni ko'z oldimizda tiklab bergandek bo'ladi. Adabiyotshunos M. Qo'shjonov ta'kidlaganidek, "Tarixiy shaxs yashagan, ishlagan muhitiga ko'piroq e'tibor berish, bizning nazarimizda, yirik siymolar obrazini yaratishning muhim tomonidir"[45]. Shuningdek, bunday tarixiy mavzudagi badiiy asarlarimiz yoshlarimizga tarixni o'rgatishda ham katta ahamiyatga egadir.

"Vatan va xalq manfaati yo'lida nom qozongan mashhur shaxslar va olamshuml voqealar tarixiy mavzu obyektidir. Bu mavzu silsilasida ijodkor Tarixiy shaxslarga bag'ishlangan asarlarning o'ziga xos o'rni bor"[46]. Demak, badiiy qahramonga aylangan tarixiy inson o'z xarakteri, qilgan amallari, ijobiy va salbiy jihatlari bilan

[44] Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. www.ziyouz.com kutubxonasi.
[45] Qo'shjonov M. Ma'no va mezon. "Toshkent, Adabiyot va san'at", 1974, 23-bet.
[46] B. Rahimova. O'zbek adabiyotida Pahlavon Mahmud obrazi talqinlari. Urganch - 2012.

badiiy timsol bo‘la oladi. Bunday tarixiy asarlar nafaqat badiiy adabiyot bo‘lib qolmasdan, balki unutilgan tarixni yoki hali olimlar tomonidan izlanishlar olib borilmagan tarixni qayta jonlantirish hisoblanadi. Pahlavon Mahmud, Jaloladdin Manguberdi, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur kabi butun jahonga tanilgan tarixiy siymolarimiz haqida juda ko‘plab ilmiy, badiiy asarlar yaratilyapti.

Adabiyotning epik, lirik, dramatik kabi uch turi voqealarni badiiy talqin qilish usuli, asar kompozitsiyasi va asar syujeti jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi. Ayniqsa dramatik tur o‘zining spetsifik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Dramaning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, unda badiiy hodisa hayot hodisasiga aylanadi, tinglovchining yoki tomoshabinning hissiyotlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Shu bois ham bu turni adabiyotning gultoji desak, yanglishmagan bo‘lamiz. Dramatik asarlar sahna muhiti bilan bog‘liq bo‘ladi. Dramatik turda voqealar xarakterlar faoliyati vositasida ochiladi. Unda xarakter rejisor talqini, aktyor ijrosi natijasidagina to‘la ochiladi. Demak, dramatik turda xarakter faqat badiiy til vositasidagina emas, sahna harakati bilan ham ochiladi. Dramatik tur asarlarini faqat o‘qib, tushunib, tasavvur qilibgina qolmay, ko‘riladi ham. Dramatik tur asarlarida voqealar qahramonlarning dialoglari shaklida beriladi. Unda muallif nutqi, lirik chekinish, xarakteristika bo‘lmaydi. Ayrim izohlarni muallif remarkalardagina bera oladi. Biroq remarka hech qachon muallif izohi bo‘la olmaydi. “Dramatik tur o‘z navbatida xilma-xil janrlarga ajratiladi: tragediya, drama, komediya, kinodramaturgiya, teleminiatyura, intermediya”[47].

Drama harakatlarni jonli tarzda ifodalashi bilan, shuningdek, obrazning real hayotdagidek holat va tasvirlarda berilishi uni boshqa adabiy turlardan ajratib turadi. Ayniqsa, dramadagi obraz real, tarixiy shaxs bo‘lsa, bu yanada jonliroq chiqadi. Bunda tarixiy shaxsning spetsifik xususiyatlaridan kelib chiqib qandaydir badiiy g‘oya ilgari suriladi. “Kechmish tarixiy siymolar tasviri ijodida salmoqli o‘rin tutadi. U tarixiy o‘tmish yoki safar taassurotlari haqida yozganda ham birinchi galda zamondosh yurtdoshlari uchun zarur, qiziqarli, hayajonli biror jiddiy, ibratli gap aytishga intiladi”[48]. Agar dramadagi obraz tarixiy siymo bo‘lsa mas’uliyatni ancha oshiradi. Chunki tarixiy shaxslar haqida o‘quvchi ozmi-ko‘pmi ma’lumotlarga ega bo‘lgan holda, o‘zicha u haqda ma’lum tasavvur hosil qilgan bo‘ladi. Darhaqiqat, “Adabiy xarakter real hayotiy inson xarakterining ko‘chirmasi, kopiyasi emas, badiiy adabiyotdagi xarakter nisbatan kengroq tushuncha bo‘lib, u ham real hayotiy, ham ijodkor fantaziyasidagi, idealidagi tasavvurlarni mujassamlashtirgan bo‘ladi, ijodkor xarakter vositasida voqelikka munosabat bildira oladi”[49].

[47] Salaev F.Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so’zligi.T. Yangi asr avlodi. 2010 68-bet.
[48] U. Normatov. Yonib, o‘zgalarni uyg‘otmoq ne baxt. “Adabiyot va san’at”, Toshkent – 1994, 372-bet.
[49] N. Xotamov, B. Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha – o‘zbekcha izohli lug‘ati. “O‘qituvchi”, Toshkent – 1979, 336-bet.

Hozirgi adabiy jarayonda nasr, drama kabi adabiy turlar qatorida lirikada ham tarixiy mavzu yetakchi hisoblanadi. “She’riyat tarix vositasida davr muammolari yechimini axtarganda, moziy voqealari, o‘tmish ma’naviy merosi, milliy an’analarga yoki tarixiy shaxslarning millat hayotida qoldirgan izlariga murojaat etadi va bulardan muhim xulosalar chiqarishga intiladi”[50]

O‘zbek she’riyatida tarixiy mavzuda, tarixiy siymolarning hayoti va ijodi haqida, shuningdek, ularning ko‘ngil kechinmalari haqidagi tasvirlarga ega asarlar juda ko‘plab topiladi.

Lirik asarlarda ichki kechinmalar tasviri ustun bo‘lgani bois undagi obrazlar ham psixologik tasvir ostida beriladi. Bu esa bitta she’rning o‘zida ham muallif, ham lirik qahramon nutqini yoki ruhiy tasvirini sinkretik tarzda kelishiga sabab bo‘ladi. Lirik qahramon tarixi (konkret har bir she’rdagi kechinma –obraz tarixi)ning mavjudligi lirikadagi syujetni voqye qiladi. Lirik asar bir oniy kechinmaga suyangani uchun ham undagi syujet eposdagi kabi “voqealar silsilasi” tarzida namoyon bo’lmaydi, balki u oniy – ruhiy harakat tarixi ifodasi tarzida yuzaga chiqadi.V.G.Belinskiy yozganidek, “lirik asarning mazmuni ob’ektiv voqeaning taraqqiyoti emas, uning mazmuni - subyektning o’zi va u orqali o’tgan hamma narsadir... kishini mashg’ul etgan, to’lqinlantirgan, shodlatgan, qayg’uga solgan, zavqlantirgan, tinchitgan, hayajonlantirgan nima bo’lsa, qisqasi, subyektning ma’naviy hayotini tashkil qilgan hamma narsa, subyekt ichiga nima kirsa, unda nima paydo bo’lsa, shularning barchasini lirika o’zining qonuniy boyligi kabi qabul qiladi”[51]

Lirikada tarixiy mavzu o‘zbek adabiyotida, asosan, XX asrning ikkinchi yarmidan shakllana boshlandi. Savol tug‘iladi, xo‘sh undan oldin tarixiy mavzudagi badiiy asarlar bo‘lmaganmi? Bo‘lgan, albatta. Ammo qanday asra edi ular? U davrlardagi asarlar, umuman adabiyot, ilm-fan mafkuraga bo‘ysindirilgan asarlar edi. U davrdagi adabiy mavzulardan bugungisi ham aynan shu tomoni bilan, ya’ni mustaqilligi bilan farqlanadi. Lekin lirik turda tarixiy asar yaratish boshqa adabiy turlarga nisbatan keskin farq qiladi. Jumladan, lirikada voqelikka psixik tomonlama yondashish, real faktlarga badiiylikni ko‘piroq singdirish kabilar asosiy o‘rin tutadi. V. G. Belinskiy shunday deydi: “Eposda subyekt mavzu bilan ko‘milgan bo‘ladi; lirikada esa subyekt mavzuni o‘z ichiga olish, singdirish, uni chuqur o‘zlashtirish bilan cheklanmaydi, balki mavzuga to‘qnashuv uning ichida qanday tuyg‘ular uyg‘otgan bo‘lsa, barchasini ichki chuqurligidan olib chiqadi. Lirika tilsiz sezgilarga so‘z va obraz beradi, ularga alohida hayot bag‘ishlaydi. Demak, lirika asarning mazmuni obyektiv voqeaning taraqqiyoti emas, uning mazmuni – subyektning o‘zi va u orqali o‘tgan hamma narsadir… Dunyoni va hayotni harakat qildiruvchi kuchlar bo‘lgan hamma umumiy narsa, hamma substantsiyaga oid narsa, har qanday ideya, har qanday fikr – lirik asarning mazmuni

[50] J. Jumaboyeva. XX asr o‘zbek she’riyatida psixologik tasvir mahorati. “Fan”, Toshkent – 2004, 207-bet.
[51] Белинский. Собр. Соч. в трёх томах, Т II. , М., ГИХЛ, 1948 стр. 188

bo‘la oladi, lekin bu umumiy narsa subyektning eng yaqin, eng ichki narsasiga aylanishi, uning sezgisiga kirishi, uning biron tomoni bilan emas, balki butun mavjudiyati bilan bog‘langan bo‘lishi shart”[52].

Shuningdek, lirikani ba’zi kichik turlarida tarixiy mavzuda ijod qilish deyarli chegaralangan. Chunki tarixiy mavzuga qo‘l urgan ijodkor kitobxonga tarix nafasini bera olishi darkor. Shu bois lirikaga asos qilib olingan tarixiy voqelikni bir tomonini yoki tarixiy obrazning ma’lum bir hislatini, jumladan, jasurligi, aqlliligi, buyuk xizmatlari va boshqalarni ko‘rsatib berishga intilishadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tarixiy shaxslar qalamga olingan badiiy asarlar badiiy adabiyotning qaysi turida yaratilishidan qat’i nazar bu ijodkorga katta mas’uliyat yuklaydi. O‘z me’yoriga yetgan asarlar esa bir millat kutubxonasining oltin javonidan joy oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sulton. Adabiyot nazariyasi. “O‘qituvchi”, Toshkent – 1980.

2. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. www.ziyouz.com kutubxonasi.

3. Qo‘shjonov M. Ma’no va mezon. “Toshkent, Adabiyot va san’at”, 1974.

4. B. Rahimova. O‘zbek adabiyotida Pahlavon Mahmud obrazi talqinlari. Urganch - 2012.

5. Salaev F.Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so’zligi.T. Yangi asr avlodi. 2010.

6. U. Normatov. Yonib, o‘zgalarni uyg‘otmoq ne baxt. “Adabiyot va san’at”, Toshkent – 1994.

N. Xotamov, B. Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha – o‘zbekcha izohli lug‘ati. “O‘qituvchi”, Toshkent – 1979.

7.V. G. Belinskiy. Tanlangan asarlar. O‘zdavnashr, Toshkent – 1955

8. Jumaboyeva. XX asr o‘zbek she’riyatida psixologik tasvir mahorati. “Fan”, Toshkent – 2004.

9. Белинский. Собр. Соч. в трёх томах, Т II. , М., ГИХЛ, 1948.

[52] V. G. Belinskiy. Tanlangan asarlar. O‘zdavnashr, Toshkent – 1955, 184-bet.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	OMU DARYONING IKKI QIRG‘OG‘IDA YASHAB EJOD ETGAN ERKİN VOHİDOV VA MATIN ANDXUIYNING O‘ZBEGIM VA QUVONCH AVJI QASIDALARIDAGI TARIXI SIMOLAR Abdul Khalil Ahmadoughli	4
2.	DUNYO TILSHUNOSLIGIDA LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK TUSHUNCHASIGA OID NAZARIY QARASHLAR Baxridinova E’tiborxon Adaxamovna	25
3.	INNOVATIVE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS ACTIVITY Mamarasulov is the son of Babur Bakhtiyar	32
4.	CULTURALLY DETERMINED FACTORS IN SIMULTANEOUS TRANLATION Shamsiyeva Marjona A’lam qizi	36
5.	THE ROLE AND ROLE OF FREE ECONOMIC ZONES IN INCREASING INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF JIZZAX Nabihojayeva is the daughter of Dilafroz Sabir	45
6.	ILK TARJIMALARNING YUZAGA KELISHI HAQIDA THE SOURCES OF FIRST TRANSLATIONS Nilufar Bafoyeva Salim qizi	50
7.	KONSTITUTSIYA-ISHONCHLI QALQON Rustamova Gulchehra Komiljonovna	55
8.	BOLALARDA KREATIV YONDASHUV ASOSIDA INNOVATSION FIKRLASH KO`NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH Kadirova Dildora Nadjatbekovna	58
9.	KADMIYNING KIMYOVIY AHAMIYATI 1Xoshimxanova Muhayyo Abralovna, 2Shamsuddinov Latifxon Odil o‘g‘li, 2Mirusmanova Parizoda Bobur qizi, 2Kurbanbayeva Xilola Davronbek qizi	64
10.	ELEKTRON RAQAMLI TIBBIYOTDA QO‘LLANILADIGAN CHAQALOQ TAROZISINI LOYIHALASH Shakarov Farxod Quvondiqovich Keldiyorov Abrorbek Ahmad o‘g‘li	69
11.	MUTAXASSISNING SHAKLLANISHIDA MUSTAQIL TA’LIMNING ROLI Mavlanova Saidaxon Umarovna	78
12.	OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA ONA TILI TA’LIM MAZMUNINI METODIK RIVOJLANTIRISH Kubaeva Yulduz Ismailovna	83
13.	TIL TA`LIMIDA IMLOVIY VA GRAMMATIK KO‘NIKMALARNI TAKOMILLASHTIRISH Shaxlo Karimova	88
14.	KUKUNSIMON SELLULOZANING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI VA ULARDAN FOYDALANISH Qo‘chqarova Durdona Ilhomjon qizi Soliyev Maxammadjon Ismatullayevich	92
15.	BIZNESDA MIJOZLAR BILAN ISHLASH Rashidov Shohboz Ilhom o`g`li	96
16.	THE HEALING POWER OF MUSIC Marufjon Yuldoshev Mashrab Muhammadiev	101

17.	AYLANBA SHINIǴIW METODLARI ARQALI 5-7-KLASS OQIWSHILARINDA JUWIRIW QÁBILETIN RAWAJLANDIRIW METODLARI Ubbiev Baxıt Amangeldievich Najimov Paraxat Ibraimovich	108
18.	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ СРЕДСТВ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ: СИНХРОННАЯ И АСИНХРОННАЯ СИСТЕМА ОБУЧЕНИЯ Ядгарова Лола Джалоловна	111
19.	ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ТИЗИМЛАРДА МИНТАҚАВИЙ БОШҚАРУВГА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ Жураева Гавхар Тошбобоевна	115
20.	STUDY OF THE SPREAD AND CAUSES OF PARASITIC DISEASES IN SAMARKAND REGION Kabilov Nadir Nuriddinovich Hasanov Ulugbek Komilovich Khakimov Azam Khusanovych	122
21.	КЛАССИФИКАЦИЯ ВЕРБОВ И ЕГО ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ В ПРЕДИКАТИВНОМ ПРЕДЛОЖЕНИИ Имамова Х.Э.	127
22.	KORXONALARDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI J.M.Djalalov	134
23.	SPORT KONTRAKTLARIDA NEUSTOYKANING QO‘LLANILISHI Hakimov Sunnat Furqat o‘g‘li	137
24.	EXPLORING EFFECTIVE APPROACHES IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING Kayar Gulnoza Chariyevna Botirova Feruza Orifovna	145
25.	ЭКОЛОГИК МУНОСАБАТЛАРНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ Абдуганиева Гулруҳ Мансур қизи В.Р.Топилдиев	150
26.	INTERPRETATION OF SOCIAL STUDIES IN LINGUISTICS Tangrieva Dilovar Anvarjonovna	157
27.	ДРАМАДА РЕМАРКА ВА УНИНГ БАДИИЙ-ЭСТЕТИК ФУНКЦИЯСИ Ибодат Рустамова Дилноза Муротова	161
28.	O’RMON - DALA EKOLOGIK OROMGOHLARIDA EKSKURSIYANI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA USULLARI Usmanova Sohiba Soqibaevna	166
29.	ALGORITMNING ANOMALIYALARNI ANIQLASH ALGORITMI PARAMETRLARIGA BOG‘LIQLIGINI TEKSHIRISH Rustamova Maftuna Sirojiddin qizi	172
30.	KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA KONSEPT TUSHUNCHASI VA UNING TURLI TILLARDAGI IFODALANISHI G‘ulomova Bibi Muxlisa Maxmudjon qizi	176
31.	BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARI ORASIDA NUTQIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH Oripov Xakimjon Tursunovic Ummatova Raxima Karimberdi qizi Axatova Xiyoda G‘aniyevna	180
32.	TILSHUNOSLIKDA TIL VA NUTQ MUNOSABATI	184

	Isoqulova Dilshoda Alisher qizi	
33.	CHINGIZ AYTMATOV ASARLARIDA DAVR MUHITINING AKS ETTIRILISHI Jo'rayeva Nargiza Tilovmurodovna	190
34.	HERODOT: THE FATHER OF HISTORY AND THE FIRST ETHNOGRAPHER Urunov Shoxijahon Jamshidovich	194
35.	DURPOSHSHO XUDOYNAZAROVA SHE'RIYATINING BADIIYATI Xudayberganov Yodgorbek Sotimbayevich	197
36.	TARIXIY OBRAZ VA BADIIY ADABIYOTNING UCH OLAMI Xudayberganov Yodgorbek Sotimbayevich	201

Eslatma! “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Bosh muharrir

Abdumannonov Islomjon Ikromjon o‘g‘li

Mas’ul muharrir

Isroilov Ozodbek Saydullajon o‘g‘li

Nashrga tayyorlovchi

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li

“Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali, 2023-yil. 209 bet.
© Talqin va tadqiqotlar,
© Mualliflar jamoasi.